

37.091
M-188

R.MUSURMONOV, M.MUSURMONOVA

**O'QUVCHILARNING DARSGA
BO'LGAN MUNOSABATINI
KLAUSTER ASOSIDA O'RGANISH**



37.098.

14-188.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

R.MUSURMONOV, M.MUSURMONOVA

**O'QUVCHILARNING DARSGA
BO'LGAN MUNOSABATINI
KLASTER ASOSIDA O'RGANISH**

*Maktab rahbarlari, o'qituvchilar, amaliyotchi
psixologlar va ota-onalar uchun o'quv metodik qo'llanma*

-4708/x-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«MALIK PRINT CO»
TOSHKENT – 2022

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETINING 5 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI.

UO*K: 37.091.12(075.8)
KBK: 74ya73

Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi Rahmatilla Musurmonov hamda "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi Maludaxon Musurmonovalarning ushbu o'quv metodik qo'llanmasi pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yo'nalishida pedagogika va psixologiya ta'lim talabalari, professor-o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlari, o'qituvchilar va amaliyotchi psixologlar, magistrlar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari hamda ta'lim-tarbiya sohasi bilan shug'ullanuvchi ilmiy izlanuvchilar, ota-onalarga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatlarini rag'batlantirish, salbiy xislatlar sabab va oqibatlarini profilaktika qilish, tashxislash, korreksiyalash hamda bolalar bilan hamkorlikda tizimli ishlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari va mexanizmlari yoritib berilgan.

Ushbu o'quv metodik qo'llanma pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yo'nalishida "maktab-laboratoriya" ta'lim muassasasi bilan olib borilgan tadqiqotlar asosida tayyorlandi. Shuningdek, Oliy pedagogik ta'lim pedagogika va psixologiya yo'nalishi bakalavriat talabalariga "Pedagogik konfliktologiya" fanini o'qitish va "Maktab-laboratoriya" ta'lim muassasasida olib borilgan ilmiy-metodik tajriba materiallari mujassamlashtirildi. Qo'llanma maktablarning barcha o'qituvchilari, sinf rahbarlari, amaliyotchi psixologlar va ota-onalar uchun bevosita amaliy faoliyatda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'quv uslubiy kengashining 17.02.2022 yil 7-sonli bayonnomasi bilan nashr etishga tavsiya qilingan.

Pedagogika fanlari doktori J.E.Usarov tahriri ostida

Taqrizchilar:

Maxkamov U.I – pedagogika fanlari doktori, professor.

Po'latov Sh.P – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-8464-2-5

KIRISH

*Inson odobi bilan go'zaldir.
Odob - oltindan qimmat*

Inson barkamolligi uning ma'naviy dunyosining mukammalligi bilan belgilanadi. O'z vaqtida yaxshi tarbiya topgan shaxs butun umri davomida qadr-qimmat topadi va go'yoki o'zini qimmatbaho boylikka ega bo'lgandek his qiladi. Yurish-turish madaniyati kishilik jamiyati madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanib, uning asosini jamiyatda inson o'zini qanday tutishi kerakligini belgilab beruvchi hukmonom axloq normalari tashkil qiladi. Inson hamma vaqt go'zallikka va tartiblilikka intilgan, shuning uchun oddiy xalqda ham avloddan-avlodga o'tib kelgan va odatga aylanib qolgan udumlar hamda yurish-turish qoidolari paydo bo'lgan va ular xalqlar an'analarida ajoyib tarzda o'z ifodasini topgan. Yaxshilikka, go'zallikka intilish insonga xos xislatdir, shuning uchun insonlarning kushmuomala va odobli bo'lishga intilganligi taajublanarli hol emas.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarida o'tkazilgan ijobiy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Shunday xayrli ishlaridan biri mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab berishni ko'zda tutadi. Innovatsion texnologiyalarning keng o'zgartirilishi, chet el sarmoyalari ko'lamlarining kengayishi, ta'lim-tarbiya sohasidagi rivojlanishi, shuningdek, uzluksiz ta'limning fan va ish-tajriba chiqarish bilan integrallashuvi, o'qituvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning innovatsion pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o'quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta'minlanishi ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'lmoqda.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalaridan biri – umumiy o'rta ta'lim maktablari, birinchi navbatda qishloq joylardagi maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ular tarkibi sifatini oshirish, o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini

oshirishning samarali tizimini yaratish amalga oshirilayotgan rivojlanish va o'zgartirishlarga asos bo'lmoqda.

Shundan kelib chiqib, ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va fan va texnologiyalarning yutuqlariga asoslangan metodlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli ravishda rivojlantirish, zamonaviy shaxsiy va kasbiy sifatlarini talab qiladi.

Maktablarda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalardan biri – bu ta'limning sifatli salohiyati va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligida tarbiyaviy munosabatlardir.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda, o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataymiz. Ana shu tarbiyaga mas'ul bo'lgan bir qator shaxslar borki, ular faoliyatidagi jiddiy kamchilik va nuqsonlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni davlat ta'lim standartlari darajasida egallashda, yangi O'zbekiston sharoitida barkamol shaxslarni tarbiyalashda muammo bo'lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarimiz samarasi o'laroq, ana shu kemtiklikni to'ldirish, ya'ni oila, ta'lim muassasasi, mahalla, yoshlar tashkilotlari, huquqni himoya qiluvchi organlarning hamkorlikdagi ishlari o'zining ijobiy natijasini berishi ilmiy-metodik jihatdan isbotlandi.

Darsga salbiy munosabatdagi bolalarning o'ziga xos xarakter va xususiyatlari o'rganib chiqilib, ta'lim-tarbiya jarayonida ularga tizimli ravishda ta'sir etishning yo'l-yo'riqlari shakllantirildi.

Metodik qo'llanmaning afzalligi shundaki, tarbiyasi qiyin bo'lib qolish sabablari, balog'atga yetishda o'smirlarning o'ziga xos psixologik holati, shaxsning fazilatlarini tarkib toptirishdagi asosiy nuqsonlar, o'smirlarning tipologik xususiyatlari, o'smirlarning "tarbiyasi qiyin" bo'lib qolish sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va psixik holatidagi nuqsonlari, bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari hamda bu muammolarni bartaraf etishda nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida tavsiyalar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-

3152 sonli Qarori bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil qilingan edi. Qaror bilan institutga viloyatdagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chek tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda institut o'zining asosiy strategik yo'nalishlari va rivojlanish kontsepsiyasini ishlab chiqadi.

Toshkent viloyati ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni o'rganish va ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta'lim sub'ektlari faoliyatidagi tarqoqlik hududda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligi va ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda institut Toshkent viloyatida pedagogik ta'lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog'liq yangi tizimni o'zining ustuvor strategik yo'nalishi sifatida belgilab olinib, institut professor-o'qituvchilari tomonidan shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, "Pedagogika va menejment" kafedrasida professor-o'qituvchilari Chirchiq shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagogik jamoasi bilan ota-onalar, mahalla va boshqa jamoatchi tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish, salbiy munosabatlarni oldini olish, tashxislash va korreksiyalash yo'nalishida ishlamoqda.

Ma'lumki, pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga

kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislari tayyorlash uchun birlashishdan iboratdir. Bizning urinishlarimiz ham ana shu muammolarga yechim topish uchun qilingan sa'y harakatidir.

Muammoning yechimini hal qilish uchun tadqiqot ishimizni uchta dolzarb masalaga bo'lib o'rgandik, xususan: Birinchi yo'nalishida, tarbiyasi qiyin bo'lishning ijtimoiy, pedagogik va psixologik sabablarini aniqlash va bartaraf etish yo'llarini izlash, pedagogik va metodologik asoslarini kuchaytirishga asoslangan.

Darsga salbiy munosabatdagi maktab o'quvchilariga pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida maslahatlar ta'siri ostida munosabatlarini ijobiy tomonga burish, egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini faollashtirish orqali natijaga erishish.

Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishida, psixologik xizmat va tarbiyasi qiyin yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari va tarbiyasi qiyin yoshlarni tarbiyalash masalasi o'rganib chiqilgan.

Uchinchi yo'nalishida, darsga salbiy munosabatdagi bolalar bilan ishlash va ularning xatti-harakatlari qay darajada ekanligini aniqlash mumkinligi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra ular bilan qanday muomalada bo'lish kerakligi to'g'risida tavsiyalar yoritib berilgan. Bu ishlar odatda uyda ota-onaga, maktabda psixolog, o'qituvchilarga yuklatiladi. Psixolog bolani doimo nazorat qilib unga ibratli mashqlar orqali muntazam ravishda shug'ullanib borishi haqida metodik tavsiyalar berilgan.

O'QUVCHILARNING DARSGA BO'LGAN MUNOSABATINI KLAUSTER ASOSIDA O'RGANISH

I-BOB. O'QUVCHILARNING DARSGA BO'LGAN MUNOSABATLARINI KLAUSTER ASOSIDA O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Shaxs fazilatleri tarkib topishidagi nuqsonlarni oldini olish pedagogik muammo sifatida

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlilik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlilik davrini – o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlilik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarni ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor etish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning ulg'ayib, katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar bolani bolalik chog'ida unga odob-axloq o'rgatishni eski shakl va usullaridan foydalanilgan bo'lsa, endi ular bola uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Avval bolalar ota-onalari, tarbiyachilarning axloq-odob haqidagi gaplarini bajonidil eshitgan bo'lsalar, endilikda bunday ta'sir bolani zeriktiradi yoki yoqmay qoladi.

Natijada, unda kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi islatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa bu davrning "qiyin",

“murakkab” davr bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

O‘smirlarga ta’lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o‘smir bilan bo‘ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o‘zgartirish muhimdir. Ularga ta’sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo‘ladi. Bunda albatta, har bir yosh bilan alohida munosabatda bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

O‘smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug‘dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar o‘smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o‘zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o‘smirga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o‘smirlar real xatti-harakatlarning shakllari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o‘smirning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga o‘tishi amalga oshiriladi.

Bizda o‘smirning hayot sharoiti, unga beriladigan ta’lim-tarbiya va uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ijtimoiy foydali mehnat qilishga jalb qilish orqali qiyinchiliklar bartaraf qilinadi.

Lekin, afsuski, ba’zan yoshlarimiz orasida tarbiyasi “qiyin” bo‘lgan, “qiyin tarbiyalanuvchi” yoshlar ham uchraydi. Savol tug‘iladi: tarbiyasi “qiyin” bo‘lishiga sabab nima?

Tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishi ijtimoiy sabablaridan tashqari pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Yoshlarda nojo‘ya xatti-harakatlar paydo bo‘lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishni yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o‘smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoida buzar guruhlariga ajratiladi.

Shaxsning biologik o‘rishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o‘qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyin bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shaxsning psixik o‘rishidagi kamchiliklar, irodaning bo‘shligi, aql

idrokning zaif rivojlangani, hissiyotning kuchsizligi zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o‘smirning intilishi bilan mavjud imkoniyati o‘rtasidagi nomutanosiblik kabi xatti-harakatlarni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy hisslarning yetishmasligi;
- b) o‘qituvchi, sinf jamoasi, oila a’zolari bilan noto‘g‘ri muloqot;
- v) ishyoqmaslik;
- g) bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlay bilmaslik va boshqalar salbiy holatlarni vujudga keltiradi.

Shuningdek, shaxsning o‘quv faoliyatidagi kamchiliklari:

- aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;
- maktab faoliyatidagi tarbiyaviy yo‘nalishdagi kamchiliklar;
- 4) o‘qitishdagi nuqsonlar ham shular jamlamasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhit ta’siridagi nuqsonlar, chunonchi oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, ba’log‘atga yetmagan tengqurlarining ta’siri, ma’naviy-ma’rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar tarbiyasi qiyin o‘smirlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

O‘smirlarning tipologik xususiyatlariga qarab ularni bir necha shartli guruhlariga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subut-sizlar deyiladi. Bular o‘z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarini buzadilar, noma’qul ishlarni qiladilar. O‘zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Lekin yutuqlarini e’tirof qilishini xohlaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma’qullashini va o‘z talablarini o‘zgalar so‘zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Ular betga chopar, o‘jar, rahim-shafqatsiz, «zo‘ravon» bo‘ladilar.

Mustaqil fikrga ega bo‘lmagan tengdoshlarini o‘z atroflariga to‘playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o‘smirlar yaxshi va yomonni tushunadiganlar, biroq mustaqil e’tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg‘uga ega emasliklari sababli «orqa qanot»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqealikka, ta’sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog‘liqdir. Ular tashviqotga tez beriladiganlar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo‘lga kirib qol-

ganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyat-parastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan qaytmaydilar, odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar. Biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomad chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar.

Ularining shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi.

Injiq tabiatli qiyin tarbiyalanuvchilar jamoa va guruhlarda o'z o'rinlarini topa olmaydilar, ular arazchan, ginaxon bo'lib o'z guruh va jamoalariga qo'shilib ketavermaydilar, tortinib o'zlarini kamsitilgandek his qiladilar. Ular ham qiyin tarbiyalanuvchi yoshlarning bir turidir. Jamoa o'rtasida obro' qozonishni, hurmatga sazovor bo'lishni juda xohlaydilar. Lekin ulardagi tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatga ishonchsizlik bunga imkon bermaydi. Ular maktab, sinf jamoasining qoida va qonunlarini buzishga harakat qilmasalar ham, lekin bu jamoaning ish faoliyati va muvaffaqiyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida yetarlicha qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar, jamoa ishini orqaga suradilar va jamoa ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi.

Bola rivojlanishidagi biologik nuqsonlar:

- a) sezgi organlaridagi kamchiliklar;
- b) o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;

Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

- a) aqlning bo'sh rivojlanligi;

- b) irodaning zaifligi;
- v) hissiyotning kam rivojlanganligi;
- g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;
- d) o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

Bola tarbiyasidagi nuqsonlar:

- a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;
- b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muqotidagi zaifliklar;

v) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatoliklar;

v) ijtimoiy muhit, oilaviy sharoitdagi ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlar.

Bolaning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi o'zgarishlar;

b) ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarning yetishmasligi.

Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta'lim jarayonida bilimlari va xatti-harakatlarini adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va h.z.

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smirda xayrixoh emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik).

Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

b) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

v) ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

g) oila a'zolari o'rtasida sudlangan kishining uchrashi;

d) tengqurlarning salbiy ishlariga (haqorat qilishiga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatish va h.z.;

e) madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari (e'tiborsizlik va loqaydliliklari).

Tarbiyasi «qiyin» yoshlarni tarbiyalashda ular bilan individual munosabatda bo'lish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bilan individual munosabatda bo'lishda har bir yoshni individualligining fiziologik asosini va uning shaxsi haqida ma'lum darajada ma'lumot beruvchi

oliy nerv (asab) faoliyati tiplari haqidagi I.P.Pavlov ta'limotini bilish o'qituvchilarga yordam beradi.

Asab tizimining kuchi nerv hujayralaridagi moddalarning zahira miqdori bilan belgilanadi. Kuchli tipdagi asab tizimida bunday zahira ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir. Asab tizimining kuchli qo'zg'alish jarayoniga, shuningdek tormozlanish qobiliyatiga aks etadi.

Asab tizimining kuchlilik tamoyiliga muvofiq kuchli tipga sangviniklar, flegmatiklar, kuchsiz tipga esa melanxoliklar kiradi.

Asab tizimining ildamligi miya po'stining tormozlanishi bilan yoki aksincha tormozlanishning qo'zg'alishi bilan naqadar yengil almashinuvidan iboratdir.

O'qituvchilar o'quvchilar asab tizimining plastiklik xususiyatiga ega ekanligini, uning har qanday ta'sirlarga beriluvchanligini nazarda tutib, o'quvchilar shaxsidagi salbiy xislatlarni yo'qotish mumkinligiga katta ishonch hosil qilishi kerak.

Bu o'rinda yoshlarning g'oyaviy maslagini hisobga olish ham nihoyatda muhimdir. O'quvchi individualligini shaxs mazmuniga, avvalo uning g'oyaviy maslagi, ya'ni uning qiziqishlari, ideallarini bilish kerak. Yoshlarga individual munosabatda bo'lishda ijtimoiy maslak sifatida ularning ijtimoiy qiziqishlarini bilish ayniqsa muhimdir.

Yoshlarni emotsional-irodaviy xususiyatlarini bilish ham ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bilan individual munosabatda bo'lishda uning qanchalik tinch, mumkinligi yoki emotsionalligi, hissiyotga beriluvchanligini, ya'ni tevarak atrofdagilardan farq etish yoki farq etmasligini, samaradorlikka moyil yoki moyil emasligini, o'z hissiyotini tuta olish-olmasligini va shuningdek, unda qanday hislar ustun ekanligini bilish juda muhim.

Yoshlarning axloqiy xislatini hisobga olish ham muhim. Chunki yoshlarning g'oyaviy maslagi uning axloqiy xislatida ko'rinadi. Ammo, ba'zan axloqiy maslak bilan yoshlarning xulqi to'liq ravishda munosib kelmay qoladi. Kattalar har bir yoshlarning qanchalik vatanparvarligini, mehnatsevarligini qanchalik hurmat qilishini, qanchalik to'g'riligini va vijdonliligini, o'rtoqlik va hamkorlikni qanchalik his qilishini kuzatib, bilib borish zarur.

Salbiy axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalariga rioya qilmaslik, o'zbilamonchilik kabilar kiradi va bunday

xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash (jamoat orasida tarbiyalanganda ham)da faqat ularga yakkama-yakka yondashish lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishligini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lishliknigina talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin bolalar, yoshlar bilan ishlashda uning xarakter, qiziqishlariga xos xususiyatlari e'tiborga olish lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland ko'tarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiqdir. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va maktabdagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishiga havas tug'diradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga tarbiyalar uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yo'shi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, «tirik turchak»ni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy ta'latvorlarni kamaytirish mumkin.

Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qolib boradi. Yana eng muhimi shunchaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularni qo'lidan ketadigan ishlarga e'tiborni berib, uni bajarganidan keyin rag'batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki har doim emas, balki, qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa, u ko'proq natija beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishda, o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataymiz.

Tarbiyaviy jarayonda o'qituvchining innovatsion faoliyati — insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim berish va o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi va

ular o'rtasidagi munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni o'qituvchilarning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi o'quvchilarning faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tarbiyaviy jarayon – insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat, ya'ni aloqalar tizimi deb hisoblar ekanmiz, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim muassasalaridagi o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi. Muloqot jarayonida o'quvchilarning samimiy va diqqat bilan o'z suhbatdoshiga qarab turishi va uni tinglay bilishi, suhbatdoshiga o'z fikrini to'la va to'g'ri ifodalashi hamda samimiy suhbatlashishi uchun imkon yaratish bilan bir qatorda o'quvchilar o'z o'qituvchilari bilan bemalol suhbatlashishlari, o'z fikrlarini va takliflarini rahbarlarga bildirishlari, yangilik yaratish borasida rahbarlariga suyanish mumkinligiga ishonch hosil qilishlarida, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarda ham o'zining ijobiy samarasini beradi.

Maktabda sinf rahbarlari o'z o'quvchilarining barchasi bilan ham doimiy jonli muloqotda bo'lavermasligi hammamizga ma'lum, shunga qaramasdan barcha o'qituvchilar, shu qatori o'quvchilar ham rahbar bilan doimiy, bevosita o'zaro ta'sirda bo'lishi tarbiyaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bunday bevosita ta'sir masofadan turib, muloqotsiz tarbiyaviy jarayonda vujudga keladi va undan o'qituvchi-o'quvchilar ham bir xilda ta'sirlanishlari mumkin. Ya'ni, o'qituvchi va o'quvchilarning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, yutuqlari, fan va sport yo'nalishlari bo'yicha turli musobaqalardagi g'alabalari o'quvchining kayfiyatiga va uning reytingiga ta'sir ko'rsatadi.

Inson o'ziga yoqqan, o'zi havas qiladigan, istarasi issiq, xushfe'l, bilimdon va qobiliyatli bo'lgan shaxsni ko'rishi, uning jilmayishi, birdan kayfiyatining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan, rahbarning soqoli olinganligi, sochlarining tozaligi va tartibliligi, dadil qadam, ma'nodor xatti-harakat, samimiy jilmayishlar uning tashqi ko'rinishi hisoblanib, toza, dazmol bosilgan, sifatli kiyim kiyishi, kiyimlarining o'qituvchi va murabbiylarga xos bo'lishi, shuningdek, kabinetining toza va tartibli bo'lishi, kitoblar javonida zamonaviy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalar, ayniqsa o'z o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan metodik mahsulotlarning bo'lishi tarbiyaviy munosabatlarda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyat - yaratilgan yangiliklar, olimlarning ilmiy-ijodiy mehnati, yozgan kitoblari, qo'llanma yoki ilmiy-uslubiy maqolalari o'z jamoasidagi ta'lim-tarbiyaviy munosabatlarni tartibga solib borishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, muassasalarda ta'lim-tarbiya mavzularida ilmiy-amaliy konferensiyalar uyushtirish, xodimlarning ilmiy maqolalar bilan ishtirok etishi, maktab kutubxonalarini yangi adabiyotlar bilan boyitish, fan va texnika yangiliklari bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil etish ilmiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun zaruriy sharoit yaratadi, shu bilan birga o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, bilim, tajriba va ko'nikmalarini rivojlantirib borishni talab qiladigan ijodiy muhitning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda birinchidan o'qituvchining innovatsion faoliyatini ta'minlash, shaxsini shakllantirish, shart-sharoit yaratish, ikkinchidan o'quvchilarning har tomonlama qiziqishlarini hisobga olgan holda, uning individual o'ziga xos xususiyatlarini o'quv-tarbiya jarayonida namoyon etishni ta'minlash ushbu kunning dolzarb vazifalaridandir.

Pedagogika, xususan ta'lim-tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi. Pedagogik tadqiqotlarning predmeti sifatida maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayoni, uning maqsadi, mazmun va mohiyati, o'qituvchi va rahbarlarning innovatsion faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. O'qituvchilarning o'quv faoliyatlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, uslub va vositalar orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari kabi ob'ektiv xususiyatlari egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyatini oshirish va ta'minlash haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajribalarga asoslangan tadqiqotlar natijalariga asoslanib ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonida faollikni, pedagogik qobiliyatni shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni ilmiy

asosda tashkil etishga imkoniyatlar yaratish hamda innovatsion yondashuvlar texnologiyalarini loyihalashtirish va joriy etish o'qituvchining bilimi, pedagogik va kasbiy mahoratlariga bog'liqdir.

Yurtimiz milliy mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zbek xalqi hayoti, uning ilm-fani shu jumladan, pedagogika fani ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ilm olamida ko'pincha tartib-intizom haqida ma'ruza qilinadi, adabiyotlar yaratiladi va shunga asoslanib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" doirasida reja asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlar olib boriladi.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi fan va texnika taraqqiyoti va ta'limga qo'yiladigan zamon talablari yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasi juda muhim, dolzarb ijtimoiy-pedagogik va ilmiy muammoga aylandi.

Kishilik jamiyatining evolyutsion irsiy zahirasi ko'pqirrali, ilmiy-amaliy muammolar majmuasi bo'lib, to'g'ri baholay olish, saralash, to'g'ri ta'lim yo'nalishini tavsiya etish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish, tegishli ishga joylashtirish, ko'maklashish, ba'zan tibbiy, pedagogik, yuridik yoki psixologik jihatdan yordam qilish, haq-huquqlarini ta'minlash va hakazolarni o'z ichiga olishi aniqlanadi. Konseptual yechimlar belgilanadi va uning amalga oshirilishi bo'yicha tavsiyalar yaratiladi. Maktabda ta'lim tizimining asosiy tahlili qilinadi, darslarni tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berib borilishi ta'minlanadi. Darslarda o'quvchilarning yoshi, bilimi, ko'nikma va malakalarini hamda iqtisodiy hudud talablarini hisobga olgan holda bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi zarurligi ko'rsatiladi. Bu bosqichlardan har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, tashxis, kasbiy axborot, maslahat komponentlaridan iboratligi ta'riflab o'tiladi. Ta'lim tizimining muammolari ochiladi va ilmiy asoslari belgilanadi.

Davlatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, fan va texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda, ta'lim tizimini axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirish, ta'lim mazmunini modullashgan shakllarini amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biridir. Ba'zida ta'limda hayotdagi qiyinchiliklar (muammolar, masalalar) ularni ko'proq o'ziga jalb etadi. Aynan shunday paytda murakkablikdan ko'pchilik odamlarning qochishi mumkin bo'lsa, ba'zida bola

murakkab masalalarni yecha olmay vaziyatlarni izlaydi.

O'spirinlik yoshida o'zlikni anglashning juda muhim komponenti = o'z xatti-harakati uchun javobgarlik va uning natijasiga faqat o'zi sababchi ekanligini his qilish xususiyati shakllanadi. Ya'ni o'spirin uchun nafaqat boshqa odamlar, balki o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari ham kuzatuv ob'ektiga aylanadi. Uning "men konsepsiya"si o'z istiqboli uchun faol harakatga undovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

O'zlikni anglash – bu ichki dunyosini kashf qilish, u haqida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga emotsional munosabat, aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini baholash (o'z-o'zini baholash) dir.

O'zlikni anglash jarayonining tarkibiga singib ketgan komponent sifatida maqsadga yo'naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, ya'ni uning oqimi xususiyatini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Professor R.X.Djuraevning asosli ta'rifi bo'yicha, "...o'quvchilarni o'zlikni anglash komponenti ya'ni maqsad sari mustaqil yo'naltirishning asosiy maqsadi, eng avvalo individga va imkoniyatlarini to'liq anglash, xohish-istaklarini amalga oshirish vosita va usullarini to'g'ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelish imkoniyat va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat"[29].

Shu nuqtai nazardan, o'quvchining ongiga ta'sir etuvchi omillar = uning individual-tipologik xususiyatlari yoki ichki imkoniyat va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning shart-sharoitlarini namoyonligi – ichki pozisiyaning shakllanish qonuniyatiga asoslanish kerak deb, o'ylaymiz. Ma'lumki, ichki pozisiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ekt-ning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi. Mana shu ikki tomonlama ta'sir hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida inson o'zlikni anglaydi.

Individual-tipologik xususiyatlar, ruhiy holatlar va bilish psixik jarayonlari esa, o'quvchi ichki pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar hisoblanadi. Bu psixologik faktorning o'zbek mentalitetida ko'proq namoyon bo'lishini hisobga olgan holda, o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash, farzandining maktabda o'zini tuta bilishi, darsda qanday o'tirishidan ularni xabardor qilish ham muhim ahamiyatga egadir. Pedagogik-psixologik tashxis faqat bitta-ikkita metodikani o'tkazish bilan emas, balki korreksiya

rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida amalga oshirilishi zarur. Odatda darsda individual xarakterdagi bola o'zini tutishi, intizomi va axloqi bilan salbiy xarakterdagi bolalarga ta'sir etishi, vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Shakllantiruvchi yo'nalishdagi axloqiy pedagogik-psixologik maslahat o'quvchi shaxsini har tomonlama o'rganish asosida unga o'zi uchun birmuncha o'z faoliyatini faollashtirishni nazarda tutadi. Maktabda asosan amaliyotchi psixolog, sinf rahbari, ota-onalar va fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'quvchi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganiladi va tegishli tavsiyalarni berib boradi. Tajribalardan ma'lumki, maktab o'quvchilarining kamida 45-50 foizi individual maslahatlarga muhtojdir. Bular quyidagilar:

- U yoki bu sabab bilan mustaqil fikrga ega bo'lmagan bolalar;
- Ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo'lgan o'quvchilar;
- O'zini tanlagan yo'lining to'g'riligini isbotlash istagidagi o'quvchilar;
- O'sib ulg'ayishi o'zgacha bo'lgan va xulq-atvori salbiy bo'lgan o'quvchilar.

Dars jarayonida o'quvchi faoliyatini nazorat qilish va baholashning eng samarali mexanizmlarini izlab topish va qo'llash, o'quv-biluv jarayonini modullashgan integral dasturlar, ta'limning modullashgan shakllari asosida tashkil etishga erishish ham muhim masalalardan biridir. O'quvchi faoliyatini individuallashtirishning turli yo'l va variantlarini ishlab chiqish va o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchi faoliyatida ham samaradorlikka erishish imkonini beradi. Agar o'quvchi faoliyatida to'xtash hollari aniqlangan taqdirda uni tuzatish yo'llarini izlash maqsadga muvofiqdir. Maktab o'quvchilarini darsda axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirish, ta'lim mazmunini modullashgan shakllarini amaliyotga tadbqiq etish istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun-qoidalarni sharhlash, tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyoti sabablarini yoritishga uringanlar. Lekin biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlashtiruvchi, uning davr va kishilar ruhiga hamohang tarzda kechishini ta'minlab beruvchi tarbiyaviy xususiyatli ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Zero, mamlakatimizda ro'y berayotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohotlar aynan shuni talab kilmokda. Bunda e'tiborga loyiq dolzarb

muammolardan biri - yoshlarda yangicha, Yangi O'zbekiston sharoitida dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir.

Bu vazifani ado etishda ijtimoiy psixologiyaning o'rni va roli aniqlash, tarkibiy izlanishlarni amalga oshirish va ijtimoiy psixologik amaliyot doirasida ushbu vazifani amalga oshirish yo'llarini topish uchun hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining asosiy tadbqiq yo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Hozirgi davrda ijtimoiy psixologiyaning dolzarbligi va uning jamiyatdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga aloqadorligi uning tadbqiq sohalarini doirasini ham kengaytirdi. Uning asosiy-tadbqiq amaliy sohalariga: sanoat sotsial psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, oila va nikoh borasidagi sotsial-psixologik ishlar, siyosat va iqtisodiyotni takomillashtirish muammolari, qonunbuzarlikni oldini olish ehtiyoji hamda ommaviy axborot vositalari borasidagi amaliy vazifalar kiradi.

Yurtimizda ma'naviyat sohasidagi islohotlar va amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarda o'z salqining madaniyati, vatanining o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu - ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir. Aks holda odam siru-asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs, agar u, bu bilimlarni avval o'z salqi, millati, yaqinlari manfaatiga yo'naltira olmasa, va uning jamiyat taraqqiyotiga aloqasini tasavvur qilolmasa, ma'naviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz, xudbin shaxs sifatida baholanadi.

Tabiiy, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmu-fan yutuqlarining amaliyotga tadbqiq etiladigan sohalaridan eng muhimi - bu ishlab chiqarish va sanoat sohasi ijtimoiy psixologik jabhasini aniqlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biri ekanligi hech kimga sir emas. Chunki yangicha bozor munosabatlarini hayotda amalga oshiruvchilar atohida shaxslar bo'lib, ularning induvidual hamda guruhii ustunliklari, faolliklari, mehnatga munosabatlari, hissiyotlari yetakchi rol o'ynaydi.

Tadqiqotchining yuqoridagi masalalarini o'rganishi uchun tabiiy metodik vositalar zarur. Amaliy-ijtimoiy psixolog oddiy kishidan shu muammolari bilan farq qiladiki, u har bir yaqqol sharoitda o'ziga kerakli maqbul uslublarni qo'llaydi, ba'zi birlarini sinab ko'radi, agarda ular

maqsadga muvofiq bo'lmasa, boshqasi bilan almashtiradi. Olingan natijalarga asosanib u guruhdagi ruhiy muhitni «yaxshi, yomon, o'rtacha, qarama-qarshi» toifalarga bo'ladi va ularning har biridan o'ziga xos ilmiy-amaliy xulosalar chiqaradi.

Bundan tashqari bugun ta'lim-tarbiya negizida tashkil etilayotgan ko'plab umumta'lim maktablari mavjudki, ularda ta'limni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorlikni ruhiy mezonlarini topish muhim muammodir. Chunki o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqotga kirishish va o'qitish munosabatlarining murakkab shakllarini his etishga mansubdir.

Tashkil etiladigan psixologik xizmatning ijtimoiy psixologik yo'nalishi avvalo turli toifadagi bolalarni ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlarni bartaraf etishga o'rgatish, shaxslararo munosabatlarning demokratik sog'lom shakllariga o'tishi va qobiliyat va mahorat sirlarini o'zlashtirish va ulardan kundalik faoliyatda oqilona foydalanish malakalarini shakllantirishdir. Bunda shubhasiz psixolog tomonidan tashkil etiladigan turli trening mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu amallarni maktab, oila va jamoatchilik bilan hamkorlik asosida, ya'ni innovatsion ta'lim klasteri asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqligini e'tirof etmoqchimiz.

1.2. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish imkoniyatlari.

Akademik T.N.Qori Niyoziy "Agar sen o'qituvchi bo'laman desang, eng avval yaxshilab o'yla: sen uni kasb qilib ololasanmi yoki unga nisbatan mayl va rag'bat bormi, chunki, o'qituvchilik kosiblik emas", degan edi [22].

Uzluksiz ta'lim tizimida dars berayotgan o'qituvchilarning ish faoliyatlari bilan tanishib, ushbu fikrning naqadar to'g'ri ekanligiga amin bo'lasan. Darhaqiqat, o'qituvchi bilan kosibning mehnatini tenglashtirib bo'lmaganidek, ular tomonidan yetishtirilgan mahsulot o'rtasidagi farq ham yer bilan osmon qadar. Agar kosibning ishlab chiqargan mahsuloti bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lmasa u kasodga uchraydi, xaridoridan ajraladi, mijoz esa boshqa hunarmandning mahsulotini xarid qiladi. O'qituvchi esa jamiyatni rivojlanishini ta'minlaydigan, uni boshqaradigan kadrlarni

tarbiyalaydi, kelajak avlodni ilm sirlaridan voqif qilib, intellektual qobiliyatli kadrlarni tayyorlashi talab etiladi. Shuning uchun ham o'qituvchining jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyati nihoyatda ulkan bo'lib, bu vazifani yengil-yelpi bajaraman, deganlar qattiq adashadilar.

Zamonaviy o'qituvchining ma'naviy qiyofasi va intellektual qobiliyati qanday bo'lmog'i lozim, bugungi kunda o'qituvchiga qo'yilgan yukning salmog'i barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga qodirmi yoki o'qituvchining bu yukni ko'tarishga imkoniyati va shart-sharoiti yetarlimi? Bu savolga javob berish uchun jamiyatimizdagi ta'lim-tarbiya dargohlarida mehnat qiladigan o'qituvchilarning barchasini ham afsuski, haqiqiy ustoz darajasidagi ziyolilar deya olmaymiz. Bu bilan o'qituvchilarimizni kamsitish, ularni qandaydir ta'na-dashnomlarga giriftor etish niyatidan yiroqmiz.

Mustaqillik yillarida jamiyatimizda yuz berayotgan mislsiz o'zgarishlar, jamiyatni rivojlantirish, xalqimizning moddiy va ma'naviy saviyasini oshirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarning intellektual qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'z samarasini berayotganligi shubhasiz, "O'zbekistonning kelajagi porloq" ekanligidan darak bermoqda.

Shuningdek, ilm o'rganishga bo'lgan rag'bat, kelajakda Vatani uchun, jahon fanini rivojiga ulush qo'shish imkoniyatlari yaratilmoqdaki, bundan nafaqat yoshlar, balki ularga etakchilik qilayotgan pedagoglar ham o'zlari uchun zaruriy xulosalarni chiqarib olishlari va bu imkoniyatlardan unumli foydalanishlari ayni muddao bo'lur edi. Buning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kurs tinglovchilarining ehtiyoj va talablari asosida o'quv rejalarini tuzish, avvalo, har bir guruh tinglovchilarning tayyorgarlik darajalariga e'tiborni qaratish, o'tiladigan mashg'ulotlar qachonlardir tayyorlangan "ishlanmalar" bilan emas, balki shu guruhdagi tinglovchilarning real ehtiyojlari asosida tashkil etilishi shartligidan kelib chiqish zarur.

O'qituvchilarning bilim, tajriba saviyasini yuksaltirish, o'z mutaxassisligi bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishning ikkinchi sharti – ularning mustaqil ravishda o'z ustida ishlashga bo'lgan munosabatidan iborat bo'ladi. Tajribalar ko'rsatadiki, o'quv muas-sasasining rahbarlari qanchalik egallab turgan lavozimlariga loyiq bo'lsalar, ular rahbarlik qilayotgan pedagogik jamoaning olib

borayot-gan ishlari ham har doim ijobiy va samarador bo'ladi. Rahbarlikda ilmiylik yetishmasa, boshqaruv tizimi mexanizmlari yetarli ishlamasa pedagogik jamoaning ishi ham shunga yarasha bo'ladi.

Ana shunday yuksak talablarga javob beradigan, zamonaning yetuk insonlarigina haqiqiy ustozlik maqomini olishga qodirdirlar.

«Sharq Aristoteli» degan nom bilan dunyoga tanilgan mashhur o'rta asr faylasufi, vatandoshimiz Abu Nasr ibn Mahmud al-Farobiy o'zining «Namunali ta'lim haqida» deb nomlangan risolasida o'qituvchi faoliyati haqida to'xtab: «*Bunday odam, inson erishishi mumkin bo'lgan eng oliy darajaga erishmog'i baxtliklikning cho'qqisidan o'rin olmog'i lozim. U insonning baxtga erishishining barcha yo'llaridan ogoh bo'lgan zotdir*»— deb ta'kidlagan edi [22].

Darvoqe o'qituvchi, jamiyatimizning eng ma'lumotli va madaniyatli kishisi sifatida tanilmog'i lozim. Binobarin har bir o'qituvchi, mazkur kasbni tanlagan kunidanoq, bu sharafl va oliyanob kasbga dog' tushirmaslik uchun o'z bilim saviyasi, pedagogik mahorati ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi zarur. Shunday qilingandagina u kundalik faoliyatining muvaffaqiyatini va samaradorligini ta'minlab, ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'ladi, obro'ga erishadi, «kishilar qalbining injeneri» degan nomga munosib bo'ladi.

XXI asr ta'limi oldiga qo'ygan talablariga ko'ra, mutaxassislar tanlagan kasbi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashdan tashqari, ekologik, iqtisodiy va yuridik bilimlar bilan qurollanishni hamda uzluksiz ravishda mustaqil bilim olish vositasi sifatida zamonaviy axborot tizimidan mustaqil va rastional foydalana oladigan darajaga ko'tarilmog'i lozim.

Binobarin, ana shunday sifatlariga ega zamonaviy o'quvchini tarbiyalash, jamiyat oldidagi eng muhim va birinchi o'rindagi vazifalardan sanaladi. Ta'lim tizimi boshidan kechirayotgan muammolardan faqat va faqat yangi asr qo'ygan talablarni uddalaydigan yuqori intelegentlik va professional intellektual fazilatlariga ega pedagog kadrlarni tayyorlash bilangina chiqish mumkin. *Shu bois mashhur fransuz yozuvchisi V.Gyugo "Kelajak maktab o'qituvchisining qo'lida"*— deganida mutlaq haq edi [49].

O'qituvchining o'z intellektualligini va pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan tinimsiz intilishi, jozibasini, uning haqiqiy

o'qituvchiligidan darak beruvchi eng muhim faktor deb qarash kerak bo'ladi. Shuning uchun ham maktab faoliyatining muvaffaqiyatini chin dildan istagan har bir rahbar xodim, mazkur maktab o'qituvchilarining bo'sh vaqtini qattiq turib himoya qilmog'i va, zarur bo'lganda, o'qituvchi undan qanday foydalanayotganini qat'iy nazoratga olmog'i lozim.

O'qituvchining ma'naviy boyishga nisbatan ehtiyoji qancha katta bo'lsa va bunday ehtiyojni qondirish uchun unga qancha ko'p imkoniyat yaratilsa, u erishgan bu xususiyatlar bilan o'z talablarini shuncha tez va ko'p «kasallantirish» imkoniga ega bo'ladi.

O'qituvchidagi eng muhim kasbiy xususiyatlardan hisoblangan gumanizm, oliyanoblik va intellektuallik, bunday xislatlarga ehtiyoj yuzasidan faqat maktabdagina tajriba asosida shakllanmasdan balki uning katta qismi pedagogika, psixologiya, metodika va ilmiy atahiyotlar bilan kundalik «uchrashuvlar» paytida shakllanadi.

Devosita mavzumizga tegishli bo'lgan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarni qayta tarbiyalash muammosining dolzarbligidan kelib chiqib, har bir o'qituvchi, eng avvalo, o'quvchilarning mavjud bilim va malakalariga tayangan holda, ularda o'z predmeti asoslariga qiziqtirishni tarbiyalamog'i lozim. O'quvchilarda fan asoslariga qiziqishni uyg'otuvchi mativani shakllantirishdek muhim maqsadga erishishda, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, bilimlarining zahirasi, tajriba va mahorati hamda o'qitishda har bir o'quvchiga differensial yondashuvi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

XXI asr o'qituvchisiga qo'yilgan ana shunday yuksak talablardan kelib chiqib, mehnat qilish har bir mutaxassis o'qituvchining sharafl burchi va vazifasiga aylanmog'i zarur.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi bolalar bilan ishlash esa o'quvchilardan yanada katta mas'uliyatni talab qiladi. Eng avvalo, o'quvchida nima sababdan dars intizomiga nisbatan salbiy munosabat shakllanganligi sabab va oqibatlari aniqlanishi shart. Aniqlangan sabablarning kelib chiqish omillari va ular kimlar tomonidan yo'l qo'yilganida, nima sababdan? Ana shu sabablar mohiyati pedagogik-psixologik, sotsiologik, falsafiy, huquqiy jihatdan tahlil etilib, o'quvchi faoliyatiga o'zgartirish kiritishning (korreksiya) imkoniyatlarini izlab topiladi. Ma'lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun maktab oldiga

qo'yilgan asosiy vazifalardan biri bolaning kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir. Lekin hammaga ma'lumki, hozirgi sharoitda maktab oldida ko'plab muammolar, hal qilinmagan masalalar mavjudki, ular barchasi maktabga har taraflama yordamni taqozo etmoqda. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ko'rsatmalariga asosan, yoshlarning layoqatlarini ilk yoshligidan aniqlash, ular iqtidorini har taraflama o'stirish vazifalari o'quvchiga individual yondashuvining zarurligini, o'qishning differensial bo'lishini talab qilmoqda. Tashkil etilgan Prezident maktablari, iqtidorli bolalar maktab-internatlari, fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga mo'ljallangan maxsus maktablarni tashkil etishdan maqsad ham shunday bo'lmoqda.

Testlar vositasida bilimlarni tekshirish, Oliy o'quv yurtlariga va ta'limning barcha tarmoqlariga va test sinovlarining shaffofligi orqali qabulning amalga oshirilishi psixologik xizmatning tezroq yo'lga qo'yilishini talab qilmoqda.

Ijtimoiy psixologiya ham davrimizning maktab oldiga qo'yayotgan talablari, uning hozirgi kunlarda boshda kechirayotgan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, o'z oldiga vazifalar qo'ygan:

a) Ularni anglash; b) ilmiy tahlil qilish, v) oldini olish yo'llarini qidirib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

Maktabga borgan ijtimoiy psixolog nima ishlarni qilishi mumkin?

1. Maktabda tashkil etilgan psixologik xizmat, avvalo psixologdan o'sha maktab sharoitini har tomonlama, to'liq o'rganib chiqishni, har bir yosh xususiyatlariga qarab, individual va guruhda ishlash uslublarini aniqlashi lozim bo'ladi.

2. Maktab psixologi bolalar o'rtasida uchrab turadigan psixik rivojlanishidan chekinish hollarini to'liq o'rganish, unga sabab bo'lgan ijtimoiy psixik shart-sharoitlarni tahlil qilishi lozim.

3. Maktab psixologida turli yoshli bolalar bo'yicha ularning qobiliyatlari, yo'nalishi, layoqatlari va kasbga qiziqishiga doir aniq ilmiy analizlar, test natijalari asosida tuzilgan ma'lumotlar banki bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarga asoslanib, psixolog bolalarga alohida-alohida yondashish, ayrimlarga qo'shimcha darslar tashkil etish, maktab, oila hamkorligida bolalardagi qobiliyatlarni o'stirish bilan bog'liq aniq ko'rsatmalar ishlab chiqmog'i lozim.

4. Maktab psixologi umuman maktabdagi alohida sinflardagi ruhiy holatlarni, o'zaro munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan psixologik muhitni aniqlashi va rasmiy va norasmiy liderlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rganib, maktab ma'muriyatiga, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosariga keraqli yo'l-yo'riqlarni berib turishi kerak.

5. Bundan tashqari, maktab psixologi, turli mojarolar, ziddiyatlar, tartibbuzarliklarning oldini olish, ularning tabiatini o'rganish chora-tadbirlari bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etish kerak.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, maktab psixologi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash mumkin. Ular diagnostik va tuzatish (korreksion) ishlari (har qanday rivojlanishi jarayonidagi cheklanishlar orqada qolish holatlarini aniqlab, chorasini topish, ularni oldini olish); psixo-profilaktik ishlar (psixo-gigiyena, bolaning psixologik jihatdan normal rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar yaratish); psixologik konsultatsiyalar, o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilarning psixologik savodxonligini ko'tarish; psixologiyada qo'llaniladigan metodlarni konkret sharoitlarga moslashtirish, ulardan samarali foydalanish, to'plangan ilmiy ma'lumotlarni tizimli tarzda tahlil qilib borish; testlar tuzish. Ularning sezgirligini ilmiy asoslash va har bir bola qobiliyatini, qolaversa, o'qituvchilar bilimdonligini testlar yordamida muntazam tekshirib, ilmiy xulosalar va ko'rsatmalar tayyorlash kabilardan iboratdir.

Umuman jamiyatning psixologiya fani oldiga qo'ygan talablari ko'p. Ularni qondirish uchun respublikamizda avvalo keng ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, natijalarini dadil amaliyotga tatbiq qilish davri allaqachon keldi.

Yurtimiz milliy mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zbek xalqi hayoti, uning ilm-fani shu jumladan, pedagogika fani ham o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ilm olamida ko'pincha tartib-intizom haqida ma'ruza qilinadi, adabiyotlar yaratiladi va shunga asoslanib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ta'lim to'g'risida" gi qonun asosida ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishi fan va texnika taraqqiyoti va ta'limga qo'yiladigan zamon talablari yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalasi juda muhim, dolzarb ijtimoiy-pedagogik va ilmiy muammoga aylandi.

Kishilik jamiyatining evolyutsion irsiy zahirasi ko'pqirrali, ilmiy-

amaliy muammolar majmuasi bo'lib, to'g'ri baholay olish, saralash, to'g'ri ta'lim yo'nalishini tavsiya etish, tarbiyalash, kasbga yo'naltirish, tegishli ishga joylashtirish, ko'maklashish, ba'zan tibbiy, pedagogik, yuridik yoki psixologik jihatdan yordam qilish, haququqlarini ta'minlash va hokazolarni o'z ichiga olishi aniqlanadi. Kontseptual yechimlar belgilanib, uning amalga oshirilishi bo'yicha tavsiyalar yaratildi. Maktabda ta'lim tizimining asosiy tahlili qilindi, darslarni tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berib borilishi ta'minlandi. Darslarda o'quvchilarning yoshi, bilimi, ko'nikma va malakalarini hamda iqtisodiy hudud talablarini hisobga olgan holda bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi zarurligi ko'rsatildi. Bu bosqichlardan har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, tashxis, kasbiy axborot, maslahat komponentlaridan iboratligi ta'riflab o'tildi. Ta'lim tizimining muammolari ochildi va ilmiy asoslari belgilandi.

O'quvchilarning psixik rivojlanish darajasi va ta'lim.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli, ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson-biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilari) ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin. Inson psixikasining tabiati biologikmi yoki inqilobiy xarakterga ega?

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik kontsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim

sotsiogenetik kontsepsiya.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ta'limot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug'ma yo'l bilan nasldan-naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyondalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari, ichki qonundar asosida, ya'ni nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarining chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) faqat tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishi zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E. Torndayk o'quvchilarning «tabiiy kuchlari» va «tug'ma mayllarini» psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri-ikkinchi darajalaridir, deb aytadi [16].

Avstraliyalik psixolog K. Byuler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotinigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi [16].

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot - **Sotsiogenetik kontsepsiya** — qobiliyatlarining taraqqiyotini, faqat tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII fransuz olimi K. Gelvestiy ta'limotidan boshlangan. E. Gelvestiy ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tug'ilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar. Shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi

farq faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'limotga qarshi qaratilgan edi. Sostiogenetik yondoshishga binoan, shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. **Ijtimoiylashuv nazariyasiga** ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan,

- birinchisi - inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;
- ikkinchisi - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri;
- uchinchisi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarni ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlan-maydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyondasi sifatida va nihoyat tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi.

Rivojlanish deganda odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning biologik, organik yetilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jihatidan yetilishi;

2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanishi. O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yechilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb

bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishiga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi? Yoki aksincha? Bu muammo-ning hal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishidan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi [24].

Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi-murakkab taraqqiyot jarayonidir.

O'smir bolalarning psixologik xususiyatlari

O'smirlilik insonni balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qiladi. O'smirda ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

O'smirlilik yoshida qizlar va o'g'il bolalarning jismoniy qiyofasida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrning boshlanishida qizlar o'g'il bolalarga nisbatan tezroq o'sib ulg'ayadilar. Bu narsa qiz bolalarning ertaroq jinsiy balog'atga etishi bilan bog'liqdir.

O'smirlilik davrida o'g'il bolalarning bo'yi 25-30 sm, qiz bolalarning bo'yi 18-20 sm o'sadi. Bu davrda tananing intensiv o'sishi yuzaga keladi.

Ma'lumki, bo'yiga o'sish, naysimon suyaklar va umurtqa

pog'onasining uzayishi hisobiga ro'y beradi. Bu davrda naysimon suyaklarning oxirgi tayanch qismlari etarli darajada suyaklashmagan, yumshoq bo'ladi. Bu xususiyatlarni nazarda tutishda o'smirning sportning murakkab og'ir turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Aks holda bolaning umurtqa pog'onasi qiyshayib, bo'yi o'smay qolishi mumkin.

late'mol qiladi. Ana shuning uchun ham yaxshilab shamollatilmagan va ko'p o'quvchi o'qiydigan sinflarda o'smirlar tez charchaydilar va ularning qobiliyatlar tez susayadi. Natijada bola darsga quloq solib o'tirmasligi, intizomga rioya qilmasligi mumkin.

O'smirlik davrida shaxsning rivojlanishi

yo-qarashlarning, ma'naviy e'tiqod, printsip qoida, idealarining, baholash mulohazalari tizimining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshidalik davrida u yoki bu kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining printsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi.

O'smir turli narsalarni mutlaqo aniq differentsiyalaydi. Agar tanaffus paytida o'ynab turib stulni sindirib qo'ysa va uni ustaxonada tuzatish lozim bo'lsa, bu jazo emas. Agar o'zining iflos qilgan joyini supurishga majbur qilinsa bu ham jazo emas. Bularning mantiqi o'smir uchun ravshan: bu jazolash emas, balki xatti-harakatlarining natijalarini tuzatishdir.

Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yganlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. Bir necha misollar keltiramiz: qat'iylik - «bu, odam eng qiyin ishlarni amalga oshirishga kirishganda, uning hech qanday muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmay ishni oxirigacha olib borishida ko'rinadigan xususiyatdir». (12yosh) «qat'iylik yaxshi odamda ham rivojlanadi, ammo yomon odamda yomon ishlarga, yaxshi odamda esa yaxshi ishlarga xizmat qiladi.» (12yosh) o'smirlik yoshining oxiriga kelib chuqur anglashlik darajasi, albatta, sezilarli o'sadi. «Kamtarlik - bu, o'ziga oqilona baho bera bilish, o'z-o'ziga va xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishdir.»

E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan holda o'smirlarning axloqiy ideallari ham yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur, mazmundor, faoldir va bu ideallar o'ziga xos axloqiy etalon bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa o'z xatti-harakatlarini ana shu etalon bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir konkret bir kishi ideal bo'ladi bu odam o'smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o'zida gavdalantirgan bo'ladi.

Ko'pgina bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi

ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o'smirlarda ideal sifatida majmui bo'lmish umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

O'smirlar o'zlarining kelajakdagi hayot va faoliyatlarini o'z orzu-larida loyihalashtiradilar. Katta ishlar va qahramonona kasb kishilari fan va mehnat kishilari o'smirlarimizning aql-hushini o'rab olgandir. Bu mamlakatimiz hayotidagi keng va chuqur ijtimoiy hodisalar bilan hozirgi vaqtdagi haqiqiy qahramonona ishlar bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda o'smirlarning qahramonlik haqidagi orzu va umidlari tobora ko'proq o'z hayotini birpaslik fazoni zabt etishga, raketa texnikasiga, quvvatning yangi turlaridan foydalanishga, kimyo, fizika, biologiya va meditsina sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan bog'lanmoqda. O'smirlarimizning orzulari ularning mamlakatimiz hayotida, ijtimoiy foydali faoliyatda qatnashishi uchun bo'lgan ishlatishtlardan darak bermoqda. O'smir o'g'il bolalar jasorat ko'rsatishiga, olifalikka moyil bo'ladilar. Bu narsa ba'zan hatto jiddiy ravishda intizomni buzishga olib keladi. Ular: «Jasurlik» yoki dadillik bu, hayotni xavf ostida qoldirib harakat qilish, nima uchun bo'lishidan qat'iy nazar, bari-bir, odamning eng xavfli ishga kirishidan iboratdir.

Maktablardan birida o'smir bolalar shunday bir mashqni o'ylab chiqarishgan: ular to'rtinchi qavatdagi balkondan uchinchi qavatdagi balkonga sakrab tushishardi. Qo'lda osilib turib, u yoki bu yoqqa tebranib, so'ng sakrashadi. Nima sababdan ular bu ishni qilganlarini bilish uchun direktor bolalarni o'z kabinetiga chaqirdi. Dastavval bolalar urishib berishadi deb indamay turishdi, lekin bir ozdan so'ng dadillanib, bu qilgan ishlari «jasurlik attestati uchun imtihon» ekanini gapira boshlaydilar: Kim bu ishni qilgan bo'lsa, u jassur, kim bu ishni qilmagan bo'lsa, u ko'proq. Juda ko'p noxush minutlarni boshdan kechirgan direktor bolalarga bunday deydi: «Mana bunday desak, sizlarga qanday tuyularkin, kimki bu ishni qilgan bo'lsa, u ahmoq, agarda kim qilmagan bo'lsa, u aqlli». Bolalar bunga shunday javob qaytarishdi: «Nima ham der edik, meni qo'rqqoq degandan ko'ra, yaxshisi ahmoq deb hisoblab qo'ya qoling».

O'smirlik yoshida, ya'ni odam shaxs sifatida tarkib topayotgan bir paytda o'zini kattalardek his qilishi, kattalarning irodalarga qarshi tura olishini anglash muhimdir. Katta yoshli o'smirlardan biri o'qituvchining oldida kechirim so'rashni talab qilayotgan direktor

bilan bo'lgan suhbatda mag'rur ravishda bunday deydi: «Men printsiipial odamman, men hayotimda hech qachon va hech kimning oldi-da kechirim so'ragan odammasman!». Bularning hammasi o'ziga xos axloqiy dunyoqarashdan iboratdir! Psixologlar o'smirlarning xarak-teris-tikalari bilan tanishganlaridan so'ng (o'smirlarning mulohazalari yuqorida keltirilgan edi) shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'smirlarning xarakteristikalari xatti-harakatlari bilan to'la mos keladi, ya'ni ularning axloqiy ongi xatti-harakatlari darajasiga «o'sib chiqib», xatti-harakatlarni belgilaydi. So'nggi paytlarda L.N. Desev o'smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini tadqiqot qilib (A.G. Kovalov rahbarligi ostida), ularning axloqiy kategoriyalarini tushunishlari ko'pincha yuzaki, formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatib berdi [37].

O'zini anglash ehtiyoji hayot ehtiyojlaridan va amaliy faoliyatlaridan kelib chiqadi. O'zini anglash kattalarning, kollektivning o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayot va kollektivga bo'lgan qiziqishning rivojlanishi munosabati bilan o'smirlarda o'z imkoniyatlariga baho berish, kollektivda o'z o'rnini aniqlash, xatti-harakatlari va o'z shaxsining qanday xususiyatlari uning oldiga qo'yiladigan talablarga yuksak darajada javob berishga yordam berishi yoki xalaqit berishini anglash ehtiyoji paydo bo'ladi. O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashlaridan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarning o'zini anglashi asosida uning haqida boshqa odamlarning, kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalarning), kollektivning va o'rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baholash tendentsiyasi boshlanadi. Nihoyat, shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sintetik sifatlar (burch hissi, qadr-qiyamat, va vijdon hissi, printsiipiallik) anglanadi. Shaxsni tobora kengayib boradigan sifatlarini anglashdagi bunday izchillik ma'lum va uni osongina tushuntib berish mumkin.

O'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari

Ilk o'spirinlik davri «kamolot bo'sag'asi» deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z

ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy etilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimizning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajada jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3-ta bosqichga ajratadilar:

I-bosqich-prepubertat;

II-bosqich-pubertat;

III-bosqich-postpubertat.

Yosh psixologiyasi o'spirinlikning yoshini I-II bosqichlar bilan bog'lab kelar edi. Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu akademik litsey va kash-hunar kollejlari o'quvchilaridir.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb hisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq balalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir u jihatdan o'rganiladi hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab, litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'zini anglashiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar.

O'spirin - bola bilan katta odam o'rtasidagi oraliq mavqeni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rni kattalarga bog'liqdir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mazmun va yo'nalishini belgilab beradilar. Bolaning bajaradigan roli kattalar rolidin sifat jihatidan farq qiladi. Hayot faoliyati murakkablashgan sari, o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondagina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshdan faol saylash huquqiga

va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o'ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o'spirinlarga kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi.

O'spirinlar (16-18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Jismoniy hamda aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z-o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Ular vazmin, mulohazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni ko'zlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota-onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, o'qishga nisbatan o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z-o'zini anglashi bilan motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish, insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi.

Rossiya psixologlari I.V.Straxov bilan A.L.Shnirman tadqiqotlarining ko'rsatishicha, o'spirinlik yoshidagi do'stlik o'smirlik yoshidagi do'stlikdan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladi.

O'spirinlarda do'stlik motivlari ancha chuqurroq bo'ladi. Bularda oshkoralik, o'zaro ishonch, talabchanlik, sadoqat, birgalikda doimiy yordam ko'rsatish, kamchiliklarni tugatish, do'stiga yordam berish, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish va hakoza.

Do'stlik hislari ancha sermazmun bo'lib, qiziqishlar faoliyatining keng doirasini qamrab oladi.

O'spirinlik yoshidagi do'stlik ko'pincha butun umr bo'yi davom etadi. O'rtoqlik munosabatlari jamoani jipslashtirishga yordam beradi, uning hayotiy faoliyatini oshiradi. O'spirinlar do'stlik, samimiylilik emotsional sofdillik kabi xislatlarini birinchi o'ringa qo'yishadi. Do'stlarga samimiy mehribonlik shaxsining refleksivlik darajasi hamda uning emotsional hayot xususiyatlariga bog'liqdir. O'spirin hamma vaqt rostgo'y, samimiy bo'lishini istaydi [38].

O'spirinlarni hali to'la katta odam deb hisoblab bo'lmaydi, chunki ularning shaxsiy xususiyatlarida hali bolalikni kuzatish mumkin. Bu

uning fikrlarida, berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'spirinlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan ma'suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'spirinning axloqan o'z-o'zini anglashi shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Intellektni yaxshi rivojlangan o'spirinlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushuna oladilar va ularni muhokama eta oladilar. O'spirinlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai - bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'spirin yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq katta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop, badiiy publitsistik adabiyotlar, san'at asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib hisoblanadi. Hozirgi o'spirinlarga hayotga nisbatan hushyor, aqliy-amaliy erkinlik va mustaqillik xos. O'spirinlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'spirinlarni yaxshilik va yomonlik, haqiqat va noqonuniylilik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'spirinlari har bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabatlarga xos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvchi yoshlaridir.

O'spirinlar ongli ravishda egallagan axloq normalari asosida o'z satti-harakatlarini yo'lga solishga intiladilar. Bu esa, avvalo o'spirinning o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi, o'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, bolada tashqi olamdagi predmet ta'siridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda vujudga keladi;

ikkinchidan, o'zining shaxsiy «Men»ligini aktiv faoliyati asosida anglashi;

uchinchidan, o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi;

to'rtinchidan, ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho berishning

ma'lum tizimini anglashi mana shu elementlarning barchasi bir-biri bilan funktsional va genetik bog'langandir. Lekin, bularning hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning «men»ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va hakoza, o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'spirinlik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi [39].

O'spirin o'quvchining o'smirlik davridagi boladan o'zgacharoq yana bir xususiyati - bu, murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon hissini anglash, o'z qadr-qimmatini e'zozlashi, sezishi va fahmlashga ko'proq moyilligidir. O'spirin o'quvchida o'zini anglashi negizida o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi. Natijada unda o'z-o'zini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib ko'rish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni o'spirin ruhiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos ko'pqirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quvchilar o'zida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, o'quv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va xislatlarini hosil qilishga harakat qiladilar; o'z-o'zini tarbiyalash muammolarini yaxlit ma'naviy-ruhiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

O'z-o'zini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'spirinlikdagi eng muhim xislatlaridan biri o'z-o'zini hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'spirinlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini hosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: o'g'il bolalar kinofilmdagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar; qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'spirinning o'zi hal qila olmaydi. Bu masalani o'spirinning ota-onasi, o'z tengurlari, o'qituvchilar

ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashida inobatga olib hal qila oladi.

Ta'lim jarayonini boshqarish

Ko'pgina psixologlar ta'lim jarayonini tahlil qilar ekanlar, uni darajada boshqarib bo'lmaydigan jarayon deb ta'kidlaydilar. Lekin uni butunlay boshqarib bo'lmaydigan stixiyali ravishda tartib topadigan jarayon deb atash noto'g'ri - bu hol aniq maqsadni ko'zlab ta'lim berish g'oyasining o'ziga zid bo'lar edi. Biroq o'qituvchi ta'limni tashkil etadi, unga rahbarlik qiladi, uni amalga oshiradi va yo'naltiradi, degan fakt ta'lim yetarli darajada boshqariladigan va tartibga solinadigan jarayondir degan ma'noni anglatmaydi, chunki bu boshqariladigan ta'lim deb, shunday ta'limni ayta olamizki, bunda har bir bolaning harakatidagi har bir qadam nazorat qilinadi, o'qituvchi har bir o'quvchining har bir bosqichida muayyan bilimlarni o'zlashtirishi yoki muayyan ko'nikma va malakalar hosil qilishi haqida uzluksiz axborot olib turadi, yangi material avvalgi materialni o'zlashtirish xarakterga qarab taqdim qilinadi. Albatta, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonini va aqliy rivojlanishning borishi har bir paytda, har bir o'quvchiga nisbatan hamma tafsilotni nazorat qilmaydi va nazorat qila olmaydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan material qanday o'zlashtirilayotgani haqida juda umumiy tasavvurgagina ega bo'ladi, o'qitishda esa u odatda har kimning individual imkoniyatlarini emas, balki o'rtacha o'qiydigan o'quvchi ko'zda tutadi. Mumkin bo'lgan yo'llardan biri - o'zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqni o'zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir. Bu jihatdan ancha ishlangan tizim P.Ya.Galperinning aqliy harakatlarini etap bo'yicha tarkib toptirish nazariyasiga asoslangan ta'lim tizimidir. Bu nazariya L.S.Vigotskiyning takliflari asosida vujudga kelgan bo'lib, A.N.Leontevning aqliy harakatlarini tarkib toptirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tadqiqotlarida rivojlantirilgan mazkur nazariya odamning psixik faoliyatini tarkib toptirishga oid umumiy nazariyaning tarkibiy qismidir [43]. Ana shu nazariyaga muvofiq, odamning anogenetik rivojlanishida harakatlar interiorizatsiyasi degan jarayonlar, ya'ni tashqi harakatlarning sekin-asta ichki, aqliy harakatlarga aylanish jarayonlari ro'y beradi.

Ta'lim jarayonini boshqarishning boshqa imkoniyatlarini qidirish

dasturlashtirilgan (rejalashtirish) ta'limning psixologik asoslarini ishlab chiqish bilan bog'langan. Psixologik nuqtai-nazardan qaraganda, dasturlashtirilgan ta'lim nima u odatdagi ta'limdan nima bilan farq qiladi? Buni tushunish uchun o'quv jarayonini uning qatnashchilari; ta'lim beradigan, bilimlarni qabul qiladigan o'quvchi tomonidan sxematik tarzda tasavvur qilib ko'rmoq kerak. O'qituvchi bilan o'quvchi, ma'lumki o'quv jarayonining ikki qismidir. An'anaviy ta'limda o'qituvchi tushuntiradi, isbotlaydi, dalil keltiradi, chizadi, rasm soladi, tajriba qilib ko'rsatadi. O'quvchi ko'radi, tinglaydi, tushunishga, o'zlashtirishga, esda olib qolishga harakat qiladi, fikr yuritadi, mushohada qiladi, umumlashtiradi. Buning ma'nosi shuki, «to'g'ri aloqa kanali» orqali axborot sub'ektidan ob'ektga, o'qituvchidan o'quvchiga yetkaziladi. O'qituvchi o'quvchining qanday ta'lim olayotgani haqida axborotga ega bo'lmay turib, ko'r-ko'rona ta'lim bera olmaydi.

Dasturlashtirilgan (rejalashtirish) ta'limda oddiy, an'anaviy ta'limning barcha ana shu salbiy tomonlariga barham beriladi, dasturlashtirilgan ta'lim o'quv jarayonini domiy nazorat qilib turish va boshqarishni ta'minlaydi.

Dasturlashtirilgan ta'limning mohiyati uning texnikalashtirilgan va texnologiyalashtirilgan bo'lishida (texnika vositalarini qo'llagan holda).

Dasturlashtirilgan ta'lim o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'rganayotgan o'quvchi oldingi materialni egallab olmasdan turib o'zlashtirishda navbatdagi qadamni qo'ya olmaydi.

Buning uchun o'quv materiali qat'iy mantiqiy izchillikda joylashtirilgan kichik qismlarga bo'linadi.

Dasturlashtirilgan (rejalashtirish) ta'lim bilish faoliyatining har bir qadamini haqiqatda nazorat qilishni ta'minlaydi va bu bilan o'quv jarayonini to'la-to'kis boshqarish imkonini beradi. qaytarma aloqa hamma vaqt harakatda bo'ladi va o'zlashtirishning individual xususiyatlariga muvofiq ravishda o'quv jarayonini tartibga solib turish imkonini beradi.

Dasturlashtirilgan ta'lim o'qituvchini chetlashtirmaydi, uning o'quv jarayoniga o'tkazadigan ta'sirini pasaytirmaydi, balki uni qora, texnik ishlardan halos qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quv jarayonining borishiga faolroq ta'sir ko'rsata oladi, ta'limga individual yondoshishni muvaffaqiyatliroq amalga oshira oladi,

tarbiya jarayoniga ko'proq e'tibor bera oladi, ko'rsata oladi, ta'limga individual yondoshishni muvaffaqiyatliroq amalga oshira oladi.

Boshqaruv bu shunday yo'naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potentsial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi.

Ta'limdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. Ulardan birinchisi, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirish. Ana shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, ta'lim jarayoni boshqarishning:

- birinchi vazifasi tashkiliy bo'lib, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish;
- ikkinchi vazifasi - bevosita o'quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo'naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir.

Shuningdek, bu vazifa o'quvchilarning ko'tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o'quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham o'z ichiga oladi. Afsuski, ko'p yillar davomida boshqarishning ana shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e'tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy-psixologiyadir. Bu vazifa o'quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Ta'lim jarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallashlari lozim:

1. Berilgan o'quv topshiriqlarini bajarish uchun vositalar tanlash.
2. Topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish.
3. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar sifatini baholash.
4. O'quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish.
5. O'z oldiga maqsad qo'ya olish.
6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqli-gini ko'ra olish.

O'qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'anaviy o'qitish usuli - bunda o'qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlaydi va muammoni yechib beradi. O'quvchi esa masalani yechish yo'llarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda o'quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitishning muammoli usulida o'qituvchi o'quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O'quvchi esa muammoni tushunadi.

ham bu printsiptatbiq etilishi mumkin va lozim.

O'quvchilarning individual psixologik xussiyatlari ta'limning ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo'llanish vaqtida, uyma berilgan topshiriqlarni qismlarga bo'lishda, sinf va yozma ishlarning variantlarini, (ularning qiyinlik darajasiga qarab) aniqlashda hisobga olinadi.

Sinf bilan olib boriladigan ishini ayrim o'quvchi bilan olib boriladigan individual ish bilan birga qo'shish mumkin. Bu orada psixologlar va pedagoglar ancha izlanish olib bormoqdalar. Ta'lim metodlari turlicha bo'lishi, o'quvchining individual xususiyatlariga qarab o'zgartirilishi kerak. Lekin bu 40 o'quvchi bor bo'lgan sinfda 40 xil individual yondoshishni, ta'lim metodikasining 40 xil individual variantini amalga oshirish zarur degan ma'noni anglatmaydi. Odatdagi maktab ta'limi sharoitida bunday haddan tashqari individuallashtirish mumkin ham emas. O'quvchilarning fikrlash faoliyatining asosiy tiplarini faqat hisobga olish kifoya qiladi. O'quvchi tafakkurining individual xarakteristikasini, uning biron-bir tipga mansub ekanligini qanday aniqlash kerak?

Tegishli psixologik va pedagogik adabiyot bilan tanishib chiqilgach, bu ishini amalga oshirish unchalik murakkab bo'lmaydi. Chunki, har bir o'qituvchi odatda o'z o'quvchilarini, ularning individual xususiyatlarini, ular tafakkurining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi biladi. Nataliya Aleksandrovna Menchinskaya bilan D. N. Pogoyavlenskiy to'g'ri ko'rsatib o'tishganidek, o'qituvchi muayyan o'quvchi nimani o'zlashtirgan va nimani o'zlashtirmaganligini bilish bilangina cheklanib qolmasligi kerak.

Tarbiya psixologiyasi

Tarbiya psixologiyasi maqsadga muvofiq ravishda tashkil etilgan pedagogik jarayon sharoitida inson shaxsiy shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Tarbiya har qanday jamiyatning muhim vazifasidir.

Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Tasavvur qiling: ilmi, katta ixtirolarga qurbi yetadigan qonunlarni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis-ma'naviyatsiz, tarbiyasiz, axloqsiz

bu nima bo'lishi mumkin? U o'z manfaatini o'ylaydi, vatan uchun biror narsa qurbon qila olmaydi, chunki u xudbin, unda mehr-nafat, fidoyilik, vatanparvarlik, milliy g'urur yo'q, u muhtojlarga yordam bermaydi, chunki unda tarbiya shakllanmagan.

Tarbiya juda murakkab jarayondir. Odamzod farzandini oq yuvib, oq tarab, boqib, ta'lim berib voyaga yetkazish uchun qilinadigan g'amxo'rlik tarbiya deyiladi. Odamga kasb-hunar o'rgatish va umuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi ham tarbiyadir.

Tarbiya - shaxs oqimini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir.

Ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim-tarbiyaning muhim vositasi bo'lib, maqsad va vazifalarga u orqali erishiladi. Oila, turli jamoat tashkilotlari, fan-texnika, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, radio va televedeniya, targ'ibot-tashviqot ishlari ham tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bolaga avval ta'lim berish kerakmi yoki tarbiya berish kerakmi, degan savollar yuradi, el orasida tarbiya ishi farzand dunyoga kelishi bilanq darhol shafqat tuyg'usini uyg'otadi, deydilar.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining texnologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Bu metodlar qo'llanilayotganda, birinchidan, tarbiyalanayotgan o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, shu o'quvchi a'zo bo'lgan bolalar jamoasining xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan aniq sharoitlarni hisobga olish zarur.

Tarbiya metodi deb tarbiyachi, murabbiyning tarbiyalanuvchilarida ongliklik, iymon, e'tiqod va insoniy xulq-atvor qonda normalarini shakllantirish maqsadida ularga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish usuliga aytiladi.

Shaxsning ijobiy yo'nalishi tarkib toptirish uchun maktab o'quvchisining barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishini tanishi hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishini bilishi, u ni hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va u ni ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishini mashq qilishi zarur.

Psixologik tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, axloqiy

tushunchalarni o'zlashtirish juda murakkab jarayon bo'lib, unga maxsus rahbarlik qilishi talab etiladi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun quyidagilarga amal qilish kerak, e'tibor berish kerak.

Ishontirish tarbiya metodi sifatida: O'quvchilar axloqini, dunyoqarashini shakllantirishda ishontirish asosiy metodlardan biri hisoblanadi. Ishontirish orqali o'qituvchi o'quvchilarda har tomonlama kompleks tarbiyani amalga oshiradi. O'qituvchi tomonidan, Pre-ziden-timizning olib borayotgan tashqi va ichki siyosati-iqtisodiy rivojlanishining Respublikamizga xos tamoyillari, bozor iqtisodiyotiga o'tishning yo'llari tushuntirilganida o'quvchilar, talabalar kelajakda respublikamiz hayotiga o'zlarining shaxsiy ishtirokchiligini chuqur sezadilar va shunga yarasha bilim, ko'nikmalarni egallashga harakat qiladilar.

Ijobiy shaxsiy namuna tarbiya metodi sifatida. Shaxsning rivojlanishida turli ta'sirlar, o'quv jarayoni va boshqa vositalardan tashqari tarbiyaning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Bolalar balog'at yoshiga etib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar ko'pchilik sharoitlarda bilish, o'rganish jarayonida asosan o'quvchiga ota-ona, qo'ni-qo'shniga, doston, drama qahramonlariga taqlid qilishadi.

Mashq tarbiya metodi sifatida - yaxshi, ijobiy odatlarga o'rgatishda axloqiy ko'nikmalarni hosil qilishda mashq metodining ahamiyati katta. Bunda o'quvchi ma'lum bir faoliyat bo'yicha biron-bir vaziyatda ayrim harakatlarni takroran bajaradi. Mashq harakatlarini takrorlash bo'lib, axloqiy ko'nikma, malaka va odat hosil qilish maqsadida o'quvchilarning maxsus uyushtirgan faoliyatida

Rag'batlantirish va jazolash tarbiya metodi sifatida. Intizomlilikni shakllantirishning klassik metodlaridan biri rag'batlantirish va jazolash metodi hisoblanadi.

Tarbiyadagi rag'batlantirish va jazolash metodi o'quvchilardagi ijobiy xislatlarini rivojlantirishdagi ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirishda vosita bo'lmog'i lozim. Rag'batlantirishning yozma, og'zaki yoki imo-ishoraviy shakllari qo'llaniladi. Imo-ishoralar bilan boshni qimirlatib, tabassum va yuz-qo'l harakatlari bilan ma'qullash, «barakalla», «ko'p yasha», «rahmat», va hokozolar. Rag'batlantirishning yana bir turi mukofotlashdir.

Tarbiya jarayonida **jazolash** ham katta ahamiyatga ega.

Maktabda jazo choralari o'qituvchilar va maktab ma'muriyatining og'zaki tanbehi, sinf o'quvchilarining o'rtasida ogohlantirish, uy vazifasini bajartirish uchun darsdan keyin olib qolish choralari boriladi.

Tarbiyachining, o'qituvchining **shaxsiy-namunasi** o'quvchilar shaxsini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'qullash va qoralash, rag'batlantirish hamda jazolash o'quvchining xulq-atvorini boshqarish va tuzatishning haqiqiy vositasidir. Ma'qullash, rag'batlantirish xatti-harakatlarning to'g'ri motivlari va shakllarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qoralash, jazolash xatti-harakatlardagi salbiy qo'zg'alishlarni hamda noto'g'ri shakllarni tormozlab turish vositasidir.

Aqliy tarbiya. Mustaqillik o'quvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni vujudga keltiradi. O'quvchilarni mustaqil Respublikamiz, Vatanimizga sadoqat ruhida tarbiyalash ishi dastlab fan asoslari bilan qurollantirish yo'li bilan borishi lozim.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya dunyoni bilishga san'at asarlarini o'rganish orqali olib boriladi. San'at asarlarida kishilik jamiyatining g'oyaviy katta tajribasi aks ettirilgan. Shuning uchun eng yaxshi san'at asarlaridan foydalanib, bolalarni, obrazlar orqali, fikrlash yo'li bilan voqelikni tushunishga o'rgatish, ularning emotsiyasga ta'sir qilish, istiqloq g'oyasi, mafkurasini amalga oshirish uchun ta'layotgan aktiv kurashga ularni rag'batlantirish zarur. Estetik tarbiya bolalarni san'atning biror tarmog'idagi turli ijodiy ishlarni boshqarishga jalb etib, ularning his-tuyg'ularini boyitib, xayolini va qobiliyatini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Estetik tarbiya bolalarda tabiatdagi go'zalliklardan lazzat ola bilish hamda mehnatni va kundalik maishiy turmushni, shu jumladan bo'sh vaqtni yanada go'zalroq o'tkazish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan.

Mehnat tarbiya. Mehnat kishining va kishilik jamiyatining eng zarur yashash shartidir. Mehnat va mehnat faoliyati bo'lmaganda, odamning o'zi ham bo'lmagan bo'lur edi, mehnat tarbiyasi vazifasiga kishini o'z-o'ziga xizmat qilishning birinchi ko'nikmalari bolalikdan boshlanadi. Yuqorida qayd etilgan inson tarbiyasining tarkibiy qismlari darsda, darsdan tashqari tadbirlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

Andsiy tarbiya. Umuminsoniy tarbiyaning eng muhim tarkibiy

qismlaridan biri jinsiy tarbiya hisoblanadi. O'smirlik davri insonni bolalikdan-yoshlikka va boshqa davrlarda o'zining keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farq qiladi. Bu davr psixologik-pedagogik adabiyotlarda «o'qitish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi iboralar bilan ataladi. Bu davrlarda o'smirlarga nazoratni kuchaytirish kerak. Ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, shifokorlar tomonidan turli-tuman chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jinsiy tarbiya beriladi.

O'smirlik yoshidan boshlab tarbiyaning yangi omili o'z-o'zini tarbiyalash vujudga keladi. O'quvchilar o'zlarini ijtimoiy-qimmatga ega bo'lgan shaxs xislatlarini tarkib toptirish sohasida xulq-atvordagi kamchiliklarga salbiy xislat va sifatlarga barham berish sohasida ongli ravishda muntazam ishlay boshlaydilar. Odam yuksak darajada o'z-o'zini idora qiluvchi, o'z-o'zini kamol toptiruvchi birdan-bir tizimdir.

O'qituvchi, tarbiyachi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashiga rahbarlik qilishda to'rtta vazifani ko'zda tutishi kerak.

Birinchidan, o'quvchi o'zida shaxsning ijobiy xislatlarini taraqqiy ettirishga va o'z xulq-atvoridagi yomon tomonlardan xolos bo'lishga intilish istagini uyg'otishdir.

Ikkinchidan, o'quvchiga o'z shaxsiga tanqidiy munosabatda bo'lishda o'z xulq-atvoridagi xususiyatlarini diqqat bilan odilona tushunib olishda, o'z kamchiliklarini yaqqol ko'rishda, o'z nuqsonlarini fahmlab yordamlashishdan iborat.

Uchinchidan, o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash dasturini tuzishda, shaxs xulq-atvori xislatining xususiyatlarini (o'zini tuta bilish; qat'iylik, mardlik va x.k.)

To'rtinchidan, o'qituvchi, tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalashning oqilona yo'llarini ko'rsatib beradilar, o'quvchini shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish va kamchiliklarga barham berishga oid maqsadga muvofiq va samarali ishlash usullari bilan qurollantiradilar.

«**Tarbiyasi qiyin**» bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiy fikricha, «qiyin» o'smir hayoti munosabatlar karakter-ning natijasidir.

Bular avvalo qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir.

Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning

faolligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin. Psixologiyada «**tarbiyasi qiyin**» bolalarning bir qancha klassifikastiyalari mavjud.

Birinchi guruh - ijtimoiy salbiy mustahkam qarashlarga ega bolalar;

Ikkinchi guruh - qonunbuzarlarga taqlid qiluvchilar;

Uchinchi guruh - ijobiy va salbiy xulq-atvor stereotiplari o'rtasida ikkilanuvchi, o'z xatolarini tushunuvchi bolalar;

To'rtinchi guruh - irodali bolalarga bo'ysunuvchilar;

Beshinchi guruh - qonunbuzarlik yo'liga tasodifan kirib qolganlar.

Shuni aytish lozimki, tarbiyasi og'ir bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa sinfning roli juda kattadir.

Mustaqillik sharoitida tarbiyaning asosiy vazifalari.

Konfutsiy: «Eskini o'zlashtirish va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi» degan edi [15]. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqiyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat sabiqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashinishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qiyofa, karakter, ta'biy, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladi. O'tmishning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini o'ttirishda muqaddas islom dinining, xususan Qur'on va Hadis dinining ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik,

g'amxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, hamdardlik, sevgi-muhabbat singari milliy xususiyatlarini tarkib toptirishda hadislarning roli yanada ortmoqda.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqlool rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq a'nanalari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» [14].

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruhiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar yetakchi o'rin tutmog'i lozim (tarbiya etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bular orqali yoshlarda quyidagi fazilatlarini tarbiyalash lozim:

- a) yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish;
- b) xayrixohlik, odamlarga hurmat, mehr-shafqat;
- v) kattalarni hurmat qilish, e'zozlash;
- g) muloyimlik;
- d) ishbilarmonlik, mohirlik, ishchanlik, iqtisodiy tafakkur;
- e) kichik yoshdan mehnatsevarlik
- j) jismoniy baquvvatlik;
- z) axloq-odoblilik;
- i) oilaparvarlik;
- k) ayollarga hurmat
- l) o'zaro hamkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayoni barcha ishtirokchilarining bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

O'qituvchi psixologiyasi

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor

qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi-sinfidagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O'qituvchi maktabning pedagog jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruza o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ'ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari tushunarlidir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat-kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

- o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashdan iboratdir;
 - ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
 - olijanoblighi, aqli, farosati, ma'anaviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
 - o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.
- Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari

quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tabiiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha xalq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirilishini talab qilsalar, maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda e'tibor bermaydilar, maktab direktori esa bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

O'qituvchining kasbiga xos xislatlari

Ota-onalar o'qituvchidan uning ish staji va yoshi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarini tarbiyalash va o'qitish mahoratini kutadilar. O'quvchilar esa o'qituvchilarni uch xil xislatlari bo'yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o'qituvchining odamgarchiligi, adolatligi, sof vijdonligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari; ikkinchidan, o'qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog'liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o'qituvchining o'z fanini bilishi, uni tushuntira bilishi kabi ta'lim jarayoni bilan bog'liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablar ham o'sib bormoqda.

O'qituvchilar jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Shuni muhimki, zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shaxsiy xislatlarni batafsil ko'rib chiqish kerak. Bu qanday xislatlar ekan?

Ko'pchilik psixologlar shu bilan birga O'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi.

Rossiya psixologlaridan N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, O'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Qoplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining professiogrammasini yaratilishiga asos bo'lgan. Professiogramma psixologik nuqtai-nazardan ishlab chiqarish faoliyati xarakteristikasi (aniq birorta kasb-bo'yicha kelgusi amaliy ishlar uchun zarur bo'lgan mazmundagi barcha tomonlarini o'z ichiga olishi kerak) ustida beradi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, E.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamroqulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili va adabiyoti, o'zbek maktablarida rus tili va adabiyoti, matematika, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdi.

Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o'qituvchi-murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim.

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari:

- bolalarni yaxshi ko'rishi, ularni sevish;
- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik, mustahkam harakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiy xos bilimi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallash;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi;
- hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi;
- maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishishi;
- o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi;
- o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy

ishlarning mazmunini bilishi.

3. O'z kasbiga xos xislatlari

- milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;
- zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi;
- o'qituvchining kuzatuvchanligi;
- o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziya (xayol) ning rivojlanishi;
- o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi;
- o'zini qo'lga o'la bilishi, o'zini tuta olishi;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsional ifodalanishi.

4. Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tabiiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;
- o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi;
- o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari:

- bolalar jamoasini uyushtira bilishi;
- turli sharoitlarda bolalar jamoasiga o'z ta'sirini o'tkaza olishi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bolalarni maqsadli ravishda biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan favqulodda va tez qo'llay olishi.

7. Kommunikativ malakalari:

- bolalarni o'ziga jalb eta olish qobiliyatiga egaligi;
- bolalar va ularning ota-onalari bilan maqsadga muvofiq ravishda pedagogik munosabatlarni tashkil etish, tiklashni bilishi;

- bolalarning jamoalararo va jamoa orasida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;

- bolalar va ota-onalar bilan zarur hollarda tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

8. Gnostik malakalar

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;

- salbiy munosabatlarni, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatish;

- o'zining tajribasi va pedagogik natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;

- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatiga egaligi;

- psixologik va pedagogik adabiyotlardan keng foydalanishni bilishi;

- o'quvchilar xatti-harakatini to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntira olishi.

9. Ijodiy xislatlari:

- pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi;

- o'quvchilarni risoladagidek tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;

- o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;

- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;

- o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelnig asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;

- shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;

- pedagogik mahorat va qobiliyati;

- xarakterning psixologik xususiyatlari;

- bilish faoliyati;

- o'qituvchi shaxsinig bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

Professiogrammani kasbga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir.

Pedagogik qobiliyatlar

Qobiliyat - bu kishining biror faoliyatga yaroqlilik darajasi va shu faoliyatni amalga oshirishidir.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday? Quyidagi bu masalani ko'rib chiqamiz.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni (tarkibiy qismlar) ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson va tushunarli tarzda etkazib berish, bolalarga fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladi-gan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar odatda: «o'qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq va tushunarli qilib berishida-da. Bunday o'qituvchining qo'lida mazza qilib o'qiging keladi»; «Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi»; «o'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqirmaymiz»-deydilar.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa hafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi holda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar.

2. Akademik qobiliyatlar - matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos bo'lgan

qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat hajmidagina emas, balki atroflicha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda o'zgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim.

3. Persteptiv qobiliyatlar - bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

4. Nutq qobiliyati - kishining o'z his tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi - nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, xullas, nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi jozibador va yoqimlilik, kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim.

Shoshqaloq va yoqimsiz nutq bilimlarni o'zlashtirishga xalaqit berib bolalarning g'ashiga tegadi va tez toliqtiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi.

Nutqiy mahorat, imo-ishoralar va turli keskin harakatlar o'quvchilarni zeriktirmaydi, jonlantiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi.

Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik-ishini vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

6. Avtoritar qobiliyati - bu o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatidir.

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yligi, irodaviy uddaburronligi, o'zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy fazilatlariga, shu bilan birga o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

7. Kommunikativ qobiliyat - bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga nisbatan ijobiy yondoshish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

1.3. Dars jarayoniga salbiy munosabatdagi bolalar fe'l-atvorini yaxshilashning dolzarb masalalari

O'zbek xonadonlarida hamisha odob-axloq haqida ko'p gapiriladi. Bolani yoshligidan mehnatga o'rgatiladi. Buvi va buvalari nabiralarga burungi hadis va odobnomalardan rivoyatlar aytib, har-xil dono o'g'itlarni qulog'iga quyib boradilar. Yomon ishlarning oqibati yaxshilikka olib kelmaydi, biror ishga qo'l urishdan oldin orqasidan keladigan oqibatlar haqida o'ylab ko'rish kerak deyiladi. Ota va ona tomonidan doimo nazoratda bo'lgan bola hech qachon chetda qolmaydi. O'zbek mahallalarida qo'ni-qo'shnilar tomonidan ham bola nazorat qilinadi. Mahallada bolaning begonasi bo'lmaydi. Kim kim bilan do'st, nima ishlar bilan shug'ullanmoqda shular haqida qayg'urishadi. Farzandi nojo'ya ishlarga qo'l urib va uning salbiy xususiyatlari oqibatida aziyat chekib yurgan oilalarga kirib yordam beradilar. Mahalladagi har bir oilaning shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishib, ular sharoitlarini tushungan holda amaliy yordam ko'rsatiladi.

Masalan, salbiy xususiyatga ega bo'lgan oilalar bilan alohida suhbatlar o'tkaziladi. Ya'ni, huquqni himoya qilish organ xodimlari bilan o'zaro hamkorlikda ichki va tashqi tartib qoidalari bilan

yaqindan tanishtiriladi. Ana shu qoidalar asosida yosh oilalarga va oilada tarbiyasi og'ir bo'lgan bolalarga alohida suhbatlar uyushtiriladi va doimo ular nazoratdan chetda qolmaydi. Bu bilan yosh oilalar va voyaga yetmagan o'spirinlar ya'ni balog'at yoshida bo'lgan qaysi yo'lni tanlashni bilmay yurgan yoshlarga ibrat sifatida namunali oilalardan, fahriylardan va elga taniqli bo'lib borayotgan yoshlardan taklif etiladi (olimlar, sportchilar, san'atkorlar, xuquqshunoslar va hokazo.) Ular bu darajalarga qanday erishganliklari haqida gapirib ularni ham yaxshi yo'ldan borishga undaydilar.

Mashg'ulotlar ta'sirida darsga salbiy ta'sir etuvchi bola ruhiyatida ham yaxshi o'zgarishlar sodir etiladi. Ular uchun alohida psixologlar tomonidan o'tkazilgan suhbat va munozaralar yanada boladagi passivlik va salbiylikni kamaytirib, ularni faollashtiradi.

Ta'lim va tarbiya doimo chambarchas bir-biri bilan bog'liqdir. Chunki ta'lim bor joyda albatta tarbiya ham mavjud. Tarbiyali bolaning qo'lidan hech qachon yomonlik kelmaydi, ular faqat ilmi yo'lida izlanadilar, faqatgina dars bilan cheklanib qolmay, noan'anaviy mashg'ulotlar o'tkazishni ham talab qila boshlaydilar (seminar va treninglar, ochiq darslar tashkil etish).

O'smirlik yoshi o'zining ijtimoiy va biologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Ulkan hayot yo'lining mana shu muhim qismida katta yoshdagi o'smir o'z oldiga kim bo'lish, nima, qanday va nima uchun erishish kabi masalalarni hal etishga to'g'ri keladi. Masalalarni qanday qo'yish va jamiyat bilan uyg'unligi shaxsning kelajakdagi keng istiqboliga bog'langan holda, uning faolligi, barqarorligi, ma'naviy pokligi, maqsadga yo'nalganligi, betakrorligi, ijtimoiy va psixologik jihatdan mazmundorligi jamiyat uchun ham qimmatlidir. O'smirlik davrining qiyin davr bo'lishi ko'p jihatdan o'smir ruhiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish sababli namoyon bo'lishi mumkin.

Shu sababli o'smirlik yosh davrida mavjud nizoli vaziyatlarni tahlil qilish o'smirlik inqirozlarini yengil bartaraf etilishiga va pedagogik jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, xususan o'qituvchining bola faoliyatini salbiy baholashi bolada o'ziga past baho berishini tug'diradi. Bu ayniqsa hissiyotli bolalarga xosdir. O'qituvchining salbiy yo'l-yo'rig'i bolaning o'quv faoliyatiga salbiy tomonlarni va o'z qobiliyatlarining pastligiga ishonchini

shakllantiradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat jarayonida faqat axborot berish vazifasi emas, balki uni tushunishga erishish masalasi ham turadi.

O'smirlarning o'z tengdoshlariga intilishi o'zgacha bo'ladi. O'z tengdoshlari orasida o'zining sifatlarini boshqalar sifati bilan solishtirish, tenglik sharoitida u kimgadir boshqacha ko'rinish xususiyatlarini o'smirlar guruhida yaqqol kuzatish mumkin. Tengdoshlar orasida taniqli bo'lish va ularning hurmatiga sazovor bo'lish bu yoshdagi o'quvchilarning xususiyatlaridan biridir. O'smir o'zining ichki qarashlariga suyangan holda guruhda qo'llab-quvvatlovchi tayanch qidiradi. Tengdoshlari unga qanday baho berishida ular o'rtasidagi munosabatlar doirasida xilma-xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatlar o'smirda o'z mavqeini tiklash uchun ijobiy harakatlarni tanlash yoki aksincha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bular barchasi bevosita jamiyatning psixologik iqlimiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda psixologiyaning eng muhim masalalaridan biri – jamiyatimizda sog'lom psixologik iqlimni tashkil etishdir. Binobarin shunday ekan, psixologlar, pedagoglar bu dolzarb muammoni hal etishga o'z bilim va kuchlarini to'la safarbar qilmoqlari lozim.

Muloqot jarayonida o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va o'zaro munosabatlari hamda bir-birlari haqidagi tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik muloqotdagi to'siqlarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Shaxsiy;
2. Ijtimoiy-psixologik;
3. Jismoniy.

Muloqot bu hamkorlikdagi faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan o'zaro ta'sir va bog'lanishlar majmuasidan iborat psixik faoliyat hisoblanadi. U boshqa kishilarning faoliyati va xulq-atvorining ayrim natijalariga erishishni belgilaydi. Har bir kishi jamiyatda ma'lum rolni bajaradi.

Ayrim vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarda nizolarni keltirib chiqaruvchi vazifa, maqsad ziddiyatli pozitsiyadagi munosabatlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda o'smirlarda o'z mavqeini tiklashi va ijobiy harakatlarni tanlashi uchun o'qituvchining ish faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchining esa o'quv faolligini

shakllantirish lozim.

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaf-faqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlilik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlilik davrini o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlilik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan o'zaro munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta, har bir yosh bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirlarga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o'smirlar real xatti-harakatlarining shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida, o'smirlarning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga o'tishi

amalg oshiriladi.

Xatti axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'unchilik, bezorilik, xudbinlik, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalariga rioya qilmaslik, o'zbilamonchilik kabilar kiradi va bunday sifatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash (jamoa orasida tarbiya-tanganda ham)da faqat ularga yakkama-yakka yondashish lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini osh-kor bo'lishini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada muayyada ehtiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lishgina talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin bolalar, yoshlar bilan ish-lashda uning xarakter, qiziqishlariga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland tutmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va mak-tabdagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishiga havas tug'diradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yo-shi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport sekstiyasini, «tirik turchak»ni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy ta'tirolarni kamaytirish mumkin.

Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qolib boradi. Yana eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularni qo'lidan keladi-gan ishlarga e'tiborni berib, uni bajarganidan keyin rag'batlantirish, uni ishti yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda tarbiya berishning maxsus sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ular bilan duch kelgan vaqtda yoki har doim emas, balki qulay sharoit kelib qolganda ish olib borilsa, ya'ni tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilsa, u ko'proq natija beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda birinchidan o'quvchining innovatsion faoliyatini ta'minlash, shaxsini shakllantirish, shart-sharoit yaratish, ikkinchidan o'quvchilarning har muomalama qiziqishlarini hisobga olgan holda, uning individual o'ziga

xos xususiyatlarini o'quv-tarbiya jarayonida namoyon etishni ta'minlash ushbu kunning dolzarb vazifalaridandir.

Pedagogika, xususan ta'lim-tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi. Pedagogik tadqiqotlarning predmeti sifatida maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayoni, uning maqsadi, mazmun va mohiyati, o'qituvchi va rahbarlarning innovatsion faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. O'qituvchilarning o'quv faoliyatlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, uslub va vositalar orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari kabi ob'ektiv xususiyatlari egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyatini oshirish va ta'minlash haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajribalarga asoslangan tadqiqotlar natijalariga asoslanish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonida faollikni, pedagogik qobiliyatni shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil etishga imkoniyatlar yaratish hamda innovatsion yondashuvlar texnologiyalarini loyihalashtirish va joriy etish o'qituvchining bilimi, pedagogik va kasbiy mahoratlariga bog'liqdir.

II. BOB. O'QUVCHILARDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

1.1. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni tizimli va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish imkoniyatlari

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, ijobiy o'zgartirishlar jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda. Ta'lim ustuvorligini ta'minlash, ta'lim mazmunini modernizatsiyalashtirish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan barcha ezgu ishlar o'z samarasini bermoqda.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun ularga o'qish va o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashni o'rgatish, ya'ni tahliliy fikrlashga o'rgatish asosida o'quv faoliyatini tashkil etish zarur. Tajribalarning ko'rsatishicha, ko'proq tahliliy fikrlash o'quvchining o'zi tomonidan yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonlarida, ya'ni unga ikkinchi bir shaxs tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlari asosida tashkil etilgan o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari (keyingi o'rinlarda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari) samaradorligi nafaqat sub'ektlarning bilim, ko'nikma va malakalariga, balki ushbu jihatlar ham e'tibordan chetda qolmagan holda o'rganilayotgan ob'ektning aniqligi, ob'ekt haqidagi axborotlar va ma'lumotlarning yangiligi, ishonchliligi, tabiiyligi hamda asoslanganlik darajasiga ham, shuningdek, o'quv faoliyati jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish samaradorligiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari sifatida nafaqat o'quv faoliyati jarayoni natijalarini, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Bu omillar o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari

maqsadi, sub'ektlar tarkibi, ularning o'quv faoliyati hamda faolligi, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari ta'limiy dasturlari va ta'lim texnologiyasi, resurslar va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, ta'limning tashkiliy-huquqiy va moddiy-texnik ta'minoti hamda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini qamrab oladi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari sifat va samaradorligi, eng avvalo, ularning refleksiv faoliyati va faolligiga hamda o'rganilayotgan ob'ektning belgilangan maqsadga ko'ra to'g'ri tanlanganligi va asoslanganlik darajasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalariga hamda ulardan maqsadi va vazifasiga ko'ra to'g'ri va samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi. Bunday bog'liqlik ta'lim muassasalarida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etishga alohida ahamiyat qaratish va unda o'quv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zaruratini belgilaydi.

Demak, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etmasdan o'quv faoliyati jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlariga tizimli yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etish asosida ularning o'quv faoliyati samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar (o'rganilayotgan ob'ektning aniqligi, mazmun-mohiyati va ahamiyatini belgilangan maqsadga mos kelishini ta'minlash, izchil va uzviy yangilab borish, o'quvchilarning moyilligini aniqlash, refleksiv faoliyat ko'rsatishga ularda ehtiyojlar shakllantirish va motivlashtirish, yangi ta'limiy dasturlar va ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash, o'quvchilarning o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan ijodiy-tahliliy hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning bilimi, dunyoqarashi va o'zaro munosabatlarini nazorat qilish, refleksiv

faoliyat jarayonlarini vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirish)ning majmui yaxlit tizim sifatida inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, ya'ni tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligi o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari murakkab pedagogik tizim sifatida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha komponentlar majmuidan iborat bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonlari samaradorligini o'rganishda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir komponent yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tizimli yondashuv asosida tashkil etiladigan o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini o'rganishda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differentsiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalardan foydalaniladi. Tizimli yondashuv asosida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini muvofiqlashtirish, tashkil etish va muvofiqlashtirishda sub'ektlarga va ularning o'quv faoliyatiga qo'yilayotgan talablar hamda o'rganiladigan ob'ektning ob'ektivligi, mazmuni va amaliy ahamiyati yo'nalishlarida qo'yilayotgan talablar majmui nafaqat o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligi, balki ularning o'quv faoliyatini ta'minlash va uni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonlari samaradorligi o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari majmui hisoblangan tizimni o'zgartirish, uni qayta tashkil etish va muvofiqlashtirish qaysidir tashkil etuvchi komponent yoki komponentlarning o'zaro ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash, o'rganilayotgan ob'ektni yangilash yoki ob'ekt haqidagi asboblarni qayta ishlash va takomillashtirish, o'quvchilarning o'quv

faoliyati jarayonlaridagi faolligini ta'minlash, sub'ektlar tarkibini yangilash va h.k.

Demak, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish jarayonlari ham tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Shunday ekan, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligi mazkur jarayon ishtirokchilarining refleksiv faoliyati va faolligiga bog'liq holda quyidagi tamoyillarning qaror topishida o'z ifodasini topadi:

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarida sub'ekt-ob'ekt (o'qituvchi-o'quvchi) munosabatlari o'rnida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining hukm surishi;

- o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari ishtirokchilari (ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va jamoaviy boshqaruv organlari) faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

- majmuaviylilik – o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;

- o'zaro aloqadorlik – sub'ektlar va ishtirokchilar refleksiv faoliyati va faolligining o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligiga ta'siri;

- integrativlik – o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

- o'zaro bog'liqlik – o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

- kommunikativlik – o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarida sub'ektlarning refleksiv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirishda ularning ijodiy-tahliliy fikrlashining muhim mexanizmi sifatida refleksiv yondashuv o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv jarayonida sub'ektlarning o'z faoliyatini

tahlil qilishi va ob'ektiv baholashi (bu ta'limiy jarayondagi mavjud vaziyat va sub'ektlar harakatlarini baholash, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish jarayonidagi vazifalarni hal qilish usullari va yo'nalishlarini mustaqil topishni o'z ichiga oladi), sub'ektlar mavjud ta'limiy vaziyatlarni tahlil qilishi, o'z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o'ylab ko'rishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda shaxs-faoliyat yondashuvi ham zarur, chunki o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarida alohida shaxsga yo'naltirilgan e'tibor o'quvchilar faolligini ta'minlash va ularni motivlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarida shaxs-faoliyat yondashuvini tatbiq etishda o'quvchilar faolligi va o'quv faoliyati (o'rganish, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, xulosa yasash, fikrini isbotlash va asoslash) komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi, chunki sub'ekt-sub'ekt munosabatlari jarayonlarida o'quvchilar ham sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, sub'ekt sifatida o'quvchi faolligi uning mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari va o'quv faoliyati jarayonlarining tez o'zgaruvchan xususiyatlari o'quvchilar faolligini ma'lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatga ko'ra muvofiqlashtirish zaruratini belgilaydi. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligi va faolligiga bog'liq holda aniq vaziyatlarga ko'ra o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini aniqlashda vaziyatli yondashuv texnologiyasi o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega. Chunki aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatga ko'ra o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari o'quvchilarning faolligini ta'minlash asosida ularning faoliyatini muvofiqlashtirish quyidagi vazifalarni bajarilishini nazarda tutadi:

- vaziyatlarga ko'ra muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni aniqlash va o'quv faoliyati jarayonlari samaradorligini tahlil qilish;

- o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayonlarini vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirish zarurati mavjudligini aniqlash;

- o'rganilayotgan ob'ektning vaziyatlarga ko'ra mutunosibligini aniqlash;

- o'quvchilar faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra o'zgaruvchanligi sabablarini aniqlash;

- turli vaziyatlarda erishilgan natijalarning samaradorligini taqqoslash va vaziyatlarga ko'ra samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;

- vaziyatlarga ko'ra o'quvchilar faolligi va o'quv faoliyatini rivojlantirish strategiyalarini oldindan belgilash va h.k.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini ta'minlashda o'quvchilar faolligini va ularning imkoniyati, qobiliyati va boshlang'ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, nafaqat mazkur jarayon sub'ektlari hisoblanayotgan o'qituvchi va o'quvchilar uchun, balki tashkilotchilar uchun hamda samaradorlikni ta'minlash jarayonlari ishtirokchilari uchun ham eng qulay bo'lgan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Muvofiqlashtirilgan yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish asosida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish natijasida sub'ektlar faolligi ta'minlanadi hamda o'quv faoliyatni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejraladi.

O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarining ahamiyati uning natijaviyligida o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyalari asosidagi yondashuv ham o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish rivojlantirish tizimi sifatida amal qiladi va o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning faolligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi ishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

• o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlariga tahliliy va tadqiqiy xususiyatlarga ega tizim sifatida yondashish;

• o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini yaxlit pedagogik tizim sifatida loyihalashtirish;

• o'quvchilarni o'qish, o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashga undovchi motivlar va motivlashtirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

• o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish asosida ularda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlovchi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish;

• o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish jarayonlarini loyihalashtirish va modellashtirish asosida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.

Natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlari natijalariga mazkur jarayonning barcha sub'ektlari (ya'ni ta'limni boshqaruv organlari, ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar, mahalla faollari, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari)da qiziqishlar shakllantirish, mazkur jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda hamkorlikda faoliyat ko'rsatish muhim. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlarini barcha sub'ektlarga tegishli va daxldorlik asosida tashkil etishda korporativ yondashuv tatbiq etiladi va korporativ yondashuv asosida tizimning barcha sub'ektlarining hamkorlikdagi faoliyati ta'minlanadi. Korporativ yondashuvning yana bir o'ziga xos ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonlariga etnik va milliy-hududiy yondashuv texnologiyalarini tatbiq etishda mahalla faollari va ota-onalarning tajribalari va hamkorlikdagi faoliyat o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

2.2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda dars intizomini shakllantirish vositalari

E'tirof etish kerakki, dars intizomiga amal qilish faqatgina o'quvchilarning darslarga uzluksiz ishtirok etishidan iborat emas. Agar o'quvchi darslarga muntazam ishtirok etib, o'quv materiallarini o'zlashtira olmasa, bunday holat ham dars intizomiga salbiy munosabatni bildiradi. Gap shundaki, o'quvchi oiladan dars jarayoniga ruhiy va aqliy jihatdan tayyor bo'lib kelishi, o'qituvchining bevosita ishtirokida DTS talablari darajasida BKMLarni egallashlari shart. Bu

talab "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda o'z aksini topgan. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda o'ziga xoslik katta ahamiyatga ega. Barkamol shaxsni tarbiyalash uchun sinfda tinch o'tirib o'quv materiallarini o'zlashtirmaydigan o'quvchilar emas, aksincha, harakatchan, hozirjavob, o'zining fikri va nutqiga ega bo'lib, ta'lim samaradorligiga erisha oladigan o'quvchilar kerak.

Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabga ilk qadamlaridan boshlab ularning dars intizomiga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni boshlang'ich sinf o'quvchilariga ularning layoqatlari va bilish imkoniyatlarini rivojlantirish asosida ta'lim berishni nazarda tutadi.

Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol pedagogik texnologiyalarni izlash, ulardan foydalanishda o'quvchilarning yoshiga, aqliy va ruhiy darajasiga moslashtirishni taqazo qiladi. Mazkur holatlarda o'qituvchi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini alohida hisobga olishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim kontsepsiyasida etuk, ijtimoiylashgan, ma'naviy jihatdan shakllangan shaxsni etishtirish masalasi ustivor qilib qo'yilgan. Bunday maqsadga erishish uchun dastlab o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish lozim. O'quvchilarning bilish faoliyatlari esa, atrof-muhit, tabiat va ijtimoiy hayotga nisbatan faoliyatli yondashuv natijasida rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish ularning maylli-ehtiyojli hissiy-ixtiyoriy, kognitiv sohalariga mujassam tarzda ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshadi. O'quvchilarning bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirishdan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad – ularda erkinlik hamda fikriy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Inson faoliyati bunyodkorlik xarakteriga ega. Bu shuni anglatadiki, faoliyat sub'ektlari tashqi harakatlarni faoliyat jarayoniga olib kiradilar. Bu aqliy harakatlar jarayonida amalga oshirilgan muloqot faoliyatining ichki rejasiga muvofiq tarzda ta'minlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

a) didaktik yondashuvlar, unda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoli-

yati, o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan;

b) psixologik yondashuvlar, bu jarayonda o'quvchilarning o'zlari ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan bilish faoliyatlaridan foydalanadilar.

Bugungi kunda mavjud bo'lgan pedagogik-psixologik nazariyalar didaktikaning asosiy negizi sifatida o'quvchilar harakatlarini qanday tashkil etish kerak, degan savolga javob izlashi lozim. Chunki o'quvchilarning bilish faoliyatlari muayyan o'quv muammolarini echishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun faoliyat usullari va metodlari yig'indisidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil etish tushunchasi ostida o'qituvchi va o'quvchilarning izchil harakatlarini ifodalovchi tizim tushuniladi. Mazkur tizim didaktik shart-sharoitlarni vujudga keltirishni ta'minlashi, o'quv topshiriqlarini bajarish va ushbu jarayonni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkonini beruvchi tizim bo'lishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bilish jarayonini faollashtirish imkoniyatlari modernizastiyalashgan ta'lim mazmuni va vositalarini amaliyotga keng tadbqiq etish orqali ta'minlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish ularning aqliy mustaqilligini ta'minlaydi. Bu ularni yangi bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtirishlari va ularning nostandart, yangi vaziyatlarda qo'llay olishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni bilish faolligiga yo'naltirish jarayonining tahlili, mazkur jarayonning bir qator yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Undan:

- O'quvchilar o'quv jarayonining sub'ekti sifatida shakllanishlari;
- O'quv jarayonining dialog asosida tashkil etilishi;
- O'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatning amalga oshishi;
- O'quv-biluv jarayonining individuallashtirilishi va tabaqa-lashtirilishi;
- O'quv materiali mazmunining ahamiyatliligi va qimmatliligining namoyon bo'lishi;
- O'quv predmetlararo va ayni bir o'quv predmetining ichida aloqadorlikning o'rnatilishi;
- O'quvchilarning muntazam shug'ullanishga jalb etilishlari;

- Muammoli va hamkorlikdagi o'qitish metodlaridan unumli foydalanishi;

- O'quvchilarning mustaqil ishlari ko'lamining kengayishi;

- O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlar hayotiy tajribalar bilan bog'lanishi;

- Sinfda ijobiy do'stona muhitning tarkib toptirilishi;

- O'quvchilar muvaffaqiyatini ta'minlovchi didaktik muhitning vujudga keltirilishi;

- O'quvchilar va o'qituvchilar orasida pedagogik-psixologik jihatdan sog'lom muhitning qaror toptirilishi;

- O'qituvchining o'z o'quvchilari bilish imkoniyatlariga ishonishi kabilardir.

O'quvchilar bilish imkoniyatlarining ko'proq tabaqalashganlik darajasi va ularni maqbullashtirish yo'llarini aniqlash boshlang'ich ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim shartidir. Bilish faoliyatining boshlang'ich darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar juda passiv bo'lib, topshiriqlarni juda qiyinchilik bilan bajaradilar. Ularga o'qituvchilar tomonidan muntazam bosim o'tkaziladi. Ular uchun nekinlikka asoslangan muhimni vujudga keltirish zarur bo'lib, bu o'quvchida topshiriqni noto'g'ri bajarganligi uchun qo'rquvni engish imkonini beradi. O'quvchilar bilish darajasining faol darajasi muayyan vaziyatlarda manfaatdorlikni vujudga kelishi, o'quv materiallarining qiziqarliligi, o'quv dars shakllarining jozibadorligi bilan bevosita bog'liqdir. Faol ijrochilik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muammoli vaziyatlarni qo'llash, rolli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, bu ularni faollikka yo'naltiradi. Bilish jarayonida faollikning yuqori darajasi sifatida o'quvchilarning ijodkorligi namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda bilish faoliyati asosiy xususiyatlarini o'quvchi hamda o'qituvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik va do'stona munosabatlar tashkil etadi. O'tmishda mavjud bo'lgan bir yoqlama nuqtai-nazar o'quvchi o'quv faoliyatining ob'ekti ekanligiga asoslangan bo'lib, o'qituvchi esa mazkur jarayonning sub'ekti sifatida turli vazifalarni bajarishga safarbar etilganligida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda o'quvchilar uchun faoliyatning maqsadi ochiq-oydin ifodalangan bo'lib, o'quvchilar mazkur maqsadni anglashlari uchun harakat qilinadi. Etakchi g'oyalar tahlil qilinadi, o'quv predmetining mazmunini o'zlashtirishga qulay bo'lishi uchun kuch sarflanadi,

bilimlar jarayon mantiqi va ularni o'zlashtirishning qimmatini ochadi. Shuningdek, o'quvchilarni faoliyatning zarur usullari bilan qurollantiradi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilar bilish faoliyatini dasturlashtirish imkoniyatini beradi. Mazkur vaziyatda o'quvchilar ob'ekti sifatida namoyon bo'ladilar.

Xulosa o'rnida uzoq yillik tajribalarimizga tayangan holda aytish mumkin, o'quvchilarni dars intizomiga qat'iy rioya qilish ko'nikmalari boshlang'ich sinflardayoq shakllantirilsa, o'smirlik davri va undan keyin ham salbiy tomonga kamroq og'ish hollarini kuzatiladi.

Demak, o'quvchilarning dars intizomidan chetlashish holatlari omillaridan biri – bu o'qituvchilarning kasbiy mahoratlari, tajribalari darajasining etarli emasligi oqibatida o'quvchilarda fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqishni uyg'ota olmaganliklari, o'quvchilar bilan muomila madaniyatining pastligi natijasida o'zidan bezdirishi kabi sabablar bilan yuzaga keladi.

2.3. O'quvchilarni ijtimoiy psixologik bilimdonlikka va samarali muomalaga o'rgatish texnikasi

1. Yangicha ijtimoiy psixologik munosabatlarga o'rgatish muam-mosi. Sharq mamlakatlarida o'zaro munosabatlarning inson-parvarlik tamoyillari.

2. Yoshlarni yangicha ijtimoiy munosabatlarga o'rgatishning ay-rim jihatlari.

3. Shaxslararo sog'lom, samimiy munosabatlarni tarkib toptirish.

Insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, insoniy munosabatlar, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar masalasi ham shu darajada ko'hna va hamisha dolzarbdir. Inson tafakkuri va uning aql idrokiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shuki, uning taraqqiyoti eng avvalo, kishilik jamiyatidagi o'zaro munosabatlarni qay darajada mukammalligiga hamda insoniyligiga bog'liq. Demokratik munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning muhim bir shakli sifatida har bir mu'tadil taraqqiy etayotgan insonning ma'naviy barkamolligi asosini tashkil etadi.

Xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatiga nazar tashlar ekanmiz, qadimiy Sharq mamlakatlarida davlatchilik an'analari avvalo inson haq-huquqlari, erki, tafakkuri, rivojiga munosib o'zaro munosabatlar,

bir so'z bilan aytganda, insonparvarlik tamoyillari asosiga qurilgan ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aks holda tarix ulug' bobolarimiz M.G'aznaviy, A.Temur, H.Boyqarolarni bilmagan, ularning buyuk zehni va iqtidori, jamiyat, fan, madaniyati va ravnaqiga qo'shgan hissalaridan baxramand bo'lmagan bo'lar edi. Lekin insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharqda o'ziga xos va har bir millat psixologiyasi mos holda shakllangandir.

Ijtimoiy psixologik munosabatlarning psixologik tabiatini qilar ekanmiz, uning shaxs kamoloti va salohiyatiga ta'siri masalasiga alohida to'xtab o'tish joizdir. Chunki, aynan jamiyatda, shaxslararo munosabatlarda shaxsda o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi kamol toptirish jarayonlari tezlashadi, samimiy, insoniy munosabatlar, inson haq-huquqlarini e'zozlashga asoslangan munosabatlar shaxsning o'zi hakidagi bilimlarini, o'z imkoniyatlarini va nasl-nasabini aniqroq holda to'g'riroq tasavvur qilishga imkon beradi. Ikkinchidan, aynan to'g'ri ijtimoiy munosabatlar o'zga shaxslar huquq va erkinliklarini ham anglash, ularni hurmat qilishga qaratilgan tasavvurlar majmuining bo'lishiga imkon yaratib, insoniy munosabatlarda madaniyat va iltifot tamoyillariga amal qilinishiga sharoitlar yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan ikki jihat oqibat natijasida inson shaxsini eng oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etilishi va unga nisbatan jamiyatdagi yaxlit munosabatlarning o'zgarishi tufayli huquqiy ma'naviyat va fuqarolarning siyosiy faolliklarini tobora oshirib borishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham tub islohotlar jarayonlarini boshidan kechirayotgan davlatimizda iqtisodiy, siyosiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga katta e'tibor qaratilgan. Bu o'rinda, shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarimizning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirish taqozo etadi va ijtimoiy psixologiya fani oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Shu o'rinda ko'plab tadqiqotchilarni o'ylantirayotgan masala shuki, jamiyatda rivojlanadigan va uning ta'sirida shakllanuvchi shaxs uchun qanday ijtimoiy munosabatlar muhiti zarur yoki boshqacha qilib aytganda, uning barkamolligi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish mumkinmi yoki progressiv taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimini yaratish imkoniyati bormi? Bu fikrni paydo

bo'lishiga sabab – ayrim tadqiqotchilarda jamiyat ta'siridan ko'ra, shaxsning bevosita o'z muhiti, hattoki, yolg'izlik ham ijobiy omil bo'lishi ham mumkin, degan fikrlar ham yo'q emas. Olimlarning ta'kidlashicha, yaponlar tarbiya maktabida «maritao» deb nomlanuvchi tizim mavjud ekanki, unga ko'ra, o'smir yoki o'spirin ma'lum taraqqiyot bosqichida yolg'izlikka mahkum etilar ekan. Bunda uning g'orga, shunga o'xshash joyga yolg'iz qamab qo'yishar, hatto o'zi bilan o'zi muloqot qilishi ham ta'qiqlanarkan. G'arb tadqiqotchilari (L.Semeonova va boshq.) ushbu jarayonning psixologik mohiyatini talqin qilar ekanlar, uning 2ta jihatiga e'tibor qaratiladi: bir tomondan bu narsa ijobiy samara berishi mumkin, chunki odam o'zini-o'zi anglash, o'ziga xolis baho berish, ijodiy rivoj uchun zarur imkoniyatni o'zidan qidirishga moyassar bo'ladi. Lekin 2-jihati ham borki unda odam o'zgalarda xuddi oynaga qaraganday o'z aksini ko'radi, shu tufayli u kishilar jamiyati talab va qoidalariga bo'ysunish, o'z-o'zini mukammallashtirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Ma'lumki, sufiylar ham islom olamida o'ziga xos ruhiy dunyoga ega bo'lishgan, ularda ham dunyo g'amlaridan va kamsandchiliklaridan voz kechish, o'z hissiy olamida yolg'iz haq yo'lida harakat qilish falsafasiga asoslanishgan. Lekin ularni dunyoqarashi va psixologiyasida bir muhim jihat borki, unda «O'zini tanigan kishi o'z Rabbisini taniydi» degan hadisiiy qoidaga amal qilingan. Ya'ni tasavvufda ham inson jamiyatda yashar ekan, avvalo u o'zini sevishtirishga o'rganadi, o'z kamoloti uchun kurashadi, bu uning O'lgahga bo'lgan muhabbatining ramzi va nishonasi hisoblanadi.

Abuhamid G'azzoliy fikricha, barcha insonlarga xos bo'lgan sifatlar borki, ularning mazmuni quyidagi omillar orqali tushuntiriladi:

1. Inson o'zini, o'z kamoloti va hayotiga asos bo'ladigan narsalarni sevadi;
2. O'ziga yaxshilik qilgan, yordam beradiganlarni sevadi;
3. Umuman hammaga yaxshilik qiladigan saxovatli odamlarni sevadi, jumladan, adolatli shohlar ham sevimli;
4. Barcha go'zal narsalar, nasofat olami, xushbo'y va xushsurat narsalarni ham sevadi;
5. Maslak va masxab yuzasidan ham odamlar bir-birlarini yaxshi ko'radilar, ularning barchasi oxir-oqibat, insonlarning ruhiy-

ma'naviy qarindoshligiga asos bo'ladi. Ko'rib turganimizdek, tasavvuf ilmida ham jamiyatda mo'tadil insoniy munosabatlar bilan individuallik o'rtasida tafovut yo'q. Zero, jamiyatning tub mohiyatini anglab etish, avvalo o'zini o'zi anglash va shu orqali ijtimoiy munosabatlar mazmunini to'g'riroq tushinishga olib keladigan mantiqiy yo'ldir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlar tarbiyasida ularning yangicha ijtimoiy munosabatga o'rgatishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritamiz.

Birinchidan ijtimoiy munosabatlar yoshlar tarbiyasining barcha bosqichlari va jabhalarida e'tiborga molik ob'ekt sifatida qaralmog'i lozim. Ya'ni oilaviy munosabatlardan tortib, to mehnat jamoalaridagi munosabatlarda inson shaxsi, individualligi, betakrorligini hurmat qilish, uning o'z iqtidori, maslagi va imkoniyatlari qanday bo'lsa, xuddi shundayligicha tabiiy tarzda qabul qilish va shu asnoda uning rivoji uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi mutaxassislar tayyolashda ularda kasbiy mahoratning o'sishini ta'minlovchi ma'naviy omillardan biri – talabaning shaxsiy intilishi, qiziqishi, maslagi nuqtai nazaridan o'z bilimiga va malakalariga muayyan talablar qo'ya bilishdir. Boshqacha qilib aytganda, biz ta'lim «standart»lariga to'la javob beradigan shaxsni mutaxassis sifatida bir qolipda tarbiyalashimiz qiyin, lekin maqsadli ta'lim tarbiyamizda har bir o'quvchining rivojiga turtki berish, uning muomala tasavvuri o'sishiga ta'sir etish usullarini qo'llashda eng samarali muomala shaklini amaliyotga tadbiiq etish zarur. Demokratik, teng xuquqlilikka asoslangan o'zaro munosabatlarga talabaga o'zini-o'zi anglash, kelajakda jamiyatga nima bera olishi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi, o'z ruhiyatida «ichki tartib intizom»ni joriy etish va shu asnoda o'zini o'zi ruhiy ma'naviy jihatdan tarbiyalash tizimini amalga oshirish imkonini beradi. Zero, shaxs ma'naviyati rivoji ham avvalo o'zini o'zi anglash, keyinchalik o'z manfaatini anglash va nihoyat jamiyatni tanish bosqichlarini taqozo etadi.

Ikkinchidan, aynan yangicha demokratik munosabatlar yoshlarni kasbga to'g'ri yo'naltirish, o'z iqtidori doirasida kasb tanlash, unga to'g'ri munosabatda bo'lish, boshqacha qilib aytganda, bozor munosabatlari ehtiyojlari va talablariga xos hamda har bir shaxsning layoqatiga va maslagiga mos kasb tanlashga yo'naltiradi. Bu jarayon

keyinchalik mutaxassis uchun zarur bo'lgan kasb mahorati va professionalizm uchun muhim zamin hozirlaydi.

Uchinchidan, har bir shaxs uchun o'z erkinligini anglash, o'ziga munosabatlarning ijobiyligini his etish muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olar ekanmiz, biz aynan demokratik tamoyillarning hayotda barqarorligi sharoitidagina yigit-qizlarda o'z oilasiga, yaqinlariga, mehnat yoki ta'lim muassasasiga, el-yurtga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini tarbiyalashimiz mumkin. Zero, bu narsa Vatanga bo'lgan muhabbatning, yuksak axloq va vatanparvarlikning yakkol asosidir.

Ma'lumki, bugun tub islohotlar sharoitida yoshlar tarbiyasida o'zini-o'zi boshqarish muammosi katta ahamiyatga ega. Uning samaradorligi shaxslararo sog'lom, samimiy munosabatlar mavjud bo'lishini taqozo etadi. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak?

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarini isloh qilish zarur ekan, o'quv rejaları va zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish bilan bir qatorda, har bir talaba bilan professor-o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tamoyillarini tubdan o'zgartirish muammosi borligini his etish zarur. Yoshlarimizni mustaqil fikrlovchi, faol, shijoatli, o'ziga ishonuvchan, zukko, bilimdon, demokratik munosabatlarning sub'ekti qilib tarbiyalashni amalga oshirish uchun so'zsiz, ijtimoiy psixologiya va uning metodlari muhim rol o'ynaydi. U tarbiya jarayonini sof ijtimoiy munosabatlarning mahsuli deb qaraydi. Yangicha fikrlash va tafakkurning muhim sharti sifatida demokratik munosabatlarga asoslangan muomala jarayonini tahlil qiladi. Demak, barcha oliy o'quv yurtlarida talabalarga maxsus dasturlar asosida muomala texnikasi va etiket asoslari o'rgatilishi lozim.

Ikkinchidan, uning asosida ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasida yangicha «sub'ekt-sub'ekt» shaklidagi muomala ustuvor bo'lishi kerak. Bu munosabatlarning asl mohiyati shundaki, endigi asosiy vazifa – professor-o'qituvchining o'qitishi emas, balki uni «o'qitishga» o'rgatish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining faol sub'ektiga aylantirishdir. Boshqacha qilib aytganda, yangicha munosabatlar ta'lim va tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning munosabatlarini o'zaro hurmat, hamkorlik va bir-birini tushunish sharoitiga bo'ysungan bo'lishini taqozo etadi.

Bu o'rinda fanda mavjud bo'lgan an'anaviy boshqaruvning demokratik, avtoritar va liberal turlari haqidagi qarashlarni yana bir bor tahlil qilish zarur. Shunday qilib, agar biz professor-o'qituvchini

eskicha stereotiplardan, ya'ni o'zining mutloq bilimdonligi, talabaning vazifasi esa faqat uni tanqidsiz qabul qilishi, tinglashi va takrorlashi ekanligi bilan bog'liq turg'un qarashlardan xoli qila olsak, ilm oluvchini esa, erkin fikr yuritish va o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga va o'z erkini his etishga o'rgata olsak, shaxs psixologiyasi va munosabatlarida yangicha holat yuzaga keladi, ya'ni shunda shaxs o'zini:

- a.) erkin his qiladi;
- b.) o'z imkoniyati va iqtidori haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'ladi;
- v.) tafakkurning alternativ-muqobil bo'lishini to'liq anglaydi;
- g.) har bir shaxsning ichki "men" dasturi mukammallashib boradi;
- d.) o'z fikr va qarashlari, xulq-atvorining asl sabablarini anglash, individual ehtiyojlar tabiatini tushunish imkoniyati tug'iladi.

Bunda ijtimoiy psixologik treninglar, ya'ni samarali muloqot va muomala usullari hamda maromlarini keng qo'llash katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Demak, ijtimoiy psixologik bilimdonlikdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarni bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash, ularda yuksak insoniy fazilatlarini shakllatirish, kommunikativ bilimdonlik va shaxslararo muloqotning murakkab shakllariga moslashish jarayonlarini tezlashtirishdan iboratdir.

2.4. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik - samarali muomala omili sifatida

1. Bilimdonlik tushunchasining ijtimoiy psixologik mohiyati.
2. Yoshlarning bilim doirasini oshirishda va dunyoqarashini kengaytirishda psixologik bilimdonlikning ahamiyati.
3. Yoshlarning psixologik savodxonligini oshirish yo'llari.

Ma'lumki, ilmiy adabiyotlarda "bilimdonlik" tushunchasi ko'pincha «aql», «aqllilik», «ilmga chanqoqlik» kabi tushunchalari bilan bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida psixologik nuqtai nazardan ushbu tushunchalar o'rtasida mohiyatan bir oz bo'lsada farq bor. Buyuk bobomiz A.Navoiy «aql» tushunchasini «bilimdonlik»dan kengroq ta'riflab, aql so'zining 27 darajasi va 27 sifatini ajratadi. Ushbu sifatlardan eng muhim va ijobiylari bevosita bilimdonlikka aloqadordir. M:

«aql muxandislari»- donishmandlar, olimlar, bilimdonlarni;

«aql piri»- tafakkur ustoz, farosatli kishilarni;

«aql o'ti»- zehn o'tkirligi, hushyorlikni;

«aqli kulb»- eng etuk aql kabi qator sifatlarga insonni atrof-muhitda ro'y beradigan voqea-hodisalarning mohiyatiga etish, ularni tahlil qilish va umumlashtirish, yangilik ochish, ijodiy izlanish sifatlarini aks ettiradi.

Ibn Sino esa, inson faoliyatidagi hakikatni bilishga olib keluvchi nazariy, hamda yaxshi ishlarni bajarishga yo'naltiruvchi amaliy bilimlarni farqlaydi. Demak, shaxsning bilimdonligi uning atrof-muhit, tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan murakkab hodisalarni kishilar o'rtasidagi munosabatlarni anglash, baholash, o'zi hakida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish negizida hayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatda namunali ishlarni bajarish, insoniy fazilatlariga amal qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi oldida turgan eng muhim vazifa ham kelajagimiz bunyodkorlarida aynan shunday sifatlar majmuini shakllantirishdir.

Fanlar tarixidan ma'lumki, falsafa fani bilimlarning eng yuqori pog'onasi bo'lib, eng fozil va donishmand insonlar ushbu sohalar bilan shug'ullanganlar. Lekin falsafaning nazariy hamda amaliy kislari bo'lib, birinchi kismi 3 boskichdan: tabiatshunoslik, matematika va metofizikadan;

Amaliy qismi ham 3 boskichdan: - shaxs hakidagi ilmlar, insonning o'zaro munosabatlari hakidagi ilmlar, mamlakatni boshqarish ilmi kislari bo'linadi.

Bizningcha bilimdonlikning yuksak pog'onasi barcha ilmlar sohibining didi, fahm-farosati va zukkoligini taqazo etadi. Ya'ni ma'rifatli, bilimga chanqoq shaxs tabiat va jamiyat, inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga aloqador barcha bilimlarga befarq emasligi, ularni mukammal egallaganligi bilan farqlanadi. Shunday avlodgina murakkab texnologiya, xalqaro munosabatlar rivojlangan davrda xalq so'jaligining ustuvor yo'nalishlarini boshqaruvchi yuqori malakali mutaxassis sifatida davlat va jamiyatga foyda keltirib ishlay oladi. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifasi - Kadrlar tayyorlash milliy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqayotganligi mantqan to'g'ridir. Ijtimoiy psixologiya ham bilimdonlik tushunchasining mohiyatiga o'ziga xos tarzda yondashadi va uning serqirraligini etirof etadi. Psixolik nuqtai nazardan olib karalganda shunday muhim jihat mavjudki, u ham bo'lsa aniq ilmlar sohasida

bilimlar hamda shaxsning jamiyatdagi insoniy, mafkuraviy, huquqiy, siyosiy, demokratik munosabatlar to'g'risidagi bilimlarining o'zaro uyg'unligi masalasidir.

O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning ijobiy tarzda hal qilinishiga 1996 yili chikarilgan «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular samaradorligini oshirish to'g'risidagi» farmon, Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining ushbu farmonni o'quv yurtlarida bevosita bajarishga qaratilgan qator buyruq va qarorlari, turli o'quv maskanlarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» kurslari o'kitilishining tashkil etilishi sezilarli rol o'ynadi. Shuningdek, «Yoshlar agentligi»ning tashkil etilganligi ham yoshlar ma'naviyatini takomillashtirishdek vazifaga daxldordir.

Ma'naviyat sohasidagi islohotlar, amalga oshirilgan va oshirilayotgan ishlarning ahamiyati shundaki, ular yoshlarda o'z xalqi madaniyati, Vatanining o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlarga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'lmokda, bu esa, ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir. Aks holda olam siru asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs agar u bilimlarini, avval o'z xalqi, millati, yaqinlari manfaatiga yunaltira olmasa, va uning jamiyat taraqqiyotiga aloqasini tasavvur qila bilmasa, ma'naviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz, xudbin sifatida baholanadi. Shu bois ham mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida, maktablarda «Ma'naviyat saboqlari» ning kiritilishi ulardan kutilayotgan samara ana shu ezgu niyatlarning amalga oshishiga sabab bulmokda. Oliygozlarda talabalar huquqiy madaniyatini o'rganish va uni shakllantirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilandi.

Farg'ona Davlat Universiteti olimlari huquqiy ong bilimlar bilan huquqiy madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqot o'tkazganlar. Ma'lum bo'lishicha talaba yoshlarning bilim doirasida respublikaning Asosiy Qomusi, uning mohiyati, qonunchilik shartlari va mazmuni hakida tasavvurlar mavjud, ya'ni huquqiy ongning shakllanganlik darajasi 2-4 kurs talabalarida taxminan 70-75% tashkil etgan bo'lsa huquqiy madaniyat mezonini hakidagi tasavvurlari 18-20% tashkil qilgan xolos.

Nihoyat yuqoridagilarga aloqador yana bir jihat borki, bu yoshlarning psixologik savodxonligi va uni oshirish masalasidir.

Psixologik savodxonlik tushunchasining asl mohiyati – bu shaxsning o'z, uning hissiy kechinmalari munosabatlari majmui bilan jamiyat va undagi shaxslararo munosabatlar tizimi, qadriyatlar, ma'naviyat to'g'risidagi to'la tasavvurlaridir.

Psixologik nuqtai nazardan, bilimdon odam tasavvurlarida shaxsning o'z va xolislik sifatleri mavjudkim, shu tufayli u o'z «meni» ni mukammallashtirish va o'zgalar bilan to'g'ri munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega. To'g'ri, hayot undagi vaziyatlar, hodisalar, shaxsiy tajriba shaxsni ma'lum yo'nalishda rivojlanishiga sabab hisoblanib uning ma'lum ijtimoiy tasavvurlari tizimini hosil qiladi. Lekin shaxsiy, tajribadagi xatoliklar va yutuqlar evaziga orttirilgan psixologik savodxonlik aniq maqsadga yunaltirilgan, shaxs va jamiyat manfaatlariga aniq tahlil va ezgu niyatlarga tayangan bilimdonlikdan iborat qiladi. Masalan: boshqaruv tizimini oladigan bo'lsak, rahbar va rahbar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi ko'pincha shaxslararo ziddiyatlarni va nizolarni keltirib chiqaradi. Lekin agarda rahbarning faoliyati, maqsadlarida xodimning individual xususiyatlari va ijtimoiy kutishi hamda iqtidori hisobga olinib, muloqotga kirishilsa, muloqot samaradorligini oshiruvchi usullardan foydalanilsa, natija o'zaro kelishuv va tomonlarning hamfikrliligi bilan yakunlanadi. Yangi davr kishisi, umuman ishlab chiqarishning turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar maxsus dastur asosida muamala texnikasi va o'zini tarbiyalash texnologiyasini egallasalar, unda ijtimoiy faoliyat samarasi ortadi.

Psixologik savodxonlik yana shuning uchun ham zarurki ko'pincha inson o'z iqtidori va imkoniyati darajasida aniq tasavvur qilmaydi, bilmaydi yoki kasb tanlashda o'zgalar ta'siriga berilib, muayyan xatolikka yo'l qo'yadi. Buning oqibatida nafaqat o'sha shaxs aziyat chekadi, balki jamiyatga zarar keltiradi. Har bir shaxs o'zini o'zi tarbiyalashning malakalariga ega bo'lishi, autotrening elementlaridan foydalanib bo'lishi, o'zgalar bilan muloqotga tayyorligi, treninglarda ko'nikmalar hosil qilishi, «o'zgacha bo'la olish» san'ati, uning ruhiy barkamoliligiga zaminligi tufayli jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlar ustun turadi. Bilimdon kishilar o'zining bilim tizimidan foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Zero, ta'lim bilimlar doirasi kengligi sababli dimog'dorlik illati yuzaga kelmishi, salohiyati bo'yicha o'z o'rnini topa olmaslik, o'z-o'zini quyi baholash barkamol shaxs taraqqiyoti uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, ijtimoiy psixologik bilimdonlikdan ko'zlangan asosiy maqsad — yoshlarni bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash, ularda insoniy fazilatlarini shakllantirish, kommunikativ bilimdonlik va shaxslararo muloqotning murakkab shakllariga muvofiqlashuv jarayonlarini tezlashtirishdir. Bugungi talabalar ertangi kunning bunyodkorlari, vatanparvarlari, mehnatsevar insonlar, jamoalarni boshqaruvchi ziyolilar bo'lib etishishi kerakligini hisobga olsak, ulardan bilimdonlik darajasi va ko'lamining keng bo'lishining ahamiyati shak-shubhasizdir. Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el yurtga naf etkaza oladigan insonlarga kamolotga erishishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy psixologiya o'zining faol metodlari va qonuniyatlari bilan o'z hissasini qo'shadi.

Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan tub islohotlarning mohiyati haqida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy kadriyatlarni yosh avlod ruhiga va ma'naviy dunyoqarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yo'lida foydalanishning yagona yo'llaridan biri - bu ularda bilimdonlikni etarli darajada shakllantirishdan iboratdir.

«Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda». Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini, va aksincha bilimi kam, olim odamlar avtoritarizm va totalitar tuzumini ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 1997 yil)

Davlatimizda mustaqillik qo'lga kiritilib, huquqiy va demokratik islohotlar amalga oshirilishida qilinayotgan ijtimoiy sa'ls-harakatlarning ne'mati shundaki, mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. O'z tariximiz, tilimiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz durdonalarini o'rganishga ochilgan yo'l xalq tafakkurining rivojlanishi, uning o'tmishi, buguni va ertasi haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishiga imkon yaratadi, yoshlarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi.

Psixologiyaning asosiy muammolari:

1. Muloqot va shaxslararo munosabatlar;
2. Muloqot kishilarning o'zaro munosabatga kirishish jarayoni ekani;

3. Muloqot ma'lumot almashinuvi jaryoni;
4. Muloqotning interaktiv va persteptiv tomoni;
5. Tadbiqiy ishlar va ilmiy izlanishlarning zarurligi;
6. Yoshlarni yangi demokratik munosabatlarga tayyorlash.

Har qanday faoliyat odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlar uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirish qobiliyati bilan bevosita bog'liq.

Shaxslararo muloqot jarayoni juda murakkabdir. B.F. Pariginning yozishicha, «muloqot shunchalik ko'p kirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:»

- A. Individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- B. Individlal o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- V. Bir shaxsning boshqa bir shaxsga munosabati jarayoni;
- G. Bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- D. Bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
5. Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni.

Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich — odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» kitobida (darsligida) «Agar odam o'zina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi», -deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan, munosabatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot - muloqotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o'rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqot murakkab jarayondir. Uning tuzilishi quyidagicha:

1. Muloqotning kommunikativ tomoni — muloqotlarga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi jarayoni.
2. Muloqotning interaktiv tomoni — muloqotga kirishuvchilarning

xulq-atvoriga ta'siri.

3. Muloqotning persteptiv tomoni — muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.

Har qanday muloqot rasmiy yoki norasmiy bo'ladi. Rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvoridan kelib chikadi. Masalan, rahbarning o'z xodimlari bilan, professorning talaba bilan muloqoti. Norasmiy muloqot odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. M: do'stlar suhbat, poezdda uzok safarga chiqqan yo'lovchilar suhbat, tanaffusda talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi suhbat. Odamlarning asl tabiatiga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin bunday muloqotga ham qobiliyat kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunish va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma ham rahbar bo'la olmaydi, ayniksa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab etiladi.

Muloqot mavzusi va yo'nalishiga ko'ra:

1. Ijtimoiy yunaltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chikadigan);

2. Guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki biror topshiriq bajarish jarayonidagi muloqot);

3. Shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini echish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);

4. Pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni).

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniksa, odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir.

Muloqotning kommunikativ tomoni — shaxslararo axborotlar, bilimlar g'oyalar, fikrlar almashinuvi. Bu jarayonning asosiy vositasi —til. (yozma-ogzaki, monologik-dialogik nutq) Dialogik nutqning mazmuni, xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning

shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. O'qituvchi-o'quvchi, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, dugonalarning suhbatlari bir-biridan farq qiladi. Monologik nutq bir kishining boshqa kishiga murojaati— fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Odamlarning muloqot jarayonida so'zlardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohanglardan ham foydalanadilar. Mimika, ko'z qarashlar, ishtirokchilar (pauza) ifodalari va hakazo.

Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi, 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. Bularning barchasi odamlarning bir-biri bilan muloqoti va bir-birlariga bo'lgan munosabatlari davomida kuzatilgan ekan. Bu noverbal muloqot vositalarining milliy va hududiy xususiyatlari bor. Masalan o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarning bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolgarlar biror fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini chayqashar, inkor etmoqchi bo'lishsa, bosh siltashar ekan.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham ahamiyatga ega: Masalan, ayollar hissiyotga berilganligi uchun bir – birlari bilan yaqin turib gaplashar ekanlar, erkaklar o'rtasida masofa bo'lar ekan.

O'quvchilarni partada orqama – ketin o'tkazgandan ko'ra doira shaklida o'tkazilsa, ularda javobgarlik hissi yuqoriroq bo'lar ekan, chunki emostiyalar almashgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir – birlariga munosabatlari ancha yaxshi bo'lar ekan.

Demak ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq nutq madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'qitish choralari ko'rish zarur. Pedagog ham chuqur nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak.

1. Muloqotning interaktiv tomoni – kishilarning birgalikdagi faoliyatda bir – birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari. Hamkorlikda ishlash, bir – birlariga yordam berish, bir – birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarni namoyon qilish mumkin.

Odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari xulq –

atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun qoidalaridir. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xatti – harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib tasavvurlar, xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini boshqa birov bilan solishtirish, masalan: 1 – marta uchrashuvga ketayotgan yigitning holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya – muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasida turib, o'zini tasavvur qilishdir, o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir. Masalan: guruhdoshingizdan biriga kuylagi yarashmaganini aytish mumkin, 2-chisiga aytam kuyyapti deb o'ylaydi deysiz.

Stereotipizatsiya – odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish, bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalishini ta'minlansa, ba'zan xatoliklarga sabab bo'ladi. Masalan: qizlarning shim kiyib yurishi yoki velosiped minishi. Ko'pchilik bunday qizlarni odobsiz deb o'ylaydi, bu noto'g'ri, albatta.

Ba'zan kishini tashqi qiyofasidan uning xarakterini aniqlaydi. M: shunday tajriba o'tkazilgan: talabalarga turli qiyofadagi kishilarning rasmi ko'rsatilgan, ular iyagi katta kishilar kuchli irodaga ega, peshonasi keng odamlar-aqlli, sochi qattiq odam qaysar, bo'yi past odam hokimiyatga intiluvchi, chiroyli odam o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishi aytilgan. Bular albatta, to'g'ri emas. Lekin kishilarning ongida avloddan avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Natijada odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida bo'lgan ma'lumot katta rol o'ynaydi. M: Bodalyova talabalarining 2 guruhiga 1 odam portretini ko'rsatib, uni 1-guruhga –jinoyatchi, 1-guruh talabalariga esa olim deb tanishtirgan.

1-guruhdagilar uning ko'zlarini yovuz, beshafqat desa, 2-guruhdagilar uning ko'zlarini dono, muloyim deyishgan.

Odamlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, qiliqlari, yurishi va h. k. ishlarining ichida odamning so'z muloqot manbai suhbatdoshiga eng ko'p ma'lumot beradi.

Odamning bir - birlarini to'g'ri anglashlari idrok (asosiy bilish) sohasiga aloqador, bir-birlarini tushunishlari esa ularning tafakkur sohasiga aloqador, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri

tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi. Ya'ni unda empatiya- birovlarining his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Yuksak ongli, madaniyatli, «ko'pni ko'rgan» shaxsgina boshqalarni to'g'ri tushunishi, ularning mavqeida tura olishi mumkin.

Psixoliklar turli muloqot vaziyatlariga duch keladilar va har bir vaziyatda ulardan o'tkir did, odob kishilarning psixologiyasini bilgan holda ularni to'g'ri tushunish malakasi talab qilinadi. Bo'lg'usi psixolog bu borada quyidagi qonuniyatlarni bilishi kerak:

1. Birinchi ko'rgan odam haqida faqat birlamchi tasavvurgina bo'lishi mumkin;

2. Biror kishi haqida berilgan malumotga asosan muayyan fikr hosil qilish oson, lekin uni o'zgartirish qiyin;

3. Intellekt juda yuqori bo'lsa ham, juda past bo'lsa ham boshqa odamni tushunish qiyin;

4. Maxsus tayyorgarlik bo'lishi kerak. Tajribada 5-kurs psixologlari bilan rassomlarni odamlarga bergan bahosi solishtirilgan, rassomlarni bergan bahosi aniqroq bo'lib chiqqan;

5. Bir odamning baholash topshirig'i berilganda og'riqni boshdan kechirayotgan odamlar unda johillik sifati bor deb baholaganlar, yaxshi holatda bo'lganlarida esa xuddi o'sha odamni yaxshi sifatlarga ega deb aytganlar demak, biror kishiga baho berish - odamning emosional holatiga ham bog'liq ekan;

6. Shaxsning ochiqligi ya'ni ochiq, samimiy odamning bergan bahosi bilan tund va pisman odamning baholari o'rtasida sifat jihatidan farq bo'lishligi aniqlangan.

Xulosa, bo'lg'usi psixologlardan psixologik bilimdonlikni talab etadi. Buning ijtimoiy psixologik treninglar yordamida amalga oshiriladi odamlarda muloqot malakalari hosil qilinib, ular turli ijtimoiy sharoitlarda o'zini to'g'ri tutishga odatlantiriladi. Boshqacha aytganda, trening muloqotga o'rgatishdir.

Muloqotga o'rgatish hozirgi zamon kishisining turli ishlab chiqarish va muomala sharoitlarida to'g'ri moslashishga yordam beradi.

Buning uchun maxsus tayyorgarlik guruhlari yoki trening guruhlari tashkil etishni psixologlar taklif etishgan.

Qarbda shu maqsadda tajriba guruhlar tashkil qilinib, muloqot jarayonida qiyinchilik his etayotgan kishilar taklif etilgan. Ijtimoiy

psixologik treningning asosiy usullari - guruhiiy munozaralar, roli o'yinlar, psixolik sezgirlikni oshiruvchi treninglardir. Trening guruh a'zolari 7-15 kishigacha bo'lib mashg'ulotlar bir necha kundan bir necha oylargacha davom etadi. Ularning muloqot manbayida o'zini «o'zgalar» o'rniga qo'yish, ularning ichki olamini to'g'ri tushinish qobiliyati va istagi tarbiyalanadi.

Ijtimoiy psixologik treninglarga qo'yiladigan talablar:

1. Munozara yoki o'yinlar jarayonida har bir ishtirokchi vaziyatni yoki rolni faol o'zlashtirib, har bir holatdan o'zi uchun xulosa chiqarishga olib kelish zarur;

2. Tajriba guruhlarida muloqotning nutq shakllaridan tashqari, nutqsiz-noverbal shakllari ham keng qo'llanishi, ya'ni har bir ishtirokchi (o'rganuvchi) har bir harakat, ritmning mohiyatini ham tushunib uni hayotda ishlatishga ham erishish zarur;

3. Har bir ishtirokchi kundalik yuritib, uni har galgi mashg'ulotlardan so'ng o'ziga his kechinmalari, muommolarni echishdagi shaxsiy ishtiroki, tasavvurlarini odilona yozib borishi muhimdir;

4. Tajriba guruhga qatnashish ixtiyoriy bo'lganligi uchun, har bir a'zo mashg'ulotlarni qoldirmaslikka harakat qilishi zarur, chunki bu a'zolarining o'zaro munosabatlariga, guruhning muhitiga bevosita ta'sir qiladi;

5. Mashg'ulotlar maxsus xonalarda, shovqin surondan xoli erda tashkil etilishi, shinam bo'lishi kerak;

6. Mashg'ulot o'tkazuvchi trener- maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, xushmuomala, did bilan kiyingan, o'z kayfiyati yoki o'yinga shaxsiy munosabat bilan mashg'ulotlarning tabiiy kechishiga xalaqit bermasligi, sabr-toqatli, madaniyatli bo'lishi zarur.

Mashg'ulotlarni «yumaloq stol» yoki «to'rtburchak» stol atrofida gilam ustida, ba'zan tik turgan holda ham o'tkazish mumkin.

Hozirgi davrda tajriba guruhlar rahbarlarni muloqotga tayyorlash, ma'sul shaxslarni qayta tayyorlash kurslarida, psixologlar davrasidagina o'tkazilmoqda. Muloqotdagi bilimdonlik barcha mutaxassislarga zarur.

Amaliy psixolog xoh maktabda bo'lsin, xoh sanoat korxonasida yoki boshqa o'quv yurtida bo'lmasin, mahalliy sharoitni chuqur o'rgangan holda, u erdagi rahbariyat bilan kelishib, tajriba guruhlar tashkil etmog'i va ham o'zining, ham atrofdagilarning bilimdonligini

oshirib bormog'i zarur.

Fan amaliyotga - degan tamoyil bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Chunki yoshlarni mustaqil davlatimiz ma'naviy negizlarini teran anglashga o'rgatish va ularni ma'rifatga chorlash jarayonida qator tadbqiqiy vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Ilm-fan taraqqiyotini uzoq davri shu bilan tavsiflanadiki, olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun qoidalarni sharhlash, tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyotini yoritishga o'rganishlari ko'p uchraydi. Bu qoida pedagogika va psixologiya fanlariga ham tegishli.

Bugun biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlatuvchi, uning davr va kishilar xulqiga hamohang tarzda ketishini ta'minlab beruvchi tadbqiqiy ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Mamlakatimizda ro'y berayotgan tub ijtimoiy siyosiy islohotlar shuni talab qilmoqda.

Dolzarb muammolardan biri - yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, ularni yangicha demokratik munosabatlarga ruhiy jihatdan tayyorlashdir. Ma'naviyat sohasidagi islohotlar yoshlarda o'z salqining madaniyati, Vatanning o'tmishi va buguni, milliy qadriyatlariga to'g'ri munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va bu - ziyoli, bilimdon kishilar uchun eng zarur fazilatdir.

Aks holda, olam sir asrorlarini chuqur bilgan, qiziqishlari doirasida jiddiy izlanishlar olib borishga tayyor shaxs, agar u, bu bilimlarini avvalo o'z xalqi, millati, yaqinlari manfaatiga yo'naltira olmasa va uning jamiyat taraqqiyotiga aloqasini tasavvur qila olmasa, ma'naviyati qashshoq, iqtidori esa samarasiz xudbin shaxs sifatida baholanadi.

2.5. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tahlili

Sinf rahbarlari uchun darsga ijobiy munosabatni shakllantirishda o'quvchilarga zamonaviy yondashuvlar asosida ta'sir etishni aniqlash maqsadida tavsiya etilgan test savollari va ularning javoblari tahlili:

1. Sinf rahbari bo'lish uchun o'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak deb o'yaysiz? degan savolga respondentlardan 47,1 % etarli pedagogik va hayotiy tajribaga ega bo'lish, 31,3 % etarli

tajribaga ega bo'lish va o'quvchilarni sevish, 21,6 % esa sinf rahbari bo'lish uchun o'quvchilarni sevish kerak, degan javobni berganlar.

Bundan ko'rinadiki, respondentlarning aksiriyat qismi sinf rahbari bo'lish uchun qanday intellektual sifatlarga ega bo'lish zarurligini aniq tasavvur eta bilmaydilar. Faqat bolalarni yaxshi ko'rish bilan sinf rahbari amalga oshirishi lozim bo'lgan juda katta va mas'uliyatli tarbiyaviy ishlarni bajara olmaydilar. Shuning uchun ham aksariyat sinf rahbarlari faoliyatlari talabga javob bermaydi. Maktab rahbarlari tajribali o'qituvchilar orasidan sinf rahbarlarini tayinlashga alohida e'tibor berishlari zarur. Ular bilan qo'shimcha o'quv seminarlari tashkil etish va o'z ustida mustaqil ishlashni yo'lga qo'yish maktab rahbarlariga katta mas'uliyat yuklaydi. Sinf rahbarlari uchun metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish, ularni metodik qo'llab-quvvatlash zarur.

2. Sinf rahbari o'quvchilarning DTS talablari darajasida BKMLarini egallashlari uchun javobgarmi? degan savolga sinf rahbarlarining 43,7% to'la javobgar, 51,3 % esa "Ta'lim to'g'risida" gi qonun talablari asosida javobgar, deb o'ylaydilar. 5,0% respondentlar javob berishga qiynalishgan. Tahlillardan ko'rinadiki, javoblar mantiqan to'g'ri, lekin o'qituvchilarda ikkilanishlar ham mavjud.

3. Sinfidagi intizomsiz, to'polonchi bolalar qanday paydo bo'ladi, ularning kelib chiqishi sabablarini qanday izohlaysiz? degan savolga 53,2 % sinf rahbarlari to'polonchi bolalarning kelib chiqishiga oila aybdorligini, 43,7 % sinf rahbarlari dars intizomigaga nisbatan salbiy munosabatning kelib chiqishiga tajribasiz, loqayd o'qituvchilarning o'quvchilarni qo'lga ola bilmasliklari oqibatida, 1,9 % esa tug'ma to'polonchi bolalar bo'lishi, 1,9% javob berishga qiynalgan.

Olingan javoblardan ko'rinadiki, ko'pchilik (65,9%) sinf rahbarlari dars intizomiga salbiy munosabatning kelib chiqishiga faqat ota-onalarni ayblash bilan chegaralanib qolganlar. Ular sinf rahbari sifatida o'zlarining to'la burch, vazifalari mas'uliyatlarini his qilmaydilar. Ota-onalar bolalarini maktabga mo'min-qobil, tartib-intizomli qilib yuborishlarini istaydilar. Bir toifa (24,1%) sinf rahbarlarining fikricha bolalardagi salbiy munosabatga o'qituvchilar tomonidan o'qitayotgan faniga nisbatan bolalarda qiziqish uyg'ota olmasliklari asosiy sabab deb o'ylaydilar. Sinf rahbarlari (10%) orasida "tug'ma to'polonchi bolalar bo'ladi" deb fikr yuritishlari ajablanarli holdir. Demak, bun-

day toifadagi sinf rahbarlari faoliyatlarini chuqur tahlil etish va xulosa chiqarish muhimdir.

4. Sinfingizdagi hamma o'quvchilarning ota-onalarini va ularning ijtimoiy kelib chiqishlari bilan shaxsan tanishmisiz? degan savolga 91,2 % sinf rahbarlari "Hammasini taniyman, uy sharoitlari bilan yaxshi tanishman" deb javob berganlar, faqat 1,9 % sinfda o'quvchilar soni ko'p qanday ulguraman, 7,6% chalaroq tanishganman" degan javobni bergan. Yuzaki qaraganda javoblardan qoniqish mumkindek ko'rinadi, aslida javoblarning soxtaligi maktab va oila o'rtasidagi bir qator tadbirlarga ota-onalarning ishtirok etmasligi, o'z vaqtida maktabdan berilgan tavsiyalarni bajarilmasligi, ota-onalarning loqaydligiga nisbatan sinf rahbarlarining befarqliklari kabi jihatlarda yaqqol ko'rinadi.

5. Sinfingizda kam ta'minlangan, nochor oilalardan o'quvchilar bormi, ularga munosabatingiz qanday? deb berilgan savolga javoban 89,3 % sinf rahbarlari "Ha, bor, ular bilan alohida shug'ullanaman", 7,6 % esa "Hech kim menga nochorman demagan", 1,8% "unday o'quvchilar yo'q", deb o'z munosabatlarini bildirganlar. Sinf rahbarlari orasidan oz bo'lsada mehr-muruvvat ishlarini ikkinchi darajali deb o'ylaydigan, o'zi mas'ul bo'lgan sinf o'quvchilarining taqdirlariga nisbatan befarqlik hukm surayotganligi achinarli holdir.

6. O'quvchilaringizning hammasi oiladan har kuni dars mashg'ulotlariga ko'tarinki kayfiyatda keladilarmi? Ushbu savolga javoblar quyidagicha: 41,8 % sinf rahbarlari "Ota-onalar darsgacha bolalarini boshqa ishlarga jalb qiladilar", 43,7 % sinf rahbarlari "Ayrim o'quvchilar darslarga tushkin kayfiyatda keladilar, ba'zilar uxlab ham qoladilar", 15,2% esa javob berishga qiynalishgan.

Javoblar tahlilidan kelib chiqadigan xulosalar to'g'risida tavsiyalar berilishi lozim.

7. Sinfingizda o'quvchilar davomati barqarormi, o'zlashtirishi-chi? Javoblar: "Davomatni to'liq bo'lishi uchun kurashaman, ota-onalar bilan bu masalada ko'p gaplashaman" so'rovga ishtirok etgan sinf rahbarlarining 89,3 % shunday javob berganlar. 9,5% "Davomat turlicha bo'ladi, ayrim o'quvchilar surunkasiga kechikib keladi", 1,8% "Darsga o'tira olmaydigan o'quvchilar ko'proq dars qoldiradi", degan javoblarni berganlar. Afsuski, aynan o'sha maktablarda ta'lim samaradorligi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

8. Sinfingizda kasalmand bolalar bormi, kasallik sabablarini

bilasizmi? Ushbu savolga 53 respondentdan 6 nafari (11,4%) "kasalmand bolalar borligini aniqlaganim yo'q", 3 nafari (5,7%) savolga umuman munosabat bildirmagan, 2 nafar respondent (3,8%) "men harakat qilaman, ota-onasi loqaydlik bilan qaraydi", qolgan 79,8 % "Kasalmand bolalar bor, ota-onalari bilan gaplashganman" degan javobni berishgan. Ko'rinadiki, oz bo'lsada sinf rahbarlari tomonidan kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'yilmoqda, o'sha oilalardan o'quvchilar dars intizomini buzishmoqda.

9. Maktab psixologi o'z vazifasini mukammal bajaryapti deb hisoblaysizmi? Ushbu savolga berilgan javoblar bilan tanishib, nahotki shunday bo'lsa, deb o'ylaysan. Qarang, 50,2 % sinf rahbarlari "Maktab psixologi o'z vazifasini bajarayotgan bo'lsa kerak", deb taxmin qiladilar. 24,7 % esa "Psixolog juda harakatchanga o'xshaydi, lekin natija o'zgarmayapti" deb hayron bo'ladilar. 19,0 % esa "Psixolog mutaxassis emas, bu vazifani uddalay olmaydi" degan javobni bergan. Bu shundan dalolat beradiki, maktablarda boshqaruv tizimi talablar darajasida ishlamaydi. Maktab rahbarlari har bir bo'g'in xodimlari ishini qat'iy nazorat qilmaydi. Sinf rahbari o'z holicha, psixolog o'z holicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanadigan direktor o'rinbosari esa ular ishini nazorat qilmaydi. Maktabda o'qituvchilar, sinf rahbarlari psixologning vazifasi nimadan iborat ekanligini aniq-tiniq tasavvur eta olmaydilar. Xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarning ruhiy olami ko'p hollarda nazardan chetga qolib ketadi. Dars intizomiga salbiy munosabatni keltirib chiqaruvchi omillar o'rganilmaydi, o'quvchilarning ruhiy holatlari, sog'liklari doimiy ravishda nazorat ostiga olinmaydi.

10. Psixo-fiziologik rivojlanish deganda nimani tushunasiz? Sinf rahbarlarining 62,7 % "Agar bolada aqliy va tana tuzilishi jihatidan rivojlanishda nuqsoni bo'lsa, u fanlarni o'zlashtira olmaydi" deb hisoblaydilar. 24,7 % esa "Psixo-fiziologik rivojlanish – bu ruhiy va jismoniy rivojlanish" ekanligini e'tirof etadilar. Ammo, ularga qanday e'tibor berish kerakligi haqida lom-lim demaydilar, 13,3 % "O'quvchining o'zlashtirishi sog'ligiga bog'liq emas", deb ayanchli javobni berganlar.

11. Tug'ma nuqsonli yoki kasalmand bolalar bormi, agar bo'lsa ular o'quv jarayoniga qanday ishtirok etadilar? Bu savolni berishdan ko'zda tutilgan maqsad sinf rahbarlari qanchalik darajada o'quvchilarining salomatliklarini kuzatishlarini aniqlash edi. Javoblar

esa quyidagicha: 53,2 % sinf rahbarlari tug'ma nuqsonli, kasalmand bolalar borligini bilishadilar. 38,0 % esa "Yo'q, unday o'quvchilar sinfda mavjud emas"ligini, 7,6 % esa "hozircha aniqlanim yo'q", 1,9 % javobni ochiq qoldirgan.

12. Ota-onalarning farzandi tarbiyasiga loqaydliklari sabablarini qanday izohlaysiz? Bu savolga javoblar quyidagicha: 49,4 % sinf rahbarlari ota-onalarning farzandi tarbiyasiga loqaydliklari sabablarini ularning tarbiya sohasida malakalari etarli bo'lmaganligidan, 32,3 % esa ota-onalarning maktab bilan aloqalari yomonligi nuqbatidan, 15,2 % esa "Ota-onalarning tajribasizligi" deb biladilar. Har ikkila javobda ham sinf rahbarlari o'zlaridan mas'uliyatni qochirishga harakat qiladilar. Holbuki, sinf rahbari o'quvchining barkamol shaxs sifatida shakllanishida ota-onadan keyingi shaxs ekanliklarini unutib qo'yadilar.

13. Qanday qilib ota-onalarga mas'uliyat hissini singdirish mumkin? Javoblar shunday: 47,5 % respondentlar "Ota-onalarning ma'lumotlilik darajasiga qarab ularni toifalarga ajratish va ular bilan ishlash kerak" degan haqiqatga yaqinroq javbni berishgan. Qolgan 49,4 % esa "Sinf majlislarida ularning hisobotlarini eshitish kerak"ligini, (3,8 %) "Bolasining kelajagini o'ylasa, o'zi bir kun insofga kelib qoladi" deyishdan ham tortinmagan.

14. Dars intizomiga salbiy munosabatning shakllanishida sizningcha kimlar aybdor, ota-onalarmi yoki o'qituvchilar? Javoblar esa quyidagicha: 72,2% respondentlar dars intizomiga salbiy munosabatning shakllanishida "Har ikkalasi ham", ya'ni o'qituvchilar va ota-onalar ham aybdor ekanliklarini tan olganlar, 19% esa faqat ota-onalar aybdorligini, 9,5 % "Kim aybdorligini bilmayman", deb javob berganlar.

15. Ota-onalarning pedagogik va psixologik ma'lumotlarini oshirish uchun maktab jamoasining vazifalari nimadan iborat? Bu savolga javoblar quyidagicha: respondentlardan 15,2 % ota-onalarni bola tarbiyasi bo'yicha pedagogik va psixologik savodxonliklarini oshirish kerakligini, 79,8 % esa tajribali ota-onalarning ilg'or tajribalarini ommalashtirish zarurligini e'tirof etganlar. Javobsiz qolgan 5,7%.

Xulosalar:

• Sinf rahbarlari uchun qisqa muddatli maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz;

- Sinf rahbarligiga katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilardan, imkon qadar erkak o'qituvchilardan tayinlash lozim;
- Ota-onalar bilan sinf rahbarlari o'rtasida uzviy aloqani joriy etish, ota-ona va sinf rahbari mas'uliyatini talablar darajasida oshirish;
- Maktab psixologlarini mutaxassis kadrlardan iborat bo'lishiga erishish, ular faoliyatlarini qat'iy nazoratga olish;
- Maktabda ota-onalar uchun sinf rahbarlari boshchiligidagi doimiy harakatdagi seminar-o'quvni o'quv yili davomida tashkil etish;
- Ota-onalarning ishlaydigan tashkilot, muassasa va korxonalar rahbarlari yoki yashash joyidagi mahallalar orqali zaruriy vaqtlarda ularning maktabga kelishlarini ta'minlash;
- Sinf o'quvchilarining salomatliklarini muhofaza qilish uchun psixolog va tibbiy xodimlar faoliyatlarini nazoratga olish va faollashtirish;
- Ota-onalarning farzandlari tarbiyasida mas'uliyatlarini oshirish maqsadida huquqni himoya qiluvchi organlar yordamiga tayanish;
- Dars intizomiga salbiy munosabatning shakllanishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'quvchilarning oilaviy sharoitlari bilan yaqindan tanishish, zaruriy hollarda ota-onalarga amaliy yordam berish;

Shuningdek, maktab o'qituvchilari bilan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tahlili

1. Siz dars beradigan sinfda dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bormi? Ushbu savolga o'qituvchilarning 61,5 % "Ha, bor, ular sinf o'quvchilarining 1,0 dan 10,0 % gachasini (bunda kimdir 1,0, kimdir 2,0 va h.k.) tashkil etadi" deb javob berdi. 25,5 % o'qituvchilar "Bunday o'quvchilar men dars beradigan sinflarda yo'q", 6% esa "Salbiy munosabatni o'zi nima?" deb savolga –savol bilan javob berganlar. 3,0 % javob bermagan. Javoblardan shunday xulosa chiqadiki, aksariyat (61,5 %) o'qituvchilar o'zlarining ko'p yillik tajribalariga asoslangan holda sinflarda bunday o'quvchilar borligini, dars jarayonida ular bilan alohida ishlash lozimligini biladilar. 25,5 % o'qituvchilar esa bunday o'quvchilar dars beradigan sinflarida yo'qligini e'tirof etganlar. Yoki 3,0 % savolga javob berishga mantiqan yondasha olishmaganlar. Demak, so'rovga ishtirok etgan o'qituvchilarning 37,5 % (25 nafari) tajribasizlik yoki loqaydlik tufayli masalaning mohiyati yuksak ahamiyatga ega ekanligini anglamaganlar.

2. Bunday salbiy oqibatning kelib chiqish sabablarini qanday

izohlaysiz? Savolga javoblar quyidagicha: o'qituvchilarning 75,35 % "O'quvchi fikrini bir joyga to'play olmaydi, uni qandaydir muammo qiyinayotgan bo'lsa kerak" ligini, 24,66 % "Salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga ota-ona aybdor"ligi, 4,11 % esa "Sababini bilmayman" kabi javoblarni berganlar. Xulosa qilish mumkinki, o'qituvchilar ko'p hollarda o'quvchilarning qalbiga quloq solmaydilar, o'sha "qiyinayotgan muammo" ni aniqlash va o'quvchiga yordam berish uchun bosh qotirmaydilar. Hatto, o'quvchidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni "bilmasligi" bilan o'zlarining haqiqiy pedagog emasliklarini tasdiqlayaptilar. Buning oqibatlari esa jamiyat uchun yanada katta manaviy-mafkuraviy tashvishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

3. O'sha o'quvchilarning oila a'zolari kimlardan iborat, ularni tanitsizmi? Bu savolga javoblar: o'qituvchilarning 80,8 % o'quvchilarning oila a'zolarini tanishi, yaxshi oila ekanligi, ammo botalari o'yinqaroq ekanligini, 5,5 % oila a'zolarini tanimasligini, qiziqib ko'rmaganligini, 12,3 % esa o'quvchining onasi o'gayligi, unga nisbatan e'tiborning kamligini, yana 5,5 % respondentlarimiz hatto, savolga nisbatan munosabat bildirishni ham o'zlariga ep ko'rmaganlar. Xulosa shuki, aksariyat hollarda o'qituvchilar faqat dars berish, o'quvchiga bilim berish bilan chegaralanib qoladilar, ta'lim berib tarbiyalash keyingi o'ringa tushib qoladiganga o'xshaydi.

4. O'quvchilarning oilaviy sharoitlari bilan tanishmisiz, uyda dars tayyorlash uchun etarli sharoitlar yaratilganmi? Javoblar quyidagicha: respondentlarning 61,6 % o'quvchining uyida hamma sharoiti borligi, hattoki, kompyuteri ham, lekin o'qishda oqsashi, 20,5 % o'quvchining uy sharoitlari bilan tanish emasligi va bilmasligini tan olganlar, 15,1 % esa o'quvchining o'zlashtirmaslik sabablarini o'quv jihozlari va darsliklari etarli bo'lmaganidan deb o'ylaydilar, shuningdek, 2,74 % (2 nafar) savolga javob bermagan. Tahlillar shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar bilan sinf rahbarlari va ota-onalar o'rtasida uzviy bog'lanish yo'q, hammaning o'z holicha qilgan harakatlari etarli darajada samara bermayapti.

5. O'quv jarayoniga nisbatan salbiy oqibatning kelib chiqishida ota-onalarni aybdor deb hisoblaysizmi? Bu savolga: 50,7 % o'qituvchilar ko'proq ota-onalar aybdorligini, 32,9 % javob berishga qiyinalishi, 16,4 % esa "Ota-ona ham nima qilsin, ertadan-kechgacha o'qilasa, hammasi bolaning o'zidan" deb farzand tarbiyasiga asosiy

javobgar bo'lgan ota-onalarni himoyalash orqali jamiyatni rivojlantiruvchi barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga befarqliklarini izhor etadilar.

6. O'quvchining ruhiy va fiziologik jihatdan rivojlanishida nuqsoni

bor-yo'qligi bilan qiziqdingizmi? Javoblar: 58,9 % o'qituvchilar boladagi nuqsonlar haqida uning ota-onasi bilan gaplashganligini, ota-onalar esa bu murojaatni og'rinib qabul qilganliklarini bildirganlar. 30,1 % shunchaki maktab psixologiga murojaat qilganligi, keyin natijasini surishtirmaganligini, 5,5 % "Yo'q, qiziqmadim, bu mening ishim emas", yana 5,5 % savolga umuman munosabat bildirmagan. Xulosa shuki, o'qituvchilar, ota-onalar va maktab psixologi ham o'ta jiddiy hisoblangan masala bilan yuzaki, engil-elpi shug'ullanib keladilar. Bunday holatni yuzaga keltiruvchi sabab ta'lim-tarbiya muassasasida zamonaviy boshqaruv tizimi mavjud emasligi, maktab rahbarlarining muassasani ilmiy-metodik asosda boshqarish mexanizmlaridan foydalana bilmasliklari oqibatidir.

7. Maktab psixologi bilan shu masalada fikr almashdingizmi? Javoblar turlicha: so'rovga qatnashganlardan 63,0 % bola to'g'risida psixolog bilan suhbatlashib, o'quvchining ota-onasiga xabar qilishga kelishganligi, 20,5 % esa "Maktab psixologi mutaxassis emas, bunday masalalarni ijobiy hal qila olmaydi", 8,2 % o'quvchini mutaxassis – psixoterapevtga ko'rsatish va davolatish kerakligi, yana 8,2 % savolga munosabat bildirmaganligini ko'rish mumkin. Bu savolga berilgan javoblardan shunday xulosa kelib chiqadiki, maktablarda ishlayotgan nomutaxassis psixologlarni tezda almashtirish choralarini ko'rish, tajribali mutaxassis psixologlar bilan ta'minlashni hal etish joiz.

8. O'quvchining darsdan bezishida o'qituvchilarning ham aybi bor deb hisoblaysizmi, nima uchun, izohlab bering? Javoblar: 57,5 % ishtirokchilar tajribasiz o'qituvchilar qo'pol muomala qilib, o'quvchini bezdirib qo'yishini, 30,1 % "Bilmadim, o'qituvchi jon kuydirib dars o'tsa, yana nima qilsin" deb o'ylaydilar. 12,3 % esa o'quvchining darsdan bezishida o'qituvchilarning aybi yo'qligi, bunga faqat ota-onalar aybdor ekanligini qayd etadilar. Savol tug'iladi, o'quvchining darsga o'tirgisi kelmasa ota-onaning aybi nimada, bu haqda o'qituvchilar chuqurroq o'ylab ko'rishlari kerak.

9. O'quvchini bilim olishga qiziqtirish uchun qanday choratadbirlarni qo'llash lozim deb o'ylaysiz? Javoblar: 75,3 %

"O'qituvchi mahorat bilan dars o'tishi lozim", 16,4 % o'qituvchi o'quvchini o'ziga yaqin tutishi kerakligi, 6,8 % qo'shimcha darslarni tashkil etish lozimligi, bir nafar (1,5 %) o'qituvchi savolga o'z munosabatini bildirmagan.

10. Darsdan bezigan bolalarni qayta tarbiyalashda ota-onalarning yordamisiz amalga oshirish mumkin deb hisoblaysizmi? Javoblar quyidagicha: 61,6 % darsdan bezigan bolalarni ota-onalarning aralashuvsiz qayta tarbiyalashning iloji yo'q deb o'ylaydilar. 30,1 % o'qituvchilar qattiqqo'llik, ya'ni avtoritar usulida qayta tarbiyalash mumkin deb hisoblaydilar. 6,9 % esa bolaning o'zi sholamasa qayta tarbiyalashning iloji yo'qligini e'tirof etganlar. Bir respondent savolga javob berishni lozim ko'rmagan.

Izoh: anketa so'rovlariga 66 nafar o'qituvchilar ishtirok etib, berilgan savollarga o'z munosabatlarini bildirganlar.

Xulosalar:

1. O'qituvchilar malakasini oshirish dasturiga "O'quvchilarda darsga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish – ta'lim samara-dorligi omili" mavzusida kurs ishi tayyorlashni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Bo'lajak o'qituvchilar, ya'ni talabalarga xuddi shu mavzuda kurs ishi yozishni yo'lga qo'yish kerak.

3. Olib borilgan tajribalardan ma'lum bo'ldiki, barcha o'qituvchilar ham etarli pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega emas. Shuning uchun maktabda ushbu masalaga doimiy e'tiborni qaratish, seminar-treninglar o'tkazish, tavsiyalar va metodik maslahatlar uyushtirish juda zarur deb hisoblaymiz.

4. Tuman metodika markazi tomonidan o'qituvchilar uchun amaliy va metodik yordamni kuchaytirish zarurati mavjud deb hisoblaymiz.

5. O'qituvchilar bilan ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik pedagogikasini qat'iy yo'lga qo'yish, ota-onalar mas'uliyatlarini oshirish zarur.

6. Mahalla institutining tarbiya borasidagi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, farzandlari yaxshi tarbiya topmagan va darslarga muntazam qatnashmayotgan ota-onalarga ta'sir o'tkazish.

7. Korxonalar, zavod-fabrikalar, muassasa, tashkilot rahbarlarini o'z kodimlari farzandlarining ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uliyatlarini kuchaytirish. Ish joyida bir chorakda bir marta "Kimning farzandi maktabda qanday ta'lim-tarbiya olyapti?" mavzusida yig'ilishlar

o'tkazish, namunali xulq-atvorga ega bo'lgan farzandlari uchun ota-onalarni imkon qadar moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, aksincha bo'lsa chora ko'rish, ota-onalar doskasini tashkil etishni yo'lga qo'yish.

8. Kam ta'minlangan oilalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, noqobil oilalarda yashaydigan o'quvchilarni alohida nazoratga olish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash, sinfdoshlari tomonidan kamsitmaslikka e'tibor berish.

9. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar oilalari bilan yaqindan tanishish, ularga yaratilgan sharoitlar, darslik va o'quv qurollari bilan ta'minlash choralari ko'rish.

10. O'qituvchilarning maktab amaliy psixologi bilan hamkorlikdagi ishini samarali tashkil etish mexanizmlarini joriy etish.

11. O'qituvchilarning sinf ota-onalar majlislarida ishtirok etishlarini ta'minlash, o'zi dars beradigan predmeti yuzasidan u yoki bu o'quvchining dars intizomiga rioyati yuzasidan axborot berib borishini tashkil etish.

12. O'quvchilarning salomatliklarini doimiy nazoratga olish, ularga noo'rin tanbeh berib, izza qilmaslik choralari ko'rish maqsadga muvofiqdir.

13. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni dars jarayoniga etarli darajada jalb eta olishi, fanlarga qiziqtirish, qo'shimcha dars mash-g'ulotlarini tashkil etish singari tadbiriy choralarni ko'rish yaxshi natija berish shubhasizdir.

Xulosa qilish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'z ustilarida mukammal ishlab, o'quvchilarda dars intizomiga nisbatan yuzaga keladigan salbiy munosabatlarni o'z vaqtida tashxislash, profilaktika va korreksion ishlarni olib borishlari nihoyatda muhim va shart hisoblanadi. Yangi O'zbekiston sharoitida bu talablar yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

III. BOB. BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'RNI

3.1. Yoshlarni oilada ma'naviy etuk qilib tarbiyalash mezonlari

Barkamol axloq va yaxshi xulq, birdaniga paydo bo'lmaydi. Xalq axloqiy mezonlari ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, quyoshi, havosi, bulog'u- daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan. Bu rishtalar sudi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, adab maktabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro'si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg'ularini o'yg'otadi; ana shundagina millat o'z o'tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siymosi avlodlar yo'lini shamchiroq, yanglig' yoritib boradi.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o'qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxirigacha ijro etib bo'lmaydi. Bu xalq, millat hayoti, takdiri, urf-odatlaridir.

Mustaqillik – tug'ilgan insonlar tillarini biyron qilib yubordi, egilgan bilaklarga kuch berdi, orzumand nigohlarga nur bag'ishladi, taffukur ufqini kengaytirdi, mil-lat taqdiri va insoniy ideallar qismatini adolat va istiqbol tarozisi ustiga qo'ydi.

Har inson o'z qo'shig'ini aytish bilan barobar zamon va millat kuyiga quloq, tutishi ham qarz, ham farz bo'lib qoldi. Shu bois, ba'zi unutilgan yoki odatiy bir yusindagi fazilatlarimiz, axloqu odob sohasidagi bebaho mulkimizni eslash qanchalik ko'ngilni yashnatib yuborsa, zamona zayli bilan xalqimizga kirib qolgan yoki ta'bimizni sira qilayotgan jihatlar shunchalik dilimizga ozor beradi. Vatan - ostonadan boshlanadi. Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash shu oilada shakllanmog'i zarur. Burch - ota-ona oldidagi farzand burchi, farzand oldidagi ota-ona burchi va vazifalari aynan oilada shakllanishiga erishish zarur. Bu o'rinda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik hamkorligini ta'minlash joiz.

Vatanparvarlik hissini o'z farzandi qalbiga singdirolgan ota-onaning, shunday ruh bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir.

Yurtini sevgan, uning porloq, kelajagiga ishongan har bir fuqaro, har bir kishi uchun yurt taraqqiyotiga ulush qo'shish asosiy maqsadga aylanadi.

Darhaqiqat, mamlakatda mavjud 10 millionga yaqin oilalarning aksariyati, aholining 60 foizi qishloqda istiqomat qiladi.

Qishloq aholisiga, oilalarga maishiy va madaniy turmush sharoitini yaratish, qishloqda sanoatni, maishiy xizmat shaxobchalarini olib kirish, zamonaviy maktab, kasalxonalar, poliklinikalar barpo etish va ularni foydalanishga topshirish, aholining, shu jumladan, qishloq aholisining ishsiz qatlami uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash - oila farovonligi, uning iqtisodiy manfaatlarini yuksak saviyaga ko'tarish uchun zamindir.

Oilada kichik oilaviy biznesni yo'lga qo'yish, oilaviy korxonalar, oila pudratini tashkil etish dehqon, fermerlik faoliyatini kuchaytirish oilada tadbirkorlikni, yo'lga qo'yish unda «Ustoz-shogird» an'anasi asosida oilaviy kasanachilik faoliyatidan keng foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari tashkil etish oilada to'kinlik va farovonlikni ta'minlash uchun zamindir. Har tomonlama badastur oilada esa jismonan va ma'nan sog'lom tadbirkor, ishbilarmon, mehnatsevar shaxs shakllanadi va voyaga etadi.

Oilada pedagogikasining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Komil insonni voyaga etkazishda oila va jamiyatni o'rni uni tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir.

Oilada pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta'lim-tarbiyaga doir bilimlar mushtarak holda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, qoidalarining sinovdan o'tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota-onaning faoliyatidir.

Oilada pedagogikasining predmeti:

Ilada ota-ona aniq maqsad qo'yib, o'z ustida ishlash, izlanish tanlangan vosita usullarini qo'llash natijasini ko'ra bilishi tarbiyachilik san'atiga ega bo'lishi lozim:

- Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi;
- Oilada beriladigan tarbiya mazmuni;
- Oilada farzanda tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar;
- Insoniyatni ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand

tarbiyasining uyg'unligi;

• Oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatiga amal qilish;

Oilada pedagogikasining maqsadi.

Oilada tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratiladi.

Oilada tarbiyasining vazifalari:

- Oilada tarbiyasiga doir bir butun muammolarni hal qilish;
- Oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va uning davlatni ustuvor talablariga javob beradigan komil inson tarbiyalashdir;
- Oilada tarbiyasida milliy qadriyatlardan o'rinli foydalanish, pedagogik qonun - qoidalariga rioya qilishdir;
- Fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;
- Ilg'or oilalardagi muvafaqiyatli ish uslublarini o'rganish;
- Ota-onalar farzandlari o'qiydigan ta'lim muassasalari pedagog mutaxassislar bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish;
- Barkamol inson tarbiyasiga doir muammolarni hal qilish har bir ota-onaning jamiyat oldidagi burchi ekanligini his etish, doimiy va hayotiy izlanishlarni talab etadi.

Oilada pedagogikasini boshqa fanlar bilan aloqasi

Oilada pedagogikasi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimga ega bo'lish lozim. Oilada pedagogikasi umumiy pedagogikani bir tizimi bo'lib umumiy pedagogikani qonuniyatlari asosida yaratilgan.

Oilada pedagogikasi quyidagi fanlar bilan aloqada o'sib ulg'aymoqda: oilada pedagogika fani: falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot, anatomiya - fiziologiya, psixologiya-pedagogika, ijtimoiy pedagogika, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat kabilar.

Komil inson tarbiyasi juda ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi sababli hamma fanlar unga ko'makdosh bo'ladi. Buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiy «Tahzib Navomis» (Aflotun qonuniyatlarini mohiyati) asarida inson kamolotini falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shunday ko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odamlar bo'lishlari, qonunlarga ixtiyoriy

bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarini mustahkamlashdir».

Oila pedagogikasining tarixiy ildizlari

Xalq donishmandalari oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: maqol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota – ona, oilaviy barqarorlik o'zaro munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ota – ona behad bo'ladi xursand,
Farzand bo'lolsa munosib farzand!
Javhar Zamindar.
Namozi bomdoddin keyin validangni
Ziyorat qil va xizmatida bo'l.
Rushtiy.

Oila va undagi tarbiya usul, vosita va omillari ko'proq yozma pand-nomalarda; Kaykovusni «Qobusnoma», «Saodatnoma», Zahiriddin Muham-mad Boburning «Boburnoma»si, «To'ti shohnoma», «Odob-noma» kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Mutafakkir va ma'rifatparvarlarni ijodiy faoliyatida oila muammosi asosi o'rin egallagan. Buning sababi bo'lajak Oila pedagogikasi fanini mazmundorligini ta'minlovchi badiiy adabiyot, san'at asarlari, milliy meros va umumiy insoniy qadriyatlaridir.

Oila tarbiyasidagi bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan.

Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi

amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna ko'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Xojib «Qudatg'u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolaning ma'suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda farzandlari xulq atvoriga qarab ota-onalariga baho berishni aytib ularni ogohlantiradi.

Mirzo Ulug'bekning qarashlarida bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Shunday ekan, avvalambor bola tarbiyasida oila muhitini to'g'ri tashkil qilish darkor.

Ussurul maoniy Qayqovus «Qobusnoma» pandnomasida o'z farzandining sening haqingda qanday bo'lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lgil, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzandining ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o'xshaydir» deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e'zozlashga, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadi. Ota-ona o'z farzandi uchun hatto o'linga ham tayyorligini ta'kidlaydi. Har bir farzand oqil va dono bo'lsa, ota-ona mehr-muhabbatini ado etmoqdan bosh tortmaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo'lgan qizini ko'rmog'i, uylanadigan qizining bokira bo'lmog'i hamda to'rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda erdan past va to'rt narsada, husnda va jamolda, xulqda, adabda va iffatda erdan yuqori bo'lishi zarurligini, ta'kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega.

Davoniyning fikricha «Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo'lgan xulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, eyish-ichish, o'z qilmishi uchun ma'suliyatni sezish, shirinsuxand bo'lish, yaxshilik, ogullik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim». Hudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotda ota-onaning

burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Chunonchi ruboiylari zamonasidagi aksariyat odamlar, hatto ma'rifatli zotlar ham farzadlarining tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi.

Buning uchun oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishi mumkin bo'ladi. Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari albatta ota-onasidir.

Ma'rifatparvar Munavvar Qorining «Oila a'zolari» nomli darsligining bo'limlarida ota-onani hurmatlash, aka-uka qarindosh urug'ini e'zozlash kabi g'oyalar alohida o'rin egallaydi.

Kishining bor ersa ota-onasi

g'animatdir unga olarning rizosi

Xudoni qoshida qabul ekandir

Ota va onaning baloga duosi

Oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog'langandir.

Abdurauf Fitrat 1916 yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, unda oilaviy hayotni islohotidan bahs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan.

Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi.

Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto, haloqatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi.

Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim.

Oila odamzod o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan

eng muhim sohadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ma'lum ma'noda izzat hurmat va dildan ishonch kabi chegara bo'ladi.

Oilada bolalarning o'zga bir oilada yotib qolishiga hech bir holda sira yo'l qo'ymasligi kerak, bola yotib qoladigan joy aniq tanish va ishonchli bo'lgan taqdirdagina istisno bo'lishi mumkin. Oilada farzand yaxshi tarbiyalansa, ota-onaning baxti, yomon farzand esa ota-onaga kulfat keltiradi.

Oila va jamoatchilik hamkorligi yosh avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Ota-ona e'tiboriga oladigan alohida ahamiyat berish kerak bo'lgan narsa bolani yoshligidan boshlab biror-bir ishga o'rgatish, unga o'ziga xos yumush berib, ishga odatlantirishdir. Vaholanki bola ham ish o'rganadi, ham jamiyatda, oilada o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bolada mehnatga munosabat, ota-onasiga munosabati, oila a'zolariga nisbatan fikri, dunyoqarashi o'zgaradi.

Oila boshlig'i ota – ona bola tarbiyasi haqida etarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Agar ularda etarlicha bilim bo'lmasa va malaka bo'lmasa u oila a'zosiga ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga xos bo'lmasdan balki qo'ni-qo'shni va mahallalardagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari

Ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq oilaviy muammolarni hal qilish maqsadida tadqiqotchilar tomonidan olib boriladi. Oilaviy muammolarni o'rganish dastlab manba'larga murojaat etiladi shu jihatdan dastlabki metod:

Adabiyotlarni o'rganish metodidir. Oila pedagogikasiga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, Mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sh.Mirziyoev asarlari, risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, badiiy va ommaviy adabiyotlarni o'rganish.

Kuzatish metodi – kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishda ota – ona biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi, Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish

tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish ob'ektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish - qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinos'yomka, video yozuvi, televideniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv - tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Suhbat metodi - tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma'lum mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodasiga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu ham olish mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda anketalar anketa ma'lumotlarini EHMda qo'llab matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning etarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'linishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik eksperiment - har qanday ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperiment asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida yangi o'quv rejalari, dasturlar darsliklar va hokazolar odatdagi o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment - bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo'ladi. Pedagogik jarayon aniqroq

o'rganish uchun eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayoniga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarini, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishini talab etadi. Laboratoriya pedagogik eksperiment ilmiy taqiqotning qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalari aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'rnini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperimentni rejalashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasi ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi;

Tadqiqot metodlarini ishonchliligi;

Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatligini hisobga olish.

Turli metodlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematika metodlarining hamda hisoblash - echish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridian, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amalda qo'llanishi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llashdir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida Yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar oiladagi tarbiya jarayonini takomillashtirish usullari haqidagi bilimlarining ortib borishi bilan ulardan

foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa — da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmuni aniqligi asosiy talablar qatoriga kiradi. Talablar mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallagan kuch g'ayrati mezonining to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishning yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishning metodik yo'l-yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Oila shajarasini o'rgatish tahlil qilish metodi — pedagogika hodisalari va faktlarini tekshirishda oilaning kelib chiqish tarixi mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. Oila haqidagi ma'lumotni tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i lozim.

Bolalarni oilada ijodiy qobiliyatini o'rganish metodi — oilada bolalarni ijodini hamda ularni turli — tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchiliklari bilan ajralib turadi. Ta'lim qonunida va milliy dasturida pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga hamda ularni yanada tarakkiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi — pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish mustaqil O'zbekistonda fan, madaniyat, ta'lim — tarbiyani taraqqiy etishga salmoqli hissa qo'shadi.

Anketalar metodi — oila a'zolari va bolalarni so'rash usuli bo'lib, u oila jamoasining ma'lumotlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollari bo'lib, ularni javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqmog'i lozim.

Oilada bola tarbiyasining ustuvorligi xususida

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy

jabha-larda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo'yiladi. Yurtbo-shimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir». Demak, mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir.

Mamlakatimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigai chora-tadbirlar Davlat Dasturi» ning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan so'ng «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi va hukumatimiz tomonidan keyingi besh yilda bu sohada qabul qilingan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor o'nalishlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

— oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

— oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

— oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

— oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini va madaniy

manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

— oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila

va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

— oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq. etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni huquqiy manfaatlarini qonuniy muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni, etim-esirlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, oila a'zolarining huquqiy savodxonligi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish; har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish; oilaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish; oilada tadbirkorlikni keng yo'lga qo'yish; nogironlikning turli ko'rinishlarini oldini olish chora-tadbirlarini belgilash; oilada komil insonni tarbiyalash; yoshlarni umuinsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida mustaqil hayotga tayyorlash tizimini yaratish va amalga oshirish zamirida oila masalalari bilan shug'ullanuvchi mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari, oila, mahalla, maktab va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash; oilada sog'lom psixologik muhit yaratish zamirida oilada ba'zan uchraydigan jinoyatchilik, nikohning bekor qilinishi, giyohvandlik, nosog'lom e'tiqod, maishiy nopoklik, axloqsizlikning turli ko'rinishlarga yo'l qo'yimaslik kabi masalalar bugungi kunda oilalarni jamiyat talablari darajasida shakllanishi uchun zamindir.

Mamlakatimizda adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustuvorligini ta'minlash zamirida oila a'zolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro konvenstiyalar va deklarastiyalar va boshqa huquqiy hujjatlarning mohiyatini chuqur anglash hamda o'z faoliyatlari ja-

rayonida amal qilishga erishish jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishning garovidir. Buning uchun oilaning turli qatlamli a'zolari huquqiy ongi va dunyoqarashi darajasini o'stirish mexanizmini yaratish va amaliyotga keng tadbqiq etish zarur. Chunki, huquqiy madaniyat darajasi yuksak jamiyatda oila, ona, ota va bola huquq va burchlari hamma vaqt Konstitutstiya bilan himoya qilinib, oila ajrimlariga, oilada uchraydigan sharqona axloq normalariga zid sodir etiladigan ba'zi xatti-harakatlarga yo'l quyilmaydi.

Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo tinchliksevar xalqlarning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning qisqa davri ichida respublikamizda inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, Adliya vazirligi qoshidagi huquqiy yordam ko'rsatish Markazi, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili-Ombudsmanning tashkil etilganligi oila, ota, ona va bola huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamlardir. Inson huquqlarini himoya qilish institutlarining asosiy maqsadi oila deb atalmish kichik jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Mamlakatimizda oila huquqlari xalqaro huquq normalariga mos ravishda muhofaza etilmoqda. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va deklarastiyalarining ratifikastiya qilinishi buning yaqqol namunasidir. Jumladan, Inson huquqlari umumiy deklarastiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217-sonli rezolyustiyasi, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvenstiya (BMT Bosh Assambleyasining 1952 yil 20 dekabrda 640-son rezolyustiyasi), Bir xil qiymatdagi ish uchun erkaqlar va xotin-qizlarga teng haq to'lash to'g'risidagi (100) Konvenstiya (XMT Bosh Konferenstiyasining 34-sessiyasida 1951 yil 29 iyunda qabul qilingan), Onalikni himoya etishga qaratilgan (103) konvenstiya (Jeneva, XMT tomonidan 1952 yil 28 iyunda qayta ko'rib chiqilgan), Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvenstiya (BMT 43 Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda), Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966 yil 16 yanvarda 2200-rezolyustiyasi), Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish

to'g'risidagi Konvenstiya (BMT Bosh Assambleyasining 1979 yil 18 dekabrda 34, 180-son rezolyustiyasi), Bolalarning yashashini, himoyalashini va rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi umumjahon Deklaratsiyasi, boshqa mamlakatlarga bolalarni o'g'irlab ketishning fuqarolik jihatlarini to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (Gaaga 1980 yil 25 oktyabr), 1995 yilda Pekinda 4-Butunjahon xotin-qizlar konferentsiyasida qabul qilingan xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha asosiy harakatlar dasturi mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni xalqaro huquq normalariga mos holda muhofaza qilish borasidagi dastlabki muhim qadamlardir, maqsad har bir fuqaroning, har bir oila a'zosining huquqlarini himoya etilishini xalqaro huquq normalari doirasida yo'lga qo'yishga erishishdir.

Oila a'zolarining huquqiy savodxonligi uning huquqiy himoya qilinishi huquqiy jamiyat barpo etishning negizidir.

Buning zahirida:

- aholi, shu jumladan, oila a'zolarining yosh tabaqalarga mos huquqiy bilim berish dasturlarini yaratish, huquqiy ong va tafakkurini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini aniqlash, bu borada noan'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan keng foydalanish;

- o'quv yurtlari, idora va tashkilotlarda huquqiy mavzuni yorituvchi burchaklar, xonalar tashkil etish, huquqiy bilim kunlari o'tkazish, radio o'quvlari uyushtirish;

- huquqiy mavzuga bag'ishlangan ommabop risolalar, gazeta va jurnal maqolalari, mutaxassis maslahatlarini chop etishni kuchaytirish, ruknlar rang-barangligiga erishish;

- oila huquqi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- joylarda baxt va nikoh uylari qoshida bo'lajak kelin-kuyovlar uchun maxsus o'quv kurslari, «Oila» klublari, «huquqiy maslahat» telefonlari tashkil etish va targ'ibot-tashviqot guruhlarini tayyorlash;

- oilalarda huquqiy bilim berishni takomillashtirishga yordam beruvchi sotsiologik tadqiqot ishlari olib borish va uning natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga keng tadbiiq, etish, bu borada huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan boshqa mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini mustahkamlash kabi masalalarga alohida e'tibor berish yotadi.

Jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar oilaga, oiladagi ma'naviy muhit, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi esa

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir qiladi.

Har bir davrning o'z dardi, talabi va ehtiyojlari bo'ladi. Mustaqillik odamlar va jamiyat takdiriga ta'aluqli juda ko'p jumboqlarni echib tashlash bilan barobar ma'naviyatimizning qator muammolarini kundalang qilib qo'ydi. Ayniqsa, axloq-odob masalalari katta ahamiyat kasb etib qoldi. Buning sabablari ko'p: bir tomondan, inson deb atalmish hayot gultojisiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uni azaliy va abadiy pok ma'naviyat yo'liga qaytarish rejalari tuzila boshlandi; katta yoki kichik, yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki johil millat bo'lmasligi, yomonlikning millati-yu, yaxshilikning chegarasi yuqligiga qanoat hosil qildik. Inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishishi qog'ozda emas, amalda tan olindi; ikkinchidan, soxta baynalmilalchilik, qog'ozdagi xalqaro do'stligi g'oyalari odamlar orasida uzoq, zamonlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan birodarlik tuyg'ulariga rahna solib quygani, odamlarning millat ajratmasligi uchun, bir-biriga mehrli-oqibatli bo'lishi uchun urush yoki qahatchilik, zilzila yoki tabiiy ofatlarni boshidan kechirishlari shart emasligi, ijtimoiy adolat o'rnatilgan joyda xalqlar va millatlarning chin insoniy fazilatlarini gurkirab unishiga ishonch hosil qila boshladik. Ayrin odamlarni aldash mumkin bo'lsa ham millatlarni uzoq vaqt laqillatib bo'lmasligiga endi hamma tushunib etdi.

Totalitar tuzum davrida respublikamizda sharqona qadriyatlar asosida oilani barpo etish, shakllantirish va barqarorligini ta'minlashga etarli e'tibor berilmadi. Oilani jamiyatning asosiy yacheykasi sifatida har tomonlama muhofaza etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmadi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini to'g'risidagi tasavvurlariga zid bo'lgan o'zga madaniyat an'analari yoshlar ongi, dunyoqarashi va shuuriga salbiy ta'sir etishi natijasida ba'zi salbiy hollarning paydo bo'lishi yuz berdi.

1.2. Oila – milliy tarbiya manbai

Aynan shu maskanda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga etkaziladi. Shu sifatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati

mazmuniga singib boradi.

Hayotning o'zi ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida barkamol qilib shakllantirishni har bir ota-ona, pedagog, jamoatchilik oldiga qo'ymoqda. Shuning uchun respublikamiz fuqarolari oldida turgan endigi vazifa ta'lim-tarbiya tarixini oila davrasida qunt bilan o'rganish, unda olg'a surilgan ilg'or g'oyalardan bahramand bo'lishdir. Chunki o'zbek diyorida dunyo ilm-fan xazinasiga beadad ulush ko'shgan al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad al-Farg'oni, al-Farobiy, ibn Sino, az-Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi allomai zamonlar yashab ijod etganlar. Ular qoldirgan madaniy merosni o'rganish har bir oila a'zosi uchun ham farz, ham qarzdir.

Bunda esa inson ulgayishida asosiy davr bo'lgan o'smirlikdagi tarbiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu pallada uning ichki dunyosi, o'ziga xos xislatlari shakllanadi. Bu davrda ota-ona, ustozlar ular tarbiyasi bilan uzviy ravishda shug'ullanishlari lozim. Ularning salomatligiga ham alohida diqqat-e'tibor zarur. Shuni ham unutmaslik kerakki, kamolotga eltuvchi yo'l ma'rifat, shunga yarasha g'ayrat-shijoatdir, har bir xalq har bir avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xalq istiqbolini, tarakqiyoti va taqdirini hal etadi.

Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash — faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala — ko'p millatli Vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu murod maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma'naviy merosimizning eng yaxshi an'analari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlar birlashadi, tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi. Xalqimiz irsiyatini boyitish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bo'lmish komil inson shaxsi — XXI asr odami shakllanadi. Tarixchilarning yozishicha, Temurbek bolalik va yoshlik chog'laridayoq, bugungi kun tili bilan aytganda, harbiy-sport o'yinlari va mashg'ulotlari bilan jiddiy shug'ullanib, badanni va ruhini chiniqtirgan. Agar jismoniy tarbiyani otasiga xizmat qilgan maxsus navkar-murabbiylardan olgan bo'lsa, ruhniy tarbiyani otasining piri bo'lmish Shayx Shamsiddin Kulol dargohida egallagan.

Bolaligidayoq o'zini buyuk ishlarga hozirlagan Amir Temur farzandlari va nabiralarning tarbiyasini ham bir lahza bo'lsada, nazaridan qochirmadi. Ulug' hukmdor o'z o'g'illari va nabiralarga eng avval jangu jadal mashaqqatlariga chidam berishga qodir kuch-quvvat va jasorat, shuningdek, saltanatni boshqarish uchun talab etilgan ilmu donish sohibi bo'lishlarini ta'lab etardi.

Amir Temur o'z davrining ma'rifatli kishisi, o'gmishning ma'naviy saboqlaridan yaxshi xabardor inson sifatida sog'lomlik faqat jismo-niy kuch-quvvat emas, balki olijanob insoniy fazilatlar uyg'unligiga erishmoq ekanligini ham yaxshi anglagan. U barloslarning ulug' amirlaridan bo'lmish padari buzrukvori, muarrix Sharafiddin Yazdiy ta'biri bilan aytganda, "ulamo va sulaho va muttakilarga mushfiq va mehribon" Muhammad Tarag'aydan olgan saboqlarni bir umr unutmadi. Muhammad Tarag'ay o'z farzandini mardlik va farosatlik, qattiq qo'llik va mehr-oqibat ruhida voyaga etkazdi. Agar Amir Temur buyuk saltanatga asos solgan bo'lsa, bu sharafiga mana shu yuksak tarbiya oqibatida erishgan.

Sohibqiron farzandlarida uch xislat mujassam bo'lishini istardi. Eng avvalo, insonparvarlik, so'ng mushohadalik va nihoyat, oqibatlilik — bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo'lishi mumkin. Mushohadali, bosiq odamgina jangu jadalda xatoga yo'l qo'ymaslikka, ulkan saltanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bo'lsa-yu, insonparvar bo'lmasa, jismonan baquvvat bo'lsa-yu, mushohadalik bo'lmasa, dono bo'lsa-yu, bosiqlik bo'lmasa, unday odam komil inson bo'lolmaydi, unday odam boshqalarni ham, o'ziniyam halok etadi. Kimki raqibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa, u albatta engadi. "Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, uylab ish qilish qilich kuchidan o'n karra foydaliroqdir", deb ta'kidlaydi ulug' Sahibqiron.

Bobokalonimizning farzandlari va avlodining qanday fazilatlariga ega bo'lish bilan bog'liq istaklarini bilish uchun avvalo "Temur tuzuklari"ni varaqlaylik. Uning dastlabki sahifalaridayoq shunday fikrni uqish mumkin: "Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir". Bu hikmatda bobomizning sog'lom va komil inson xususidagi tushunchasi, ya'ni etuk insoniy fazilat va xususiyatlarga ega insongina mamlakat tayanchi bo'la oladi, degan mushohadasi mujassamlashgan, deb

uylaymiz. Boshqa bir o'rinda Sohibqiron "qat'iylik, sabr-chidamlilik, sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat" sohibi bo'lgan inson har qanday mashaqqatli ishni amalga oshirishga qodir, deb ta'kidlaydi.

Sohibqiron bobomiz harbiy safarlarga farzandu nabiralari birga olib ketardi. Bundan ko'zlangan birinchi murodi avlodlari suyagini jangu jadallar, uzoq va mashaqqatli yo'llarda chiniqtirish bo'lsa, ikkinchi maqsadi farzandu nabiralari o'z avlodlari qo'lida tarbiyalansa, erka va taniq bo'lib ulg'ayadilar, degan fikrdan kelib chiqib, ularni onalarining ortiqcha mehru-muhabbatlaridan asrash edi. Zero, asalning ko'pi zarar, me'yorda bo'lsa, foydali ekanligi to'g'risida o'tmish donishmandlari ko'p naql etganlar.

"Mening farzandlarim taniq bo'lmasliklari kerak! — derdi Amir Temur. — Tantiqlik irodasizlikni paydo qilgay. Farzandlarimni erkalaydigan er kurash maydoni bo'lsin. Arg'umoq ila qilich ularning jonajon do'sti, mardlik ularga ustoz bo'lsin!"

Mana shu niyatda jahongir avlodlarining jismoniy tarbiyasini itoatidagi eng tajribali va taniqli pahlavonlarga ishongan bo'lsa, farzandlarining ruhiy dunyosiga sayqal berishni oqila malika — asli ismi Saroymulkxonim, xon avlodi bo'lgan, murg'aklikdan hukmfarmonlik va bahodirlikdan saboq olgan — Bibixonimga ishongan edi. Qolaversa, malika har doim safardayam, jangu jadaldayam va dorulsaltanatdayam hukmdorga hamrox, bo'lardi.

Etti iqlimdan yig'ilgan san'at va adabiyot ahli tufayli dorulsaltanat Samarkand havosida she'r va musiqa nafasi hukmron edi. Mana shu muhit, malika rahbarligidagi muallimlar sabog'ini olgan shahzodalar she'r va san'atga yaqin kishilar bo'lib voyaga etdilar. Hazrat Navoiy o'z asarida yigirma ikki temuriy shahzoda (Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Boysunqor Mirzo, Abulqosim Bobur, Sulton Mas'ud, Shoh Barib Mirzo, Abdullatif Mirzo, Husayn Boyqaro va boshqalar) she'r va musiqaga oshno bo'lgani tilga olinadi.

O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlar tarixini o'rgangan har bir fuqaro o'zining bilim saviyasi, dunyoqarashini o'stiribgina qolmasdan, balki o'zligini anglashga, haqiqiy vatanparvar bo'lib shakllanishga muayassar bo'lishi tabiiydir.

Mana hozir mahallalarga juda katta e'tibor berilyapti. Mahallada hamma bir-birini biladi, bir-biriga ko'z-qulok, bo'lib yashaydi. Keksa oqsoqollar, bama'ni odamlarning yoshlarga ta'siri hammamizga ma'lum. Har bir mahallada shunday odamlar borki, ularsiz na to'y, na

ma'raka o'tadi. Shunday voqealarning guvohi ham bo'lamiz, hatto janjallashib yoki kelisholmay turgan qo'ni-qo'shnilar «falonchi aka kelyapti» yoki «falonchi akani chaqirib kelish kerak» deyilsa, o'z-o'zidan jimib qolishadi. Shu ma'noda oiladagi kekxa ota-onaning fayzi beqiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Bir necha oila bo'lib, bir qozondan ovqatlanish, ota-ona izmidan borib kam bo'lmagan farzandlar sonsiz-sanoqsiz. Lekin oxirgi paytlarda bitta otasi yoki onasini chiqishtirmagan, ularning «ortiqchaligi» sezilib qolayotgan oilalar uchramoqda, kekxa ota yoki onaning ko'zi tirikligida uyga ajoyib bir tarovat tarqatib turishini faqat ulardan judo bo'lgandan keyingina his qilinadi.

Yoshlar mustaqil turishni sevadilar. Ayniqsa, bu niyat kelinlarda kuchli bo'ladi, o'zi beka bo'lib, eri topganiga bilganicha va istaganicha xo'jayinlik qilishni istashadi. Goho xotining bunday nag'malariga uchib, qulog'im tinchisin degan ma'noda ajralib chiqib ketadigan, ota-onasidan xabar olmay qo'yadigan yoshlar ham bor. Bunaqa ishlar nainki milliy urf-odatlarimiz, odobimiz, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham to'g'ri kelmaydi. Mehr ko'zi ko'r bo'lgan insonning jamiyat va jamoa uchun ham qalbi berk bo'ladi. Opa-singil o'rtasidagi bir meros janjalini misol keltirmokchiman. Ota-ona tirik paytida chiqib ketgan opa ular olamdan o'tgach, singlisining boshiga ming g'avg'o solib meros talashib yuribdi. Kichik qiz eri bilan ota-ona uyiga ko'chib kelib ularni oq yuvib, oq taradi. Kasalligida boqdi, o'lganda ko'mib, barcha ma'rakalarni o'tkazdi. Hovli-joyini odamshavanda qildi, yangi xonalar qo'shdi, mahalla ahli va qarindosh-urug'larning duosini oldi. Katta opa esa ona o'limidan so'ng hovlining yarmiga da'vogar bo'lib, singlisining boshida yong'oq chaqib yuribdi. Hatto singlisining «opajon, oramizga sovuqchilik tushmasin, mayli, kuyovingizni ko'ndirib, amal-taqal qilib biroz pul bera qolaylik, axir biz jigarlarmizku, oldingizda yolg'iz o'g'lingiz bor, vaqti kelib biz ham qarab turmasmiz» degan iltijolariga «yuq, men uyni sotib, yarim pulini olaman» deb oyog'ini tirab olgan opaning axloqiy, insoniy qiyofasini qanday tasavvur etish mumkin? Mol-dunyo deb, tekin meros deb mehr bulog'i ko'ziga zahar sochayotgan, o'z jigarbandini qon-qaqshatishdan uyalmaydigan kimsalarni ko'rib nafratingiz oshmaydimi? Axir xalqimizda ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug'lar o'rtasida shunday muloqotlar, samimiyatlar borki, ular hikoya qilinsa, boshqalar

ishonmasligi mumkin. Nahotki ana shu hikmatlar, chin insoniy ezguliklar o'rnini qora yuraklar, pajmurda o'pkalar bilan almashtirsak? Nahotki yo'ldan chiqqan egri niyat, bebosh fe'llarga bobolarimiz, samoviy momolarimiz ma'naviyatini qarshi qo'ya olmasak? ha, qarshi qo'ya olamiz. Bunga jamoa, mahalla, odamlar munosabati zarba bera oladi. Chunki jamoa la'natiga uchragan odamning hech qachon bog'i ko'karmagan. O'zbekona odob, o'zbekona insoniylikning qarzi ham ana shu jamoa va ko'pchilik kayfiyati, munosabati bilan o'lchanadi.

Mahallalar bilan bog'liq, yana bir udum haqida gap yuritmoqchimiz. Bu kishilarning o'z kasbi, tengqurligi yoki mahalladoshligiga qarab, «gap» o'ynash odatidir. Bunday to'planishlar ham o'ziga xos milliy namoyishning bir ko'rinishi. Faqat u bir oyda yoki ikki haftada biror xonadonda takrorlanadi. Bunday yig'inlarning farqi shundaki, unda davlat siyosatidan tortib bozor narx-navosiyu farzandlar tarbiyasi, mahalla ahli hayotidagi yangiligi, mamlakat ahvoli xususida bahs, munozara, maslahat bo'ladi. Bu «gap»lar milliy tarbiya maktabimizning yana bir go'zal shakli sifatida davom etib kelmoqda. Qaerda bu «gap»lar manmanlik yoki mayxo'rlik tomon burilsa, odamlar tezda tarqalib ketishyapti. «Gapdan maqsad o'zaro fikr almashuv, birodarlik tuyg'usi, qo'ni-qo'shnichilik xosiyatini mustahkamlash ekan, bunday milliy an'analar avloddan-avlodga o'tib, o'zbekona fazilatlarimizning hayotiyligini ko'rsataveradi.

Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlilikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.

Mustaqillikka erishgunimizcha noto'g'ri mafkuraviy siyosat tufayli ko'pgina chin insoniy qadriyatlarimizga diniy tus berishga, ularni hayotdan siqib chiqarishga rosa harakat qilindi. Biroq, bu narsa hech kimning qo'lidan kelmadi. Asrlar davomida, avlodlar ongida shakllanib kelgan odatlar, udumlarni bir zarb bilan yo'qotib bo'lmasligi tan olinmadi. Omma o'rgangan udumni yuq qilish yo'lida ularga nisbatan ilg'orroq, tabiiyroq va zamonaviy ma'naviy ehtiyojlarni ifodalovchi rasm-rusumlar tarkib topmas ekan, har qanday harakat teskari natijalar beraveradi.

Rasm-rusmlarimiz milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish evaziga boyib va o'zgarib bordi. Masalan, bayramlarda, tug'ilgan kunlarda yoki quvonchli damlarda odamlar bir-birlariga gul va guldasta taqdim

etish odat tusiga kirdi. Umuman olganda gul taqdim etish bizda tarixiy an'ana emas. Aksincha bizda gul o'rniga gul ko'chati berishgan. Qabr ustiga gul quyish ham bizda odat bo'lmagan. Sharq poeziyasida gul va bulbulga qanchalik ko'p she'r bitilgan bo'lsa ham uni faqat ramziy obrazlar tarzida idrok etilgan. Hayotda, odamlar oldida, oshkora ravishda sevishtganlar gul emas, gulday iliq tabassum va ibolarni bir-biriga tortiq etishgan, hozir gul tortiq qilish ommaviy tus oldi. Lekin shu o'rinda ko'r-ko'rona taqlid ko'zga tashlanmokda. Biz o'zbeklar gul tortiq qilishda tushunib-tushunmay guldastaning toq yoki juft bo'lishiga ahamiyat bermaymiz. Ruslarda o'lim marosimlarida gullar juft sonda olib kelinadi. To'y, yubiley, uchrashuvlarda esa toq sonli gullar beriladi. Bizda toq va juft sonlarga turlicha munosabat mavjud. Masalan, ma'rakaga yoki o'lgan odamni yo'qlab borishda non toq sonda olinsa, to'yga va mehmondorchilikka borilganda nonlar soni juft bo'ladi. Bunday odat qachon boshlangan va nima uchun shunday bo'lib qolgan — aytish qiyin. Lekin unga xalqimiz amal qiladi. Ammo ruslardan o'tgan gul tortiq qilishda toq sonda gul hadya etamiz. Gul tortiq etishni eng olijanob fazilat sifatida kabul qilib, uning toq yoki juft sonlariga ahamiyat bersak bo'lasmikan? Tug'ilgan kunlarda, shodiyona damlarda juft sonli gullar berib, xalqimizning eng porloq duosining ramzi bo'lgan — hamma juft-juft bo'lib, bekamu ko'st va inoq yashashsin degan niyatini bajo keltirgan bo'lmaymizmi? Bizning tasavvurimizda juft son uyg'unlik, birlik, ahillik, totuvlik, hamfikir va hamnafaslik ramzi, toq son esa ayriliq, judo, kelishmovchilik, nizo va firoq ifodasi emasmikan? Har qalay gulga, guldastaga ana shunday munosabat milliy tuyg'ularimiz, odob va xulq-atvorimizga mos kelsa kerak, deb o'ylayman. Qabr ustiga gul qo'yish ham odat tusiga kirsam yomon bo'lmaydi. Undagi toq gullar qolgan tiriklar soni bittaga kamayganini, dunyo butunligi buzilganini, odamlar safi-tasbehi uzilganini anglatmaydimi? Xotira kunlarida marhumlar qabri ustida bahor chechaklari yal-yal yonib tiriklarning ko'z yoshlari shabnam yanglig' gullarning barglarini yuvayotgandek bo'ladi. Ajdodlar xotirasini eslash avlodlar odobini mustahkamlaydigan ruhiyat gavharidir.

Millatning joni uning axloqu odobida. Shuning uchun har bir millat o'z urf-odatlarini, insoniy fazilatlarining jonkuyari, shu fazilatlar uchun o'zini o'tga ham, suvga ham urib, boringki, hayotning barcha achchiq-chuchuk qisimatlariga bardosh beradi. Millat boshiga eng

og'ir kulfat tushganda ham u o'zining ma'naviyatini bozorga olib chiqmaydi, nomusini sotib, vijdonini poymol etib kun ko'rmaydi. Tarixning barcha issiq-sovuq zarbalari, tabiatning barcha yorug', qora kunlariga millat o'zining axloqiy-ma'naviy boyligi ila bar-dosh beradi. Ana shunga ko'ra biror kimsa orttirgan obro', biror inson erishgan yorlig', biror odam keltirgan shuhrat ham, kimlarningdir king'ir ishlari, noba-korning fisqu fujuri, dilozorning tuhmat xanjari – hamma-hammasi el-yurt, millat yuragiga, ruhiga ta'sir qiladi.

Oxirgi paytlarda keksalarimiz orasida «yoshlarning odobi buzilib ketdi» degan ta'nalarni eshitadigan bo'lib qoldik. Birovlarning molu mulkiga va joniga qasd qiladigan past nusxalar ilondek izg'ib qolganini ko'rib, eshitib yuribmiz. Bir paytlar darvozasi qul bilmagan, bir necha oylab uy-joyini qo'ni-qo'shnilarga ishonib dala hovlilariga ko'chib ketadigan o'zbekim bugun kelib eshik taqqilasa avval derazadan mo'ralaydigan bo'lib qoldi. Shunga o'xshash kasalliklarning ijtimoiy sabablari bo'lsa-da axloq-odob borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham ularga sabab bo'lmoqda. Bir paytlar onalar elkasiga ag'darilgan «erkinlik» yoki ularning oiladagi birinchi navbatdagi tarbiyachi ekanliklarini chippakka chiqardi. Onalar mamlakat iqtisodiy, moddiy boyligini ko'paytirish uchun shunchalik dadil va keng jalb etildiki, pirovardida ular ham jismonan, ham ma'naviy, ham ruhiy boyligidan judo bo'lib qoldilar. Bir necha bolani voyaga etkazish, tarbiyalash va oyoqqa turg'azishning o'zi ulkan ijtimoiy, milliy va umumbashariy boylik ekaniga ahamiyat berilmadi. Ayollarning o'zlariga qarashga vaqti bo'lmagach, bolalari tarbiyasiga vaqti bo'larmidi? Ayrim yoshlardagi beandishalik, behayolik va bezoriliklarning ildizi ana shunda.

Oilada yosh avlodni ota-ona namunasi oila an'analari, shajarasi, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Buning uchun ota-onalarni tarbiya jarayoniga tayyorlash maqsadida ota-onalar universitetlari ishini tiklash va takomillashtirish, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim mazmuniga «Yoshlarni oilaviy hayotta tayyorlash» kursini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarga oila tarbiyasida metodik yordam beruvchi «Oila kutubxonasi» seriyasidagi kitobchalar va maxsus «Oila» jurnalini nashr qilishni yo'lga qo'yish, barcha yo'nalishlardagi oliy va

o'rta maxsus ta'lim muassasalariga «Oila psixologiyasi va pedagogikasi» kursini joriy etish oilani namunali tarbiya maskaniga aylantirish vositasidir.

Balog'atga etayotgan yigit-qizlarimiz o'tkazilayotgan ta'lim, islohotlaridan mamnun bo'lishi tabiiydir. Shuning uchun respublikamizning barcha viloyatlari, tumanlari va qishloqlaridagi o'quv dargohlari zamonaviy uslubda jihozlanishi, ta'lim tizimiga esa yangicha ruh kiritilishi, Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya mazmunini, oila ta'limi va tarbiyasi bilan hamohang ravishda amalga oshirish zarur. Buning uchun esa:

- o'qituvchi-murabbiylarning va ota-onalarning ijodiy izlanishlarini va mahoratlarini oshirishning samarali yo'llarini topish;
- ota-ona tarbiyasi, madaniyati, bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini yaxshilash;
- bola tarbiyasining muhimligiga jiddiy e'tibor qaratish;
- bolaning ta'limga faolligini oshirish, fanlarga bo'lgan qiziqishlarini uyg'ota olish, qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ota-onalar dunyoqarashi, bolalariga bo'lgan mehr-muhabbatlari, talabchanliklarini keng bo'lishi;
- oila – mahalla - maktab tizimida ta'lim-tarbiya samarali mazmunini va usullari amaliyotga keng joriy etish;
- boladagi salbiy xususiyatlarni oldini olish choralari o'ylab topish;
- boladagi dunyoqarashni va ulardagi qobiliyatlarni shakllantirish;
- vatanni sevish, mehr-muhabbatli va sadoqatli bo'lishga undash;
- ko'proq kitob o'qish, bilim zahirasini boyitish, ta'limiy-ongiy munosabat jabhalarini rivojlantirish;
- aqliy faoliyatlarini turli usullarini shakllantirish;
- yoshlarning bo'sh vaqtlarini oila-maktab va jamoatchilik hamkorligida qiziqarli, maqsadli tashkil etishga erishish zarur.

XULOSA

1. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlarini hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga chorlaydi. Shu munosabat bilan Chirchiq davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari tashabbus ko'rsatib, imkon qadar viloyatdagi maktabgacha ta'lim, maktablar, o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni zamon talabi sifatida anglashlari zarur hisoblanadi.

2. Ta'lim mazmunining ijtimoiy, falsafiy asoslarini aniqlash, uning yangi modellarini belgilashda metodologik asoslarga tayanish, modernizastiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiylashtirish birinchi darajali nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

3. O'quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'zining aniq va maqsadga yo'naltirilgan mazmuniga ega bo'lishi lozimligi kuzatishlarimiz davomida ayon bo'ldi. Ushbu mazmun o'z ichiga o'quvchilarga individual yondashgan holda ularning aql-zakovati, etukligi, ma'naviy sifatlari, ijtimoiylashtirishga xizmat qiladigan o'quv materiallarini qamrab olishi lozim.

3. Mavjud manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat mutaxassislar o'quvchilarning intellektual taraqqiyotlarini ta'minlash uchun o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish zarur degan g'oyani ilgari surib, individuallashtirish va tabaqalashtirish masalasiga o'z qarashlarini bayon qilganlar.

4. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda sub'ekt munosabatlari alohida o'rin egallab, o'qituvchi bu munosabatning o'ziga xos jihatlari namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'lishi talab etiladi.

5. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishda o'quv-biluv jarayoni o'ziga xos texnologik qurilishga ega bo'lib, uning alohida-alohida bosqichlarida muayyan didaktik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6. O'quv munozarasining tarkibini muayyan modelda mujasamlashtirish uchun ushbu modelning tarkibiy qismlarini o'quv munozarasiga kirishish ko'nikmasining muayyan darajalari yordamida ifodalash maqsadga muvofiqdir.

7. Munozara jarayonining muhim tarkibiy qismlari o'quvchilar bilan o'quvchilar, o'quvchilar bilan o'qituvchilar va darsga salbiy

munosabat bildiruvchi o'quvchilar orasidagi muloqotdan iborat ekanligi pedagogik jihatdan aniqlandi. Chunki muloqot qo'yilgan muammoni muhokama qilish jarayonida guruh a'zolarining fikrlarini muvofiqlashtirish, faollashtirish, oydinlashtirish va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

8. O'quv munozarasi o'quvchilarning intellektual faoliyatlarini jadallashtirish imkoniyatini beradi va ularda o'z fikrini qat'iyat bilan himoya qilish, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik, talabchanlik sifatlarini tarkib toptiradi.

9. O'quv munozarasi davomida guruhli muhokamalar o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, fikrlash jarayonini jadallashtiradi, shaxslararo munosabatlarni muayyan tizimga soladi.

Qilingan amaliy ishlarimizga yakun yasab, kelgusida uni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq amaliy vazifalarni belgilab olish vaqti etib kelganligini e'tirof etish o'rinli bo'ladi.

Ana shu yo'lda samarali mehnat qilish uchun dars jarayoniga salbiy munosabatda bo'lgan o'quvchilar bilan alohida ishlash har bir pedagog-o'qituvchilar, ota-onalar hamda keng jamoatchilikning birinchi darajali vazifasiga aylanmog'i zarur.

TAVSIYALAR

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatda bo'lgan bolalarni tibbiy-psixologik jihatdan o'rganish, ota-onasi va oilaviy sharoitlari bilan yaqindan tanishish.

2. Sinf rahbarlari va ota-onalarning hamkorlik pedagogikasini yo'lga qo'yish, dars jarayoniga salbiy munosabat sabablarining tub idizlarini o'rganish.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatda bo'lgan bolalarga konstruktiv (amaliy, ishchan) yondashuv tamoyillari asosida ta'sir etishning psixologik, ijtimoiy-pedagogik vositalaridan keng foydalanish.

4. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda ularda aniqlangan aqliy, fiziologik nuqsonlarni keltirib chiqargan sabablar, oqibatlarini e'tiborga olish, tarbiyaviy ta'sirlarni shu asosda tashkil etish.

5. O'smir yoshdagi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishning kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, bolalarning qiziqish

hamda layoqatlarini aniqlash yo'li bilan ularni turli xildagi to'garalarga, sport turlariga jalb qilish.

6. Ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy munosabatdagi bolalarning tashqi ta'sirlarga berilib ketmasliklari uchun ularni doimiy (oila bilan hamkorlikda) nazorat ostiga olish.

7. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan maktabda ta'sirchan psixologik xizmatni yo'lga qo'yish, ular xulq-atvorini tarbiyalashda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashning amaliy, ishchan harakat va tadbirlar tizimini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

8. O'quvchilarni kitob o'qish texnikasi bilan tanishtirish, umumiy saviyasini oshirish maqsadida o'smirning salbiy holatlarini ko'zda tutgan holda mos kitoblarni o'qishga da'vat etish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan voqea va hodisalarni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

9. O'quvchilarning salbiy munosabatlari oqibatlarining xavfli va xunuk jihatlarini haqida suhbatlar o'tkazish, tarbiyaviy ta'sirning o'ziga xos metodlaridan foydalanish choralarini ko'rish.

10. Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqot madaniyati, kattaga hurmatda, kichikka nisbatan izzatda bo'lish, mahalla, ko'cha-kuyda o'zini tutish, insoniylik burchi ekanligini anglatish, ma'naviy etuklikning mezonlari ekanligini tushunib etishga zamin tayyorlash.

ILOVALAR TEST TOPSHIRIQLARI

1. Oila so'zining ma'nosi nima?

- A) Oila - ijtimoiy jamoadir, jamiyatning bir bo'lagidir;
 - B) Oila - dastlabki mulk egasiga bo'ysunadigan guruhga aytiladi;
 - C) Oila- kishilarning qon-qarindoshligi, mulk manfaati umumiyligi va talab ehtiyojlarni qondirishga asoslangan tuzilmaga aytiladi;
 - D) Oila - jamiyatning er-xotinlik ittifoqiga, qarindosh urug'chilik aloqalariga asoslangan guruhga aytiladi;
 - E) Oila jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, er-xotinlik ittifoqiga, qarindosh urug'chilik aloqalariga asoslangan tuzilmaga aytiladi.
- ### 2. Oilaning quyidagi shakllaridan qaysi biri tarixiy ahamiyatga ega?

- A) Demokratik oila;
- B) Poligam oila;
- C) Monogam oila;
- D) Patriarxal oila;
- E) Matriarxal oila.

3. Qomusimizning qaysi bobi oila xususiga bag'ishlanadi?

- A) X bobbi;
- B) XIV bob;
- C) IX bob;
- D) V bob;
- E) VI bob.

4. Ibn Sino qaysi asarida oila va oilaviy tarbiya masalasiga alohida to'xtaladi?

- A) «Donishnoma»;
- B) «Isiorat»;
- C) «Tib qonunlari»;
- D) «Tadbiri ul manozil»;
- E) «Hidoyat».

5. Oilada bola nima uchun ota-onadan uzoqlashadi, begona-lashadi?

- A) Bolaning yurish-turishi chegaralab qo'yiladi;
- B) Ota-onaning obro'yi hal qiluvchi rol o'ynaydi;
- C) Oiladagi munosabatlar bolani qoniqtirmaydi;
- D) Ota-onaga bola ko'r-ko'rona bo'ysunadi;

E) Oilada bolaga nisbatan e'tibor sirlik.

6. Yaxshi inson kam tug'iladi, yaxshi oila davlat baxti. Ushbu fikrlar A.Navoiyning qaysi asarida uchraydi?

- A) «Mahbub ul Qulub»;
- B) «Vakfiya»;
- C) «Hayrat ul abror»;
- D) «Saddi Iskandariy»;
- E) «Farhod va Shirin».

7. Bolalar huquqlari deklarastiyasi qachon kabul qilingan?

- A) 1960 y.
- B) 1959 y.
- C) 1945 y.
- D) 1948 y.
- E) 1965 y.

8. Xalq pedagogikasi oilada bolalarni tarbiyalashda qaysi usuldan ko'proq foydalanish uchraydi?

- A) Namuna ko'rsatish;
- B) Suhbat;
- C) O'git nasihat;
- D) Tushuntirish;
- E) Jazolash.

9. Oilaning eng ko'p ajralishiga asosiy sabablar qaysilar?

- A) Oilaviy hayotdagi iqtisodiy qiyinchiliklar;
- B) Turmush o'rtog'ining oilaviy hayot masalasiga befarq bo'lishi;
- C) Muhabbatsiz oila qurish;
- D) Turmush o'rtog'ining qo'pol munosabati uchun hurmat qilmaslik;
- E) Ota-ona va qarindoshlarni oilaviy hayotga aralashuvi.

10. Haqiqiy obro' nimaga asoslanishi kerak?

- A) Bolangizni itoatli bo'lishiga har qanday yo'l bilan erishishga;
- B) Bolangiz hayotini bilishingiz, uning tarbiyasi uchun javobgar deb bilishingiz;
- C) Bolangizga beradigan yordamingizga insoniylik tuyg'ularingizga asoslanadi;
- D) Bolangizni itoatli bo'lishga uning hayotini bilishingizga asoslanadi;
- E) Bolangizni hayotiga javob berishingizga asoslanadi.

11. Bolalarda o'z vataniga muhabbatni tarbiyalash usullari

qaysilar?

- A) Suhbatlar, badiiy adabiyot, ekskursiyalar;
- B) Ko'rgazmalar, Mashq qildirish, amaliy metodlar;
- C) Og'zaki o'qib berish, diafilmlar ko'rish;
- D) Tushuntirish, mashq qildirish;
- E) Mashq qildirish, badiiy adabiyot.

12. O'zbek xonadonlarida qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilishning asosiy sababi nimada?

- A) Qizlarni ro'zg'or yumushlariga tayyorlash;
- B) Bo'lajak oilaviy hayotga tayyorlash;
- C) Ota-onalarga kattalarga itoatli bo'lishi;
- D) Odobning nozik tomonlarini o'rgatish;
- E) Ularni ona bo'lishga tayyorlanadi.

13. Qaysi toifadagi oilada ota-onaning obro'si tez ortib boradi?

- A) Ota-ona teng huquqli oila;
- B) Otaning ta'siri kuchli oila;
- C) Onaning ta'siri kuchli oila;
- D) Buvilarning ta'siri kuchli oila;
- E) Bobolarning ta'siri kuchli oila.

14. Hadisi sharifda keltirishicha «kishi tanlash vaqtida 4 ta narsaga albatta qiziqiladi» bular qaysilar?

- A) moliga, jamoliga, mansabiga, diniga;
- B) moliga, jamoliga, tarbiyasi, diniga;
- C) kasbiy mansabi, dini, moli, tarbiyasi;
- D) mansabi, dini, moli, jamoli;
- E) jamoli, dini, moli, kasbi.

15. Ibn Sino bola tarbiyasida kimning roliga ko'proq e'tibor beradi?

- A) Otaning;
- B) Onaning;
- C) Ota-onaning;
- D) Buvining;
- E) Boboning.

16. Kimning qaysi asarida ota-onalarning vazifalari sanab o'tilgan?

- A) Ibn Sinoning «Tadbiri ul manozil»;
- B) Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u-bilig»;
- C) Kaykovus «Qobusnoma»;

- D) A.Beruniy « Hindiston»;
E) A.N.Farobiy «Fozil odamlar shahri».

17. O'zbekistonda «Oila pedagogikasi» kitobini qaysi olim birinchi bo'lib yozgan?

- A) M.Inomova;
B) A.K.Munovvarov;
C) K.Xoshimov;
D) S.Rajabov;
E) M.Ochilov.

18. Ota-onalar farzandlaridan nima uchun jazo oladilar?

- A) O'z ishiga e'tiborsizligi;
B) Farzandini yomon tarbiyalaganligi uchun;
C) O'z ishiga ma'suliyat bilan qaramaganligi uchun;
D) Farzand tarbiyasida bilimi yo'qligi uchun;
E) Farzand tarbiyalashni o'z burchi deb bilmaganligi uchun.

19. Qadimiy odatlarga ko'ra chaqaloq tug'ilganda uning sharafiga nima qilinadi?

- A) mevali daraxt o'tkazilgan;
B) daraxt o'tkazilgan;
C) ariq qazilgan;
D) ziyofat berilgan;
E) marosim qilingan.

20. Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida oila va oila tarbiyasiga alohida etibor berilgan?

- A) O'zbekistonning milliy istiqlof mafkurasi;
B) O'zbekiston kelajagi buyuk davlat;
C) O'zbekistonning o'z istiqlof va taraqqiyot yo'li;
D) Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik;
E) Bizdan ozod va obod Vatan qolsin,

21. Hozirgi kunda oila buzilishining asosiy sabablaridan qaysi biri ko'proq rol o'ynaydi?

- A) Oilada er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
B) Qaynona kelin o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
C) Ona va bola o'rtasidagi kelishmovchilik;
D) Kuyov va qaynona o'rtasidagi kelishmovchiliklar;
E) Qudalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar.

22. Inson hayotida qanday pedagogik xatoga yo'l qo'yishi

mumkin?

- A) Yolg'on so'zlash va bola tarbiyasidagi ma'suliyatsizlik;
B) Bolalarni yosh deb ulargi ishonmaslik, keksalarni qari deb ularni chetga surish;
C) Bola tarbiyasidagi ma'suliyatsizlik. Keksalarni qari deb chetga surishlik;

D) Yolg'on so'zlash, milliy madaniyat, ma'naviyatni o'rganmaslik.

23. O'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlari qaysilar?

- A) Mehnatsevarlik, saxiylik, hammaga teng munosabatdaligi;
B) Hunarmandlik, mehnatkashlik, ziyraklik, boshqa millat kishilariga izzat-ikrom ko'rsatish;
C) Mehnatsevarlik, sahovatpesha, mehribonligi;
D) Hammaga teng munosabatda bo'lishi, mehnatsevarlik, hunarmandlik;
E) Mehnatsevarlik, hunarmandlik, saxiylik.

24. Bola tarbiyasida «Alla»ning tarbiyaviy ahamiyatiga to'xtalib o'tgan mutafakkir kim?

- A) A.R.Beruniy;
B) A.Navoiy;
C) A.N.Farobiy;
D) Abu Ali Ibn Sino;
E) Yusuf Xos Xojib.

25. Bola tarbiyasi murakkab jarayon, u beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi degan tushuncha qaysi mutafakkir fikri deb o'ylaysiz?

- A) Yusuf Xos Xojib;
B) A.R.Beruniy;
C) Ahmad Yugnakiy
D) Ahmad Donish;
E) Abdulla Avloniy.

26. O'z vataniga muhabbat, botirlik, qo'rqmaslik, shijoatli bo'lish o'zbek xalq og'zaki ijodining qaysi janrida ko'proq talqin etiladi?

- A) Maqollarda;
B) Dostonlarda;
C) Xalq qo'shiqlarida;
D) Topishmoqlarda;
E) Ertaklarda.

27. Qanday asosda qurilgan oilalar mustahkam bo'lmaydi?

- A) Ijtimoiy va ma'naviy notenglik asosida qurilgan oila;
- B) Ma'naviy notenglik asosida qurilgan oila;
- C) Ijtimoiy notenglik asosida qurilgan oila;
- D) Iqtisodiy notenglik asosida qurilgan oila;
- E) Sostial notenglik asosida qurilgan oila.

28. Oilaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- A) Oilani yashashi uchun moddiy sharoit yaratish, farzand tarbiyalash vazifasi;
- B) Farzand ko'rish, iqtisodiy xo'jalik vazifasi, bo'sh vaqtni va dam olishni tashkil etish vazifasidir;
- C) Dam olishni va bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish, farzand ko'rish, xo'jalik vazifasidir;
- D) Iqtisodiy, farzand tarbiyalash xo'jalik vazifasidir;
- E) Oilani yashashi uchun moddiy sharoit yaratish, iqtisodiy va xo'jalik vazifasidir.

29. Bolalarda vatanparvarlik tarbiyasiga berilgan to'g'ri ta'rifni toping.

- A) Oilasiga, yaqin kishilarni sevish, hurmat qilish, qadrdon uyi, o'z qishlog'iga, muhabbatni tarbiyalash;
- B) O'z Vatanga muhabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turishni tarbiyalash;
- C) O'zi yashaydigan joyga muhabbat, milliy madaniyat, milliy an'analariga hurmatni tarbiyalash;
- D) O'z uyiga yaqin ko'chasiga o'z qishlogiga mehr-muhabbatni tarbiyalash;
- E) O'zbekistonning milliy madaniyati, milliy an'analariga hurmatni tarbiyalash.

30. Bolalarda Vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda qaysi o'zbek milliy vatanparvarlarining hayoti misol bo'la oladi?

- A) A.R.Beruniy, A.N.Farobiy;
- B) A.R.Jomiy, Xorazmiy;
- C) Amir Temur, J.Manguberdi;
- D) A.Termiziy, I.Buxoriy;
- E) A.Navoiy, A.Avloniy.

31. Hadisi sharifda keltirilishicha xotin kishiga nisbatan odamlarning haqlirog'i kim hisoblanadi?

- A) Otasi;

- B) Eri;
- C) Onasi;
- D) Farzandi;
- E) Akasi.

32. Respublikamizda nechinchi yil «Oila yili» deb e'lon qilingan?

- A) 1999 yil;
- B) 1997 yil;
- C) 1998 yil ;
- D) 2000 yil;
- E) 1996 yil.

33. Qanday ko'rinishdagi oila to'laqonli oila deb yuritiladi?

- A) Unda ota ham ona ham bola tarbiyasiga birday ma'suliyat bilan qaraydi;
- B) Unda onalar oila yumushi bilan band, otalar bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi;
- C) Unda ota uy yumushlari, bola tarbiyasi bilan band, ona bola tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi;
- D) Unda yo ota yo'q, yo ona yo'q bo'ladi;
- E) Unda ota yoki onaning biri o'gay bo'ladi.

34. Oilaning mustahkamligi ko'proq nimaga bog'liq?

- A) Oilada qaror topgan er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteriga, ma'naviy-axloqiy iqlimga bog'liq;
- B) Oilada er-xotin ahil inoqligiga bog'liq;
- C) Oilaga tevarak-atrofdagilarning ijobiy munosabatiga bog'liq;
- D) Oilada er va xotinning obro' e'tiboriga bog'liq;
- E) Ota-onaning shaxsi, turmush tarziga bog'liq.

35. Qaysi ko'rinishdagi nizolar «Oilaviy nizolar» deb yuritiladi?

- A) Ruhiy kasalliklar, tug'ma va hayoti davomida orttirilgan kasalliklar;
- B) Jinoiy javobgarlikdan qochish, boshqarishning holdagi jazolanish, uyushgan jinoyatchilik guruhlariga tushib qolish;
- C) Yolg'izlik, yaqin kishisining o'limi, muvaffaqiyatsiz, sevgi bilan bog'liq bo'lgan nizolar;
- D) o'quv dasturlarning o'zlashtirmaslik, sinfda ikkinchi yilga qoldirilishi;
- E) Moddiy etishmovchilik tufayli kerakli shart-sharoit bilan

etarlicha ta'minlanmaslik.

36. Qanday ko'rinishdagi oila «an'anaviy oila» deb yuritiladi?

A) Bunday oilada ayol asosan uy-ro'zg'or ishlari bilan, bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi;

B) Bunday oilada asosiy diqqat e'tibor bolaga qaratiladi. Ota-onaning barcha faoliyati bolaning manfaati bilan bog'lanadi;

C) Bunday oilada bir bolali yoki umuman bola bo'lmastligi mumkin;

D) Bunday oila ota-ona bolaning manfaati bilan bog'lanadi;

E) Bunday oilada ota bola tarbiyasi bilan shug'ullanadi;

37. Bolalarga ijtimoiy tarbiya berish fikrini ilk bor kim bildirgan?

A) A.R.Beruniy;

B) A.Navoiy;

C) A.Farobiy;

D) Ibn Sino ;

E) A.Avloniy.

38. O'rtog'ingiz tashqi ko'rinishiga e'tiborli bo'lasizmi?

A) Qanday kiyinishi va ko'rinishi menga ahamiyati yo'q;

B) Ijobiy munosabat bildiraman;

C) Albatta e'tiborli bo'laman;

D) Yo'q e'tibor bermayman, insonni ichki dunyosi go'zal bo'lishi kerak;

E) Inson doimo go'zal bo'lishi kerak.

39. Sizga oila davrasida dam olib, bayramlarni birga nishonlash yoqadimi?

A) Bu juda zerikarli;

B) Menga farqi yo'q;

C) Albatta oila muqaddas dargoh;

D) Oila men uchun zerikarli;

E) Do'stlarim davrasida bo'lish yaxshi.

40. Ota-onalar farzandlari oldida obro'ga ega bo'lishi uchun nima qilishlari kerak?

A) Farzandlari ruhiy dunyosiga mos muomala qilishlari kerak;

B) Farzandlariga nisbatan mehr-muhabbatli bo'la olishlari kerak;

C) Farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'la olishlari kerak;

D) Farzandlariga nisbatan mehribon bo'la olishlari kerak;

E) Farzandlariga nisbatan ham mehribon ham qattiqqo'l bo'la

olishlari kerak.

41. Qanday ko'rinishdagi oilalar «Anormal» munosabatga ega bo'lgan oilalar deyiladi?

A) Bunday toifaga oila davrasida ko'ngli bo'shlik, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni aks ettirgandek bo'lgan oilalar kiradi;

B) Bunday toifaga bola oilaviy nizo manbai hisoblanadi, alkogol va giyohvand oilalar kiradi;

C) Bunday toifaga oilada ota-onaning obro'yi hal kiluvchi rol uynaydi, teng huquqlik erkin xatti-harakat qilish o'z ahamiyatini yo'qotadi;

D) Bunday toifaga ko'ngli bo'shlik, bola oilaviy nizo manbai hisoblanadi;

E) Bunday toifaga oilada tenghuquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, alkogol va giyohvand oilalar kiradi.

42. Sizningcha oilani kim boshqarishi lozim?

A) oilani er boshqarishi lozim;

B) oilani ayol boshqarishi lozim;

C) oilani ayol va er tenglikda boshqarishi lozim;

D) oilani kim tadbirkor bo'lsa, shu kishi boshqarishi lozim;

E) oilani buvi yoki bobolar boshqarishi lozim.

43. O'zbekistonda yigit qizlar necha yoshdan nikohdan o'tadilar?

A) yigitlar 18 yosh qizlar 17 yosh;

B) yigitlar 19 yosh qizlar 18 yosh;

C) yigitlar 20 yosh qizlar 19 yosh;

D) yigitlar 21 yosh qizlar 20 yosh;

E) yigitlar 17 yosh qizlar 18 yosh.

44. O'rtog'ingizdagi qanday fazilatlarni qadrlaysiz?

A) rostgo'ylik, oliyanoblik;

B) mardlik, noziklik;

C) e'tiborlilik, tashqi ko'rinish;

D) oliyanoblik, noziklik;

E) mardlik, rostgo'ylik.

45. Oila va oila tarbiya masalalarini o'zida yoritgan «Tadbiri-ul manozi» asari muallifi kim?

A) A.R.Beruniy;

B) Abu Ali Ibn Sino;

- C) A.Navoiy;
- D) A.Avloniy;
- E) A.N.Farobiy.

46.O'zbek oilalarda eng ko'p ajralishlarining asosiy sabablari qaysilar deb o'ylaysiz?

A) turmush o'rtog'ining ko'pol munosabati uchun hurmat qilmaslik;

B) muhabbatsiz oila qurish oqibatida;

C) turmush o'rtog'ining oilaviy hayot masalasiga befarq bo'lishi;

D) oilaviy hayotdagi iqtisodiy qiyinchiliklar;

E) ota-ona, qarindoshlarni oilaviy hayotga aralashuvi.

47.Sizningcha qanday oilalar mustahkam bo'ladi?

A) sovchilar asosida qurilgan oila;

B) ota-onalar roziligi asosida qurilgan oila;

C) sevgi asosida qurilgan oila;

D) qarindoshlar tavsiyasi asosida qurilgan oila;

E) tanish-bilishlar asosida qurilgan oila.

48.Bolaning tarbiyasida otaning roli katta ekanligini qaysi mutafakkir aytgan?

A) A.A.Ibn Sino;

B) A.R.Beruniy;

C) A.N.Farobiy;

D) A.Navoiy;

E) H.H. Niyoziy.

49.Oilada janjal chiqib, jahlingiz chiqqan paytda....

A) o'rtog'im bilan urishib olmasam bo'lmaydi;

B) yolg'iz qolishni xohlayman;

C) jahlim chiqqanligini bildirmaslikka harakat kilaman;

D) rosa baqirib xumordan chiqib olaman;

E) indamaslikka harakat qilaman.

50.O'zbek oilalarining asosiy an'analaridan biri nima deb o'ylaysiz?

A) mehnatga o'rgatish;

B) san'atga o'rgatish;

C) rasm chizishga o'rgatish;

D) sportga o'rgatish;

E) mehmondo'stlikka o'rgatish.

51.Sizningcha oilada har doim erkak kishi ustun bo'lishi

kerakmi?

A) oilani erkak kishi boshqarishi kerak;

B) oilani boshqarish uchun kimda qobiliyat bo'lsa, o'sha kishi boshqarish kerak va u kishi ustun bo'lishi kerak;

C) oilani oiladagi keksalar (ota yoki ona) boshqarish kerak hamda ular ustun bo'lishi kerak;

D) oilani ham ayol ham erkak teng boshqarishi kerak;

E) oilada ham erkak ham ayol bir-birlarini hurmat qilishi lozim, biri ustun bo'lishi shart emas.

52.Oilangizdagi janjalga ota-onangizni va yaqinlaringizni aralashishiga qanday qaraysiz?

A) aralashishlarini hohlamayman;

B) aralashishlariga befarqman;

C) aralashishlarini xohlayman;

D) oilamni sirini tashqariga chiqishini xohlamayman;

E) faqat ota-onamni aralashishiga qarshi emasman.

53.Tarbiyaning muhim quroli nima?

A) ibrat-namuna;

B) suhbat;

C) nutq;

D) donishmandlik;

E) tanbex berish.

54.Oilada bolalarni xatti-harakatlarini doimo maqtashni ma'qul deb hisoblaysizmi?

A) oilada bolalarni xatti-harakatlarini doimo maqtash ma'qul emas;

B) oilada bolalarni xatti-harakatlarini doimo maqtash ma'qul;

C) oilada bolalarni xatti-harakatlarini vaqti-vaqtida maqtash ma'qul;

D) oilada bolalarni xatti-harakatlarni vaqti-vaqtida maqtash ma'qul emas;

E) oilada bolalarni xatti-harakatlarini doimo ma'qullab quyish lozim.

56. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlashda qanday salbiy xislatni oldini olish kerak deb uylaysiz?

A) saxiylik;

B) injiqlik;

C) ko'ngli ochiqlik;

- D) xudbinlik;
E) yoqimtoylik.

Ota-onaning ismi va familiyasi. _____
Tug'ilgan yili. _____
Kasbi _____
Ijtimoiy kelib chiqishi _____
Oilaning moddiy ta'minoti _____
Bolalar soni _____
Ota-onaning oilada o'tkazish vaqti _____
Bolalar tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi _____
"Siz farzandingizni bilasizmi?" test savollarini ishlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5313-сон фармони, 2018 йил 25 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Халқ таълими-ни бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5538-сон фармони, 2018 йил 5 сентябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. ПФ-5712-сон. 2019 йил 29 апрел. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида", Тошкент ш., 2017 йил 20 апрель, ПҚ-2909-сон;
7. 2017 йил 30 сентябрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги ПҚ-3304-сонли қарори, 2017 йил 30 сентябрь;
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, "Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирлигини ташкил этиш тўғрисида", Тошкент ш., 2017 йил 30 сентябрь, ПҚ-3305-сон;
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3775-сон. 2018 йил 5 июнь.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Таълим сифатини назорат қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4119-сон қарори,

2019 йил 16 январь.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини ривожлантириш, иқтидорли болаларни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадида “Президент мактабларини очиш” тўғрисида”ги ПҚ-4199-сон қарори 2019 йил 29 февраль.

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори, 2017 йил 6 апрель.

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 304-сонли қарори, Тошкент ш., 2017 йил 22 май.

14. А.Авлоний. «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» Т. Ўқитувчи. 1992 й.

15. Абдурахмонов Ф., Давлетшин М. Одамлар билан қандай мулоқотга киришиш ва ёндашиш керак. –Т.1996.

16. Аникеева. Жамоадаги руҳий муҳит. –Т. 1992.

17. Андрушакевич А.А. Введение облика учебно-воспитательного процесса XXI века. Актуальные вопросы совершенствования учебно-воспитательного процесса: Сборник научно-методических работ. ВМИФПС РФ при НГМА. Н.Новгород. 1997.

18. Ахлоқ одобга оид ҳадислар. –Тошкент 1990.

19. Аҳлидинов Р., Саидов Х. ва бошқалар. Истиқлол ва таълим. –Тошкент “Шарқ” 2001.

20. Абдурахмонова Э. Ўйин воситасида ўқувчиларнинг билимини мустаҳкамлаш. Тошкент, 1985.

21. Башев В.В., Вальковская Г.М., Водянский А.М. и др. Стратегия модернизации содержания общего образования: материалы для разработки документов по обновлению общего образования. –М. ООО “Мир книги” 2001.

22. Буюк сиймолар, алломалар. Ўрта Осиёда машхур мутафаккир ва донишмандлар. Тошкент 1995. 1-китоб.

23. Бондаренко А.Ю. Воспитание детей в игре “SOS” М-1989 год.

24. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг пси-

хологияси. – Тошкент. “Ўқитувчи” 1999.

25. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т. Таълим менежменти. – Тошкент, “Ворис-нашриёт”. 2006.

26. Джураев Р.Х. Талабаларни маънавий ва ахлоқий тарбиялашда этнографик тўғарагининг ўрни ва аҳамияти. – Т 2008. ЎзПФИТИ

27. Джураев Р.Х. Болаларнинг ахлоқий тарбиясида халқ удумлари ва анъаналаридан фойдаланиш. – Тошкент - 2009. Халқ таълими ж. 2-сон.

28. Джураев Р.Х. Нововведение в учебной-воспитательный процесс. Формирование гармонично-развитого поколения в современных условиях. – Т. 2010. Часть 1.

29. Джураев Р.Х. Тарбияга ёндашув ҳақида. Формирование гармонично-развитого поколения в современных условиях. Т 2010. Часть 4

30. Джураев Р.Х. Формирование гармонично-развитого поколения в современных условиях. Т 2011. Часть 1, 5,6,7,8. 2-вўпуск.

31. Джураев Р.Х. Умумий ўрта таълимда интеграллашган таълим - давр талаби. ЎзПФИТИ. Т- 2007.

32. Даминова М., Адамбекова Т. Ўйин машғулоти. –Т. Ўқитувчи 1993.

33. Джабборов А.М. Этник стереотип нима? // Фан ва турмуш. 1990.: 2-сон.

34. Йўлдошев Ж.Ғ., Аҳлидинов Р.Ш., Отабоева Р.Н. Мустақил Ўзбекистон таълими. –Тошкент. “Шарқ” 1997.

35. Йўлдошев Ж.Ғ. Таълим янгиланиш йўлида. –Тошкент. “Ўқитувчи” 2000.

36. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т. 1992 йил.

37. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. 1997 йил

38. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент “Ўқитувчи” 1994.

39. Каримов В.Ш. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. –Т. 1999.

40. Каримова В.М. Янги турдаги таълим муассаларидаги

ўқувчиларни мустиқил фикрлашга ўргатишнинг психологик муаммолари. // Янги турдаги ўрта махсус ўқув юртларида таълим ва тарбиянинг самарадорлигини оширишнинг психологик муаммолари. - ТГПУ им. Низами.: 1998.- С.10-13.

41. Иномова М. Оилада болани маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлар. -Т. Фан 1995.

42. Иномова М.О. «Оилада болаларнинг маънавий ахлоқий тарбияси» Т. 1999.

43. Рахимова К. Болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш учун ўйинлар. 2006. Фарғона.

44. Рузикулов Н.А. «Психология самореализации современного управленца». Методическое руководство для директоров образовательных учреждений. МНО РУз, - Ташкент, -2003.- 12с.

45. Расулова М., ва бошқ. Ўзбекистон болалар боғчасининг таълим-тарбия дастури. -Т.1992.

46. Мунавваров А.К. Педагогика. -Тошкент. "Ўқитувчи" 1996.

47. Мунавваров А.Қ. «Оила педагогикаси» Т.Ўқитувчи. 1998.

48. М.Муродов «Олтин сандиқ очилсин» Т.1994 й.

49. Статистика науки и инновация. Краткий терминологический словарь. Под редакцией Л.М.Гохберга. -Москва. 1985.

50. Суртаева Н.Н. Проектирование педагогических технологий в профессиональной подготовке учителя. (на примере естественно-научных дисциплин): Дисс. д-ра педнаук. Москва 1995.

51. Турсунов И.Е. Халқ педагогикасининг долзарб муаммолари. -Тошкент. "Ўқитувчи" 1990.

52. Тошимов Р.Ю. Муомала тренинги. -Т. 1994.

53. Курбонов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А., Куронов М., Ахлидинов Р.Ш., Мажидов И. Миллий истиқлол ғоясини шакллантиришда ташкилий услубий ёндашувлар. -Тошкент. "Академия" 2002.

54. Ғозиев Э.Тафаккур психологияси. -Тошкент. "Ўқитувчи" 1990.

55. Ҳасанбоева О. "Одобнома" 1, 2, 3, 4-синф учун дарслик. -Т., 2003.

56. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия ҳақида. 2-китоб, 1993.

57. Тўраева О. Оилавий муносабатлар психологияси. -Т. 1994.

58. Согинов Н.А., Хабибуллаев Ф.Р. Ўқувчилар ўртасида шахслараро муносабатларни ўрганиш. -Т. 1998.

59. Сафо Очил «Мустиқиллик маънавияти ва асослари» Т. Ўқитувчи 1995 й.

60. Кайковус «Қобуснома» Т. Мерос 1992 й.

61. Педагогика. Мавлонова Р. таҳрири остида. Т. Ўқитувчи. 2002 й.

62. Тўраева О «Оилада бола тарбияси» Т. Ўқитувчи 1995 й.

63. К.Хошимов, С.Нишанов, М. Инамова Педагогика тарихи. Т.1996 й.

64. Ўзбек педагогикаси антологияси Т. 1999 й.

65. Ж.Юлдашев, С.Хасанов «Авестода ахлоқий таълимий қарашлар»Т.1992й.

66. Шакуров Р.Х. Социально-психологические проблемы руководства педагогическим коллективом. - М., 1982. - 260 с.

67. Файзуллаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности.- Ташкент. Фан.-1987. -134 с.

68. Суннатова Р.И. Самосознание субъекта жизнедеятельности. Коллективная монография. Изд-во «Фан», Ташкент, 260 с. В соавторстве с Агзамходжаевой Э.А., Шариповой М.Д., Ариповой Г.С., Вильдановой А.Р.

69. Суннатова Р.И. Особенности «Я-концепции» как фактор, определяющий профессиональное становление. Материалы второй Всероссийской научно-практической конференции 24-25 июня 2005 г. Казань.

70. Суннатова Р.И. Саморегуляция мыслительной деятельности.-Т.: ФАН. - 1996. - 8 п.л.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. O'QUVCHILARNING DARSGA BO'LGAN MUNOSABATLARINI KLASSTER ASOSIDA O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	7
1.1. Shaxs fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlarni oldini olish pedagogik muammo sifatida	7
1.2. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish imkoniyatlari. ..	19
1.3. Dars jarayoniga salbiy munosabatdagi bolalar fe'l-atvorini yaxshilashning dolzarb masalalari	59
II. BOB. O'QUVCHILARDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH	65
2.1. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni tizimli va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish imkoniyatlari	65
2.2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda dars intizomini shakllantirish vositalari	71
2.2. O'quvchilarni ijtimoiy psixologik bilimdonlikka va samarali muomalaga o'rgatish texnikasi.....	75
2.4. Ijtimoiy psixologik bilimdonlik - samarali muomala omili sifatida	80
2.5. O'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari tahlili	91
III. BOB. BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'RNI	101
1.1. Yoshlarni oilada ma'naviy etuk qilib tarbiyalash mezonlari	101
1.2. Oila – milliy tarbiya manbai	115
XULOSA	124
ILOVALAR	127
ADABIYOTLAR RO'YXATI	139

R.MUSURMONOV, M.MUSURMONOVA

O'QUVCHILARNING DARSGA BO'LGAN MUNOSABATINI KLASSTER ASOSIDA O'RGANISH

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 27.06.2022.
Bichimi 84x108 1/32. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 9,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 88.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha

- 4708/x -

